RAQAMLI TARAQQIYOT VA BIOIQTISODIYOT

Ilmiy elektron jurnal



II-son, 2025

"RAQAMLI TARAQQIYOT VA BIOIQTISODIYOT"
ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIR KENGASHI TARKIBI

Tahrir kengash raisi: i.f.d., prof. Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich
Bosh muharrir: i.f.d., prof. To'rayev Shavkat Shuxratovich

Tahrir kengashi a'zolari

i.f.d., prof. Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich
i.f.d., prof. To‘rayev Shavkat Shuxratovich
t.f.d., prof. Yaxshibayev Doniyor Sultonbayevich
t.f.d., prof. Sultanov Djamshid Baxodirovich
t.f.d., prof. Tashev Komil Axmatovich
i.f.d., dots. Saitkamolov Muhammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li
i.f.n., dots. Iminova Nargizaxon Akramovna
i.f.d., prof. Karlibaeva Raya Xodjabayevna
i.f.d., prof. Allayeva Gulchehra Jalgasovna
i.f.d., prof. Yusupxodjayeva Gulchehra Bahodirxodjayevna
i.f.d., prof. Muhitdinova Kamola Alisherovna
i.f.d., prof. Tillaxodjayev Muzaffarxo‘ja Abdupattaxovich
i.f.d., dots. Ismoilova Gulnora Fayzullayevna
i.f.d., prof. Salomova Sarvinoz Salimovna
i.f.f.d., dots. Xudaynazarova Dilorom Xayrullayevna
i.f.f.d., dots. Bobojonova Zarnigor Shokirovna
i.f.f.d., dots.Taraxtiyeva Gulmira Kulbayevna
i.f.f.d., dots. Iminov Akbarjon Odiljon o‘g‘li
i.f.f.d., v.b. dots. Xasanova Nigora Asqarovna
i.f.f.d., v.b. dots. Abdimo‘minova Saodat Taxirjonovna
i.f.f.d., v.b. dots. Abduturapova Dildora Farhodjon qizi
i.f.f.d., v.b. dots. Maxmudjanov Sarvar Ulugbekovich
i.f.f.d., v.b. dots. Korabayev Eldor Alijonovich
i.f.f.d., v.b. dots. Raxmatullayev Adhamxon Habibullo o‘g‘li
i.f.f.d., v.b. dots. Raximova Umida Abduraimovna
i.f.f.d., v.b. dots. Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi
i.f.f.d., v.b. dots. Kurbanova Maftuna Lazizovna
i.f.f.d., v.b. dots. Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich
i.f.f.d., v.b. dots. Zuxurova Nargiza Abdusattarovn
i.f.f.d., PhD. Sobirov Shaxzod Ozod o‘g‘li

MUNDARIJA

Gofurov R.	Xizmat ko‘rsatish faoliyatida yo‘nalishlarni kengaytirishning ilmiy baholash asoslari……	5
Kasimova N.	O‘zbekiston avtomobil sanoati korxonalarida investision faoliyatini baholash…….	18
Ibadullayev S.	Aloqa korxonalarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning innovatsion yo‘nalishlari……	28
Yakubova D.	Повышение инвестиционной привлекательности автомобильной промышленности Узбекистана…….	39
Parpiyeva M.	O‘zbekistonda “elektron tibbiy xizmatlar” sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari……..	46
Xakimjanova D.	Mamlakatda raqamli xizmatlarni ko’rsatish faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy tahlili……...	60
Iminov T.	O‘zbekistonda sug‘urta sohasini rivojlantirish istiqbollari…….	69
Erkinova F.	Tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari va ularni urlari (“anor bank” aj misolida).....	69
Xakimova M.	Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish yo‘llari..	82
Xoshimov X.	Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarining iqtisodiy xususiyatlari……...	93
Ramatov Z.	“olmaliq kmk”ajning yashil investitsion va yashil strategik holatini baholash…….	102
Atajanov A.	Banklarning aktiv va passivlarini boshqarishning takomillashtirish bosqichlari……...	118

Kurbanova M. Toshkent shahar hokimligi mahkamasi qoshidagi “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUKning firmografik tahlili…… 125

I. Iqtisodiyot tarmoqlarida ilmiy-nazariy asoslar va uslubiy tadqiqotlar asosida raqamli taraqqiyot

XIZMAT KO‘RSATISH FAOLIYATIDA YO‘NALISHLARNI KENGAYTIRISHNING ILMIY BAHOLASH ASOSLARI

TATU, mustaqil tadqiqotchisi G’ofurov Ravshan

Annotatsiya: Ushbu maqolada aloqa korxonalarining xizmat ko‘rsatish faoliyatini diversifikatsiyalash jarayoni va uning zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi strategik ahamiyati yoritilgan. Maqolada xizmatlar portfelini kengaytirish orqali aloqa kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va yangi daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Ansoff matritsasi, Herfindahl-Hirschman indeksi, entropiya indeksi, Porterning besh kuch modeli, BCG matritsasi va 5D modeli asosida diversifikatsiya strategiyalarining ilmiy asoslari yoritilib, ularning matematik modellari orqali xizmat ko‘rsatish tizimining samaradorligi baholangan. Xalqaro tajriba va mahalliy shart-sharoitlar kontekstida raqamli xizmatlarning rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so’zlar: Diversifikatsiya, aloqa korxonalari, xizmatlar strategiyasi, Ansoff matritsasi, HHI, entropiya indeksi, Porter modeli, BCG, raqamli transformatsiya, raqamli xizmatlar, FinTech, OTT, segmentlash, hududiy diversifikatsiya, strategik tahlil, raqobat muhit, foyda-risk tahlili, raqamli infratuzilma, 5D modeli.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmat ko‘rsatish faoliyatining diversifikatsiyalash jarayoni aloqa korxonalari uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqobat sharoitlarining keskinlashuvi, raqamli texnologiyalar ta'sirining ortib borishi va mijozlar ehtiyojlarining tez-tez o‘zgarib borayotgani bu sohada xizmat turlarining kengaytirilishini zaruratga aylantirgan. Xizmatlarni diversifikatsiyalash orqali aloqa korxonalari nafaqat o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlashi, balki turli bozor segmentlarida faol ishtirok etish imkoniyatini ham qo‘lga kiritadi. Bu jarayon korxonalarning raqobatbardoshligini

mustahkamlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifati bo‘yicha yangi mezonlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan qaralganda, aloqa xizmatlarini diversifikatsiyalash korxonalarning bozor holatini mustahkamlash va yangi daromad manbalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi global raqamli transformatsiya sharoitida aloqa korxonalari an’anaviy xizmatlar bilan cheklanmasdan, moliyaviy texnologiyalar, axborot xavfsizligi, bulutli xizmatlar va raqamli kontent yetkazib berish kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritishga intilmoqda. Shu boisdan, xizmatlar portfelini diversifikatsiyalash bu korxonalar uchun nafaqat tirik qolish strategiyasi, balki barqaror o‘sish va xalqaro bozorlarda raqobatlashish vositasiga aylanmoqda. Bu tendensiyalar diversifikatsiyaning zamonaviy iqtisodiy sharoitda aloqa sohasidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar orasida aloqa sohasidagi klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan Ansoff (1957), Porter (1979), Herfindahl (1950), Shannon (1948) kabi mualliflarning ilmiy ishlari asosiy nazariy bazani tashkil qiladi. Ularning modellariga tayanib, diversifikatsiya jarayonini tahlil qilishga doir yondashuvlar chuqurroq asoslab berilgan. BCG matritsasi bo‘yicha General Electric va Nestlé kabi global kompaniyalarning tajribasiga tayangan holda, real amaliy qo‘llanish misollari keltirilgan. Shuningdek, raqamli xizmatlar samaradorligini baholashda MCDM (ko‘p mezonli qaror qabul qilish) yondashuvi asosida ishlab chiqilgan 5D modeli innovatsion tahlil vositasi sifatida taklif etilgan. Bu esa ilmiy va amaliy adabiyotlarning uyg‘un holda qo‘llanilganidan dalolat beradi.

Tadqiqot usullari: Maqolada kompleks yondashuv asosida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro kompaniyalar tajribasi asosida kontent tahlil usuli qo‘llanilgan. Bunda xizmatlar diversifikatsiyasiga oid qarorlar, dasturlar, real sektor ko‘rsatkichlari solishtirilib, iqtisodiy sharoitlarga mos strategik modellar ishlab chiqilgan. Statistika va grafik

tahlil orqali xizmat ko‘rsatish sohasida qo‘shilgan qiymat, foydalanuvchi soni va raqamli xizmatlar ulushi baholangan.

Matematik modellashtirish usullari asosida Ansoff matritsasi, HHI, entropiya indeksi, Porter modeli, BCG matritsasi va 5D modeli orqali xizmatlar portfelining diversifikatsiya darajasi aniqlangan. Bu modellar yordamida turli xizmat segmentlari, hududlar va texnologiyalar kesimida strategik ustuvorliklar baholangan. MCDM (multi-criteria decision making) yondashuvi asosida baholash indekslari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu holat raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar faoliyatini samarali tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Ansoff matritsasi diversifikatsiya strategiyalarini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu matritsa mahsulot va bozor o‘zgaruvchilariga asoslanib, to‘rtta strategiyani ajratadi: bozor penetratsiyasi, mahsulotni rivojlantirish, bozorni rivojlantirish va diversifikatsiya. Ansoff matritsasi korxonalarga qaysi strategiya ularning resurslari va bozor sharoitlariga mos kelishini aniqlashda yordam beradi. Mazkur matritsani baholash jarayonida korxona faoliyati bo‘yicha to‘plangan statistik ma’lumotlar, bozor ulushi, iste’molchi segmentlari,
raqobatchilar holati, innovatsion salohiyat, moliyaviy barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar asosiy tahlil mezonlari sifatida xizmat qiladi. Har bir strategiya yo‘nalishi risk darajasi, investitsion talab, bozorga kirish to‘siqlari va kutilayotgan foyda darajasi kabi mezonlar asosida solishtirma baholashga tutiladi. Matritsa korxona uchun strategik tanlov qilishda ustuvorliklar va resurslarni yo‘naltirishga oid asosli qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

	Mavjud Bozor	Yangi Bozor
Mavjud Mahsulot	Bozor penetratsiyasi	Bozorni rivojlantirish
Yangi Mahsulot	Mahsulotni rivojlantirish	Diversifikatsiya

1-rasm. Ansoff matsitsasi va uning komponentlari[1]

Masalan, aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi o‘rta hajmdagi bir kompaniya o‘zining mavjud mahsulotlarini (masalan, internet xizmatlari) ayni mijozlar segmentiga taklif etishda bozor penetratsiyasi strategiyasidan foydalanishi mumkin. Bunda reklama kampaniyalarini kuchaytirish, xizmat sifati va tezligini oshirish orqali mavjud mijozlar bazasini kengaytirishga qaratiladi. Shu bilan birga, yangi turdagi xizmatlar – masalan, raqamli xavfsizlik bo‘yicha maslahat xizmatlari yoki bulutli xotira yechimlarini joriy qilish orqali kompaniya mahsulot diversifikatsiyasi strategiyasini tanlashi mumkin. Bu strategiyalarni tanlashda Ansoff matritsasi asosida mahsulotning innovatsion darajasi, mavjud infrastrukturadan foydalanish imkoniyati, xizmat narxi va xaridorlar ehtiyoji singari omillar batafsil tahlil qilinadi. Shunday qilib, Ansoff modeli yordamida aloqa korxonasi xizmat portfelini strategik ravishda diversifikatsiyalashi va barqaror raqobatbardoshlikka erishishi mumkin.

“Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) bozordagi konsentratsiya darajasini o‘lchash uchun keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkich bo‘lib, u bozor ishtirokchilarining nisbiy ulushlarini hisobga oladi”[13]. HHI qiymati bozordagi raqobat muhitini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega:

$$“HHI = \Sigma_{i=1}^{n} s_i^2$$

Bu yerda, si – i-xizmat turi bo‘yicha korxonaning bozor ulushi. HHI qiymati past bo‘lsa, diversifikatsiya darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

HHI < 0,01 (yoki 100 ballgacha): yuqori darajada raqobatbardosh bozorni ko‘rsatadi.

0,01 ≤ HHI < 0,15 (100 dan 1 500 ballgacha): raqobatbardosh bozor mavjudligini bildiradi.

0,15 ≤ HHI < 0,25 (1 500 dan 2 500 ballgacha): o‘rtacha konsentratsiyalashgan bozorni ifodalaydi.

HHI ≥ 0,25 (2 500 ball va undan yuqori): yuqori darajada konsentratsiyalashgan bozorni anglatadi”[6].

HHI qiymatining oshishi bozordagi konsentratsiyaning kuchayishini, ya'ni raqobatning pasayishini ko‘rsatadi. Masalan, agar bozorda faqat bitta kompaniya

faoliyat yuritsa (monopoliya), uning bozor ulushi 100% bo‘ladi va HHI = 1 (yoki 10 000 ball) ga teng bo‘ladi. Aksincha, ko‘plab kichik kompaniyalar mavjud bo‘lgan bozorda HHI qiymati nolga yaqinlashadi, bu esa yuqori darajadagi raqobatni bildiradi.

“HHI dastlab 1945-yilda nemis iqtisodchisi Albert O. Hirschman tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘zining "Milliy quvvat va tijorat tuzilishi" (National Power and the Structure of Foreign Trade) asarida bu indeksni taklif qilgan. Biroq, indeks 1950-yilda amerikalik iqtisodchi Orris C. Herfindahl tomonidan mustaqil ravishda qayta kashf etilgan va uning doktorlik dissertatsiyasida qo‘llanilgan. Shu sababli, indeks ikkala olim nomi bilan ataladi”[4].

HHI dastlab sanoat tarmoqlaridagi bozor konsentratsiyasini baholash uchun qo‘llanilgan. Bugungi kunda esa u “raqobat siyosati va anti-monopoliya qonunchiligida keng qo‘llanilib, bozordagi konsentratsiya darajasini baholash va potensial monopolistik holatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, Qo‘shma Shtatlar Adliya Departamenti HHI dan foydalanib, birlashish va qo‘shib olish bitimlarining bozorga ta'sirini baholaydi”[15].

HHIning afzalligi uning hisoblashdagi soddaligi va katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qilmasligi. Biroq, u bozorni aniqlashdagi murakkabliklar va mahsulotlar o‘rtasidagi o‘rinbosarlik darajasini hisobga olmasligi ba'zi cheklovlarga ega. HHI boshqa tahlil usullari bilan birgalikda qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Entropiya indeksi, axborot nazariyasida keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, korxonalarning xizmat turlari bo‘yicha diversifikatsiya darajasini baholashda ham samarali vosita sifatida foydalaniladi. Ushbu indeks korxonaning daromadlari turli xizmat turlari o‘rtasida qanchalik teng taqsimlanganligini o‘lchaydi. Entropiya indeksi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$E = \sum_{i=1}^{n} Pi \times \ln(pi)$$

Bu yerda: E — entropiya indeksi; pi — i-xizmat turi bo‘yicha korxonaning umumiy daromadidagi ulushi; n— xizmat turlarining umumiy soni.


“Entropiya indeksi qiymati yuqori bo‘lsa, bu korxonaning daromadlari turli xizmat turlari o‘rtasida tengroq taqsimlanganligini, ya'ni diversifikatsiya darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, indeksning past qiymati daromadlarning bir yoki bir nechta xizmat turiga to‘planib qolganligini, ya'ni diversifikatsiya darajasi past ekanligini bildiradi”[6].

Entropiya tushunchasi dastlab 1948-yilda amerikalik matematik va elektrotexnika muhandisi Klod Shannon tomonidan axborot nazariyasiga kiritilgan. U o‘zining "Matematik kommunikatsiya nazariyasi" (A Mathematical Theory of Communication) asarida entropiya tushunchasini axborot tizimlaridagi noaniqlikni o‘lchash uchun taklif qilgan. “Shannonning entropiya tushunchasi keyinchalik iqtisodiyotda, xususan, diversifikatsiya darajasini baholashda qo‘llanila boshlandi. Masalan, 1983-yilda iqtisodchi Jeyms T. Marchioro entropiya indeksini kompaniyalarning diversifikatsiya strategiyalarini tahlil qilishda qo‘llagan”[5].

Entropiya indeksining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u korxonaning barcha xizmat turlarini hisobga olib, daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlikni aniq ko‘rsatadi. Biroq, ushbu indeks xizmat turlarining o‘zaro bog‘liqligini yoki strategik ahamiyatini hisobga olmaydi. Shu sababli, entropiya indeksi boshqa diversifikatsiya ko‘rsatkichlari bilan birgalikda qo‘llanilganda yanada to‘liqroq tahlil qilish imkonini beradi.

“Porterning besh kuch modeli, amerikalik iqtisodchi Maykl Porter tomonidan 1979-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, sanoat tarmoqlaridagi raqobat muhitini tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi”[2]. Ushbu model quyidagi besh asosiy kuchni o‘z ichiga oladi (2-rasm).

Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan Besh kuch modeli (Porter's Five Forces) aloqa korxonalarining xizmat ko‘rsatish faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyasini shakllantirish va uni baholashda juda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ammo bu modelda natijalar matematik formulalar orqali emas, balki analitik ballar, indekslar, ustunlik va zaifliklarni aniqlash orqali sifatli baholanadi.



2-rasm. Porterning besh kuch modeli

Har bir kuch (yangi raqobatchilar, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, o‘rinbosarlar) mezon asosida **ball berish** orqali **baholanadi (1-jadval).**

1-jadval Besh kuch modelini baholash mezonlari[1]

Ta’sir darajasi	Ball	Izoh
Yuqori	3	Strategik xavf juda katta
O‘rtacha	2	Nazorat ostida, lekin barqaror emas
Past	1	Tashqi xavf deyarli mavjud emas

Har bir kuch uchun ball qo‘yilib, ularning yig‘indisi olinadi (eng ko‘pi 15 ball bo‘lishi mumkin). So’ngra t**ahliliy baho chiqariladi:**

13–15 ball: bozorda raqobat kuchli, diversifikatsiya strategiyasi ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. **9–12 ball:** o‘rtacha raqobat, innovatsion

[1] https://www.scribd.com/doc/94428785/Porter-s-Five-Forces-on-Us-Telecom-Industry#:~:text=The%20five%20forces%20are%3A%20rivalry,and%20threat%20of%20substitute%20products.


yondashuvlar bilan diversifikatsiya samarali bo‘lishi mumkin. **5–8 ball**: past raqobat, faol diversifikatsiya qilish uchun qulay strategik muhit.

Masalan, 5G xizmatlarini joriy etmoqchi bo‘lgan aloqa korxonasining Porter tahlilini o‘tkazmoqchimiz (2-jadval)

2-jadval 5G xizmatlarini joriy etmoqchi bo‘lgan aloqa korxonasining Porter tahlili[2]

Kuch	**Baho**	**Izoh**
Yangi raqobatchilar xavfi	3	Texnologik kirish osonlashmoqda
Yetkazib beruvchilar kuchi	2	Asbob-uskunalar kam ishlab chiqariladi
Xaridorlar kuchi	2	Ko‘p alternativa mavjud
O‘rinbosarlar xavfi	2	LTE va Wi-Fi tarmog‘i raqobatchi bo‘la oladi
Ichki raqobat	3	Bozor to‘yingan va kompaniyalar ko‘p

Yig‘indi: 3+2+2+2+3 = 12 ball → Bu o‘rtacha xavfli bozor degani. Demak, diversifikatsiya qilish muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin, lekin ehtiyot choralarini ko‘rish talab etiladi.



3-rasm. BCG matritsasi asosida baholash va uning toifalari[8]

[2] Muallif tomonidan silulyatsion namuna

“BCG matritsasi, korxonaning xizmat turlarini bozor o‘sishi va bozor ulushi asosida to‘rt toifaga ajratadi: "yulduzlar", "sigirlar", "itlar" va "savol belgisi". Ushbu matritsa korxonaga qaysi xizmat turlariga ko‘proq e'tibor qaratish kerakligini aniqlashda yordam beradi”[7].

Risk-return tahlilining asosiy tamoyillari:	**Risk va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlik:** Investitsiya nazariyasiga ko‘ra, yuqori daromad olish uchun yuqori risklarni qabul qilishga tayyor bo‘lish kerak. Bu "risk-return tradeoff" deb nomlanadi.
	Risklarni baholash: Diversifikatsiya strategiyasini rejalashtirishda, har bir yangi xizmat yoki mahsulotning potensial xavflari aniqlanadi va baholanadi. Bu jarayonda sifat tahlili (risk turlarini aniqlash) va miqdoriy tahlil (risklarning moliyaviy ta'sirini hisoblash) qo‘llaniladi.
	Daromadlarni baholash: Har bir diversifikatsiya yo‘nalishining kutilayotgan daromadi prognoz qilinadi. Bu jarayonda bozor tahlili, talab va taklifni o‘rganish, narx belgilash strategiyalari kabi usullar qo‘llaniladi
Risk-return tahlilini amalga oshirish bosqichlari:	**Risklarni identifikatsiya qilish:** Yangi xizmat yoki mahsulot bilan bog‘liq potensial xavflarni aniqlash.
	Risklarni baholash: Aniqlangan xavflarning yuz berish ehtimoli va ularning moliyaviy ta'sirini baholash.
	Daromadlarni prognoz qilish: Diversifikatsiya natijasida kutilayotgan daromadlarni hisoblash.Namdu
	Risk va daromadlarni solishtirish: Har bir diversifikatsiya yo‘nalishi bo‘yicha risk va daromadlarni taqqoslash orqali eng maqbul strategiyani tanlash.

4-rasm. Risk-return tahlilining asosiy tamoyillari amalga ishirish bosqichlari[10]

BCG matritsasi ko‘plab yirik kompaniyalar tomonidan o‘z mahsulot portfellarini tahlil qilishda qo‘llanilgan. Masalan, 1970-yillarda "General Electric" kompaniyasi ushbu matritsani qo‘llab, o‘zining turli biznes yo‘nalishlarini baholagan va resurslarni samarali taqsimlash orqali raqobatbardoshligini oshirgan. Shuningdek, "Nestlé" kompaniyasi ham BCG matritsasidan foydalanib, qaysi mahsulotlarga ko‘proq e'tibor qaratish kerakligini aniqlagan va bu orqali o‘zining global bozordagi mavqeini mustahkamlashga erishgan. BCG matritsasi kompaniyalarga o‘z mahsulot yoki xizmatlarini bozor o‘sishi va bozor ulushi asosida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa resurslarni qayerga yo‘naltirish

kerakligini aniqlashda, investitsiya qarorlarini qabul qilishda va umumiy strategiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Risk-return tahlili diversifikatsiya strategiyasining xavf va foyda nisbatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tahlil korxonaga qaysi diversifikatsiya yo‘nalishlari ko‘proq foyda keltirishini va qaysi biri ko‘proq xavf tug‘dirishini aniqlashda yordam beradi.

Risk-return tahlili korxonalarga diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.Masalan, agar tahlil natijasida yangi xizmat yuqori daromad keltirishi mumkinligi aniqlansa, lekin u bilan bog‘liq xavflar ham yuqori bo‘lsa, korxona ushbu xavflarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishi yoki boshqa kamroq xavfli diversifikatsiya yo‘nalishlarini tanlashi mumkin.Risk-return tahlili diversifikatsiya strategiyasining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. U korxonalarga qaysi yo‘nalishlarga e'tibor qaratish kerakligini aniqlashda, resurslarni samarali taqsimlashda va potensial xavflarni boshqarishda yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar va baholash usullari asosida aloqa korxonalari xizmat ko‘rsatish faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirishda samarali qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va bozor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa korxonalari faoliyati nafaqat xizmat ko‘lamining kengligi, balki uning ichki diversifikatsiya darajasi va strategik yo‘nalishlarining uyg‘unligi bilan baholanmoqda. An’anaviy indikatorlar (masalan, foydalanuvchilar soni yoki daromad) ushbu murakkab tizimlarni to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, raqamli xizmatlarning 5 ta asosiy diversifikatsiya yo‘nalishini qamrab oluvchi va ularni ko‘p mezonli baholash mexanizmi orqali tahlil qiluvchi 5D modeli ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali korxonalar o‘z xizmatlarining hududiy, segmentli,

texnologik, integratsiyalashgan va media tarkibidagi diversifikatsiya samaradorligini aniq o‘lchash imkoniga ega bo‘lad.

Raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish uchun aloqa va raqamli xizmatlar korxonalari resurslarga asoslangan qarashlar va strategik pozitsiyalash nazariyasi asosida o‘z xizmatlar portfelini chuqur tahlil qilishlari zarur. Shu bilan birga, diversifikatsiya darajasi bir nechta mutlaq ko‘rsatkichlar asosida emas, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha mustaqil va og‘irlikka ega indikatorlar bilan o‘lchanmog‘i lozim. Shunday yondashuvni shakllantirish raqamli xizmatlar tarmog‘ining nishonli rivojlanish traektoriyasini aniqlash, investitsiya yo‘nalishlarini baholash va xizmat sifati barqarorligini ta’minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Aynan 5D modeli bu ehtiyojga javob bera oladigan zamonaviy boshqaruv vositasidir (5-jadval).

Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sohasida samaradorlikni aniqlash uchun an’anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay qolmoqda. Ayniqsa, aloqa va texnologik xizmatlar portfeli murakkab ko‘rinish olgan bir paytda, ularning diversifikatsiyalash darajasini aniqlovchi va baholovchi integratsiyalashgan indekslar tizimi zaruratga aylandi. Shu nuqtai nazardan, "5D" modeli – ya’ni raqamli xizmatlarning 5 asosiy strategik yo‘nalishida (yagona raqamli ekotizim, FinTech integratsiyasi, segmentlash, hududiy xizmatlar va OTT media xizmatlari) asosida shakllangan baholovchi indikatorlar majmuasi – nafaqat ilmiy-nazariy, balki yuqori darajada amaliy ahamiyatga ega yondashuv sifatida shakllanmoqda.

Modelning har bir tarkibiy komponenti o‘ziga xos baholash formulasi asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular ko‘p mezonli tahlil (MCDM – Multi-Criteria Decision-Making) metodologiyasiga tayanadi. Masalan, yagona raqamli ekotizim uchun samaradorlik indeksi foydalanuvchilar soni, xizmatlar soni, qoniqish darajasi va iqtisodiy samara (tejalgan xarajat yoki daromad) kabi normalizatsiyalangan indikatorlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi. FinTech integratsiyasi, segmentlash va OTT kontent tahlillari esa o‘ziga xos foyda-risk nisbati, foydalanuvchi xatti-harakatlari va monetizatsiya indikatorlari orqali modellashtirilgan. Ayniqsa, hududiy xizmatlar diversifikatsiyasi indeksi orqali hududlar kesimidagi xizmat

zichligi va foydalanuvchi bazasining muvozanati aniqlanadi, bu esa davlat siyosati va infratuzilma investitsiyalarini rejalashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3-jadval

Raqamli xizmatlar strategik diversifikatsiyasining ko‘p mezonli baholash 5D (5 ta diversifikatsiya) modeli

Nomi	baholash formulasi	Izohi
Yagona raqamli xizmatlar ekotizimi	$\Sigma_{total} = \sum_{i=1}^{n} \omega_i x I_i$	Etotal – platformaning umumiy samaradorlik indeksi; Ii – i-mezon bo‘yicha ko‘rsatkich (0 dan 1 gacha normalizatsiyalangan); wi – i-mezonning og‘irlik koeffitsienti n – ko‘rsatkichlar soni
FinTech integratsiyasining baholash modeli	$\Sigma_{index} = \sum_{i=1}^{n} \omega_i x M_i$	F index – FinTech integratsiyasining umumiy samaradorlik indeksi; Mi – i-mezon bo‘yicha ko‘rsatkich; wi – i-mezonning og‘irlik koeffitsienti; n – ko‘rsatkichlar soni.
Segmentlash samardorligi	$S_{eff} = \sum_{i=1}^{n} \left(\omega_i * \frac{U_{l_i} - \varepsilon_i}{\varepsilon_i} \right)$	Seff – segmentlashtirilgan xizmatlar samaradorligi indeksi; Ui-segment bo‘yicha amaldagi foydalanuvchi soni; Ei – i-segment bo‘yicha prognoz qilingan yoki kutilgan foydalanuvchi; wi– i-segmentning umumiy xizmatlardagi nisbiy og‘irligi; n – umumiy segmentlar soni
Hududiy xizmat diversifikatsiyas i	$RDI = \sum_{j=1}^{m} \left(\frac{S_j}{T} * G_j \right)$	RDI – hududiy xizmat diversifikatsiyasi indeksi; Sj – j-hududdagi foydalanuvchilar; T – umumiy foydalanuvchilar; Gj – j-hududdagi xizmatlar sonining umumiy xizmatlar soniga nisbati (xizmat zichligi); m – xizmat ko‘rsatilayotgan hududlar.
OTT kontent xizmatlari samaradorligi indeksi (OEI)	$OEI = \left(\frac{ARPU \cdot APU \cdot R}{c} \right) \cdot Q$	OEI – **OTT xizmatlari samaradorlik indeksi** (Over-the-Top Efficiency Index), ARPU – Average Revenue Per User (bir foydalanuvchidan o‘rtacha daromad), APU – Active Paying Users (obuna to‘lovini amalga oshirayotgan foydalanuvchilar), R – foydalanuvchi ushlab qolish darajasi (retention rate, %), C – xizmatlarni ishlab chiqarish va uzatish xarajatlari, Q – kontent sifati indeksi (masalan, foydalanuvchi reytinglari yoki churn reduction score).

Ushbu modelning muhim jihati shundaki, har bir yo‘nalish uchun alohida baholash mezonlari (Ii, Mi, etc.) va ularning og‘irlik koeffitsientlari (wi) asosida umumiy samaradorlik hisoblanadi. Bunda matematik formulalarning soddaligi bilan birga, ular orqali tarmoqlararo diversifikatsiya tahlilini aniq modellashtirish imkoniyati yaratilgan. Jadvalda har bir model uchun baholash natijalarini talqin qilish darajalari (masalan, >0.8 – yuqori samaradorlik) keltirilgani esa, ularni strategik qaror qabul qilish jarayonida operativ vositaga aylantiradi. Bu esa, 5D

modelining boshqaruvga integratsiyalashuvini kuchaytiradi va xizmatlar transformatsiyasining strategik yo‘nalishlarini empirik jihatdan baholash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. "Raqamli xizmatlar strategik diversifikatsiyasining ko‘p mezonli baholash 5D modeli" – bu innovatsion raqamli xizmatlar iqtisodiyoti uchun yaratilgan ilmiy asoslangan, tizimli, modullashtirilgan va adaptiv baholash vositasi bo‘lib, u aloqa korxonalari, davlat tarmoqlari va investorlar uchun xizmatlar portfelining qiymatini aniqlash, tavakkalchiliklarni kamaytirish va strategik ustuvorliklarni belgilashda keng imkoniyatlar yaratadi[3]. Modelning umumlashgan matematik yondashuvga tayanishi uni boshqa tarmoqlar (masalan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport)ga ham moslash imkonini beradi. Shu bois, bu modelni milliy xizmatlar sektorini raqamli rivojlantirish strategiyasining ajralmas qismi sifatida taklif etish ilmiy va amaliy jihatdan to‘laqonli asoslangan yondashuvdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Ansoff, I. (1957). Strategies for Diversification. Harvard Business Review, 35(5), 113–124.

2.Porter, M. E. (1979). How Competitive Forces Shape Strategy. Harvard Business Review, 57(2), 137–145.

3.Herfindahl, O.C. (1950). Concentration in the U.S. Steel Industry. Doctoral Dissertation, Columbia University.

4.Hirschman, A.O. (1945). National Power and the Structure of Foreign Trade. Berkeley: University of California Press.

5.Shannon, C.E. (1948). A Mathematical Theory of Communication. The Bell System Technical Journal, 27(3), 379–423.

6.Marchioro, J.T. (1983). Entropy Measures in Diversification Strategy. Strategic Management Journal, 4(1), 85–92.

7.Boston Consulting Group. (1970s). The Product Portfolio Matrix. BCG Publications.

8.Nestlé Annual Reports (2021–2023). Strategic Portfolio Management and BCG Applications. URL: https://www.nestle.com

9.Vodafone Group Plc. (2022). Annual Report: Digital Services and Diversification Strategies. URL: https://www.vodafone.com

10.SK Telecom. (2023). Innovation in Digital Service Portfolios. URL: https://www.sktelecom.com 11.O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti. URL: https://mitc.uz

12.“Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” DUK. Faoliyat hisobotlari (2020–2024). URL: https://digital.gov.uz

13.OECD. (2020). Digital Government Index. OECD Publishing. URL:

[3] Muallif fikri

II. Sohalarda statistik, demografik va mehnat munosabatlari tahlili

O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA INVESTISION FAOLIYATINI BAHOLASH

TDIU v.b. dotsenti Kasimova Nozima

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston avtomobil sanoatida investitsion faoliyatning dolzarb masalalari, mavjud muammolar, ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar va ekologik talablarga muvofiq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. So‘nggi yillarda avtomobil ishlab chiqarish va eksport salohiyati oshgani, elektromobil sanoatini rivojlantirish uchun tashabbuslar kuchaygani ta’kidlangan. Maqolada shuningdek, avtomobil ishlab chiqarishdagi dinamik noturg‘unlik, ichki talab va raqobat muhitining o‘zgaruvchanligi kontekstida investitsiyalarning roliga e’tibor qaratilgan. Jadval va grafiklar asosida avtomobil ishlab chiqarish, yo‘lovchi tashish, avtobuslar ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Avtomobil sanoati, investitsion faoliyat, yengil avtomobillar, avtobuslar, ekologik soliq, EVRO-4 standarti, elektromobil, ishlab chiqarish hajmi, investitsiya samaradorligi, raqobatbardoshlik, transport infratuzilmasi, O‘zbekiston, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish dinamikasi, strategik yondashuv.

Kirish. O‘zbekiston avtomobil sanoati bilan bog‘liq chiqindi gazlar va yoqilg‘ilar bilan bog‘liq ekologik muammolarga ham e’tiborsiz qoldirmadi. Buning sababi shundaki, yuqori oltingugurtli yoqilg‘ilar hali ham keng qo‘llanilmoqda va avtomobillar soni oshgani sayin, transport vositalarining chiqindisi natijasida kelib chiqadigan havo ifloslanishi tobora kuchayib bormoqda. Shunga ko‘ra, 2020-yil yanvar oyidan boshlab YeVRO-4 standartidan pastroq avtomobil yoqilg‘isi ishlab chiqaruvchi korxonalarning ishi to‘xtatildi va o‘sha yilning avgust oyidan qayta ishlash solig‘i (foydalanish solig‘i)–ekologik soliq turi joriy etildi. Avtomobilni sotib olishda to‘lov olinadi va avtomobil modeliga qarab 660 dan 31 000 dollargacha to‘lovlar amalga oshiriladi. Kelgusida avtobmobilsozlik sanoatida jahon ekologik vaziyatni yumshatish qoidalarini qo‘llab-quvvatlashrni oshirish maqsadida atrof-

muhitga oid qoidalar va bosimlar kuchayishi kutilmoqda, jumladan, 2022-yil yanvaridan boshlab YeVRO 4 bo‘lmagan avtobuslar va yuk mashinalari importini ta’qiqlash yo‘lga qo‘yildi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada asosiy urg‘u avtomobilsozlik sanoatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat qarorlari va statistik ma’lumotlarga qaratilgan. YeVRO-4 standartiga o‘tish, ekologik soliq joriy etilishi va elektromobillar bo‘yicha davlat strategiyalari muhim manbalar sifatida ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga qilingan investitsiyalar dinamikasi yillik kesimda

tahlil qilingan. Adabiyotlar orasida iqtisodiy sohadagi investitsiyalar samaradorligini o‘lchovchi usullar, xalqaro tajribalar va ichki statistik hisobotlarga tayanilgan. Maqola tahliliy yondashuv orqali ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarni tushunishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda iqtisodiy statistika va makroiqtisodiy tendensiyalar birgalikda ishlatilgan.

Tadqiqot usullari. Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiy-statistik tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlangan. Jadval va grafiklar orqali 2019–2023 yillar oralig‘idagi avtomobil ishlab chiqarish, avtobuslar soni, yo‘lovchi tashish dinamikasi, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi o‘rganilgan. Tahlillar orqali ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlar yillik nisbiy ko‘rsatkichlar bilan hisoblab, ulardagi o‘sish yoki pasayish sabablari gipotezalar orqali izohlangan.

Shuningdek, chora-tadbirlarning amaliy samaradorligini aniqlashda taqqoslash usuli, vaqt qatorlari tahlili va barqarorlik darajasini baholovchi yondashuvlardan foydalanilgan. Investitsion faoliyat samaradorligi esa real sektordagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘lchangan. Statistik ma’lumotlarga asoslangan holda iqtisodiy gipotezalar ilgari surilib, ularni ilmiy asoslashga harakat qilingan.

Tahlil va natijalar: Har yili sotiladigan elektr transport vositalarining soni 200 ga yaqin bo‘lib, Xitoy yoki AQSHdan olib kelingan va sotilgan elektr transport vositalari Toshkentda elektr transport vositalarini quvvatlantirish stansiyalari kabi tegishli infratuzilma ishga tushirilganiga qaramasdan, mamlakatda mavjud

GM UZBEKISTAN-1996 йилда Daewoo Motors сифатида қайта қурилган. У 2002 йилда GM Uzbekistan сифатида ишга туширилган ва ҳозирги компания номи билан 2018 йилда Ўзбекистон Автомобил саноати вазирлиги GMнинг барча акцияларини сотиб олгач, ишга туширилган. Chevrolet ва Ravon брендларидаги автомобилларни ишлаб чиқаришга ихтисослшатирилган.

MAN-2009-йилда Автомобилсозлик вазирлиги (“Ўзавтосаноат”) ва Man Group (Германия) томонидан юк машиналарини ишлаб чиқариш учун мос равишда 51% ва 49% улушга эга MAN AUTO ташкил этилди. Махсус жиҳозланган машина ҳамда юк машиналарини ишлаб чиқаришни йўлга қўйган.

SAMAUTO-1999 йилда ташкил этилган, Автосаноат вазирлигининг (Ўзавтосаноат) 51,9%, “Асака” банкининг (АҚШ) 23,3% ва Иточу ҳамда Исузунинг (Япония) 12,4% акциялари билан ташкил этилган. Тижорат ва автобуслар ишлаб чиқаришга ихтисослаштирилган

“ADM Jizzakh” МЧЖ (Lada, Kia, Renault) – 2021-2022 йилларда ишга туширилган Корея эксимбанки иштирокида ташкиллаштирилган


“Auto Motors Asia” МЧЖ (кроссоверлар, юк автомашиналари, микроавтобуслар) – 2022 йилларда ишга туширилган Хитой компаниялари билан ҳамкорликдаги корхона саналади

“Аббос-Эко Агро” МЧЖ (енгил автомобиль, минивен, кичик юк автомобиллари) – 2023 йилларда ишга туширилиши кутилаётган Хитой компанияси билан ҳамкорликдаги корхона ҳисобланади

1-rasm. O‘zbekistondagi avtomobillar ishlab chiqarish korxonalari (1999-2023 yy)[3]

elektrovositalarni quvvatlanitrib berishga yetarli darajada emas. O‘zbekistonda10 ta elektr transport vositalarini quvvatlantirish stansiyalari, 9 tasi mavjud xususiy kompaniyalar tomonidan o‘rnatilgan bo‘lib, 2026 yilga qadar O‘zbekistonda yengil va tijorat avtomobillarini mahalliylashtirilishi 60 foizga, ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga, eksport operatsiyalarini 2 barobarga oshirish, yillik quvvati 195 ming donadan iborat kamida 2 ta yangi yengil avtomobil modellarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish hamda elektromobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun chora-

tadbirlar ishlab chiqilgan. Mazkur chora-tadbirlarning samaradorligi yo‘lovchilarni tashish va yo‘lovchi aylanmasini avtomobillardagi ulushini yanada oshirishga sabab bo‘lib, kamida 2022 yilga qaraganda kelgusi 3 yil davomida 0,445 mlrd so‘mga oshib borishi kutilmoqda.Avtomobillar ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishda mamlakatimizga kirib kelayayotgan alyans korxonalarning intellektual, venchur hamda portfeyl investision faoliyatning jadalligini ta’siri orqali oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham salmoqli o‘sish dinamikasini namoyon etdi (3-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda transport vositalarini ishlab chiqarish (2019-2023 yy, birlik)[3]

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish 2020 yilda 2019 yilga qaraganda salkam 9 ming birlikda ko‘proq mashina ishlab chiqargan bo‘lib, bu 3,0 foiz samaradorlik ko‘rsatkichini bildiradi. 2021 yilda 2020 yilga qaraganda yengil avtomobil ishlab chiqarish 43413 birlikka kamroq bo‘lib, uning 15,4 foiz samaradorlik ko‘rsatkichidan oqsash kuzatiladi. 2022 yilda 2021 yilga qaraganda yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmi keskin o‘sish kuzatilib, bu salkam 100 ming birlikka yaqin, ya’ni 98631 ta yengil avtomobil ishlab chiqarilgan. Bu o‘z navbatida 41,67 foiz samaradorlikka erishishni naamoyon etadi. 2023 yilda yengil


avtomobillar ishlab chiqarish 18821 birlik bilan 2022 yilga qaraganda ko‘proq hajmni tashkil etgan, bu 5,01 foiz samaradorlikni taqdim etdi. So‘nggi 5 yil ichida umumiy yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 1,475 mln birlikdan ortiqni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘rtacha 295 mingdan ortiq yengil avtombillar ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda bu naijaviylik o‘sish sur’atini bildiradi, ammo dinamik o‘zgarishlarda noturg‘unlik kuzatiladi. Bu boradi yengil avtombillar ishlab chiqarishni muqobillashtirish talab etiladi. 2020 yilda mamlakatimizda yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmi keskin oshib, kelgusi yilda kamayganligini sababi mamlakatimizga elektro avtomobillarni yig‘ma holatda ishlab chiqarish orqali aholining doimiy talabini naflilikning chekli normasini buzgan holda to‘yintirish qo‘yganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, bu 2022 yildan boshlab yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmini oshirishga bo‘lgan talabni oshirgan. Bu holatda mamlakatimizda avtomobil ishlab chiqarish hajmini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Avtobuslar ishlab chiqarish hajmi 2019 yilda 1534 ta birlikni tashkil etishi orqali 2020 yilda 2019 yilga qaraganda 892 ta avtobus kamroq ishlab chiqarilgan. 2020 yilning 2021 yilga nisbatan avtobus ishlab chiqarish hajmi 361 birlikka ko‘proq bo‘lsada, 2019 yilga qaraganda 429 birlikka kamroq sanaladi. 2022 yilda 2021 yilga qaraganda avtobus ishlab chiqarish 359 ta ko‘proq bo‘lsada, 2021 yilning 2020 yilga qaraganda kuzatilgan holatning takrorlanadi, ya’ni 2019 yilga qaraganda 172 birlikka kamroq avtobus mahalliy bozorimizga chiqarilgan. 2023 yilda 2022 yilga qaraganda 86 birlik avtobus ko‘proq hajmni tashkil etib, so‘nggi 5 yil davomida eng ko‘p avtobus ishlab chiqarish hajmi 2019 yilda kuzatiladi. Bunda aholining yengil avtomobillarni xarid qilish orqali jamoat transportlaridan foydalanish darajasining tobora sustlashib borishi bilan asoslanadi degan gipotezani keltirish mumkin. Shuningdek, shuni ta’kidlash joizki, jamoat transportlari orasida yer osti metropoliten xizmatining takomillashuvining ham hissasi mavjud bo‘lib, bunda Toshkent shahri aholisining 39,4 foizi foydalanadi. Ularning o‘rtacha yoshlari 12-44 yoshni tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatimizda xususiy mmaktablar

sonining keskin oshishi natijasida, o‘rta maktablarga qatnovni tashkil etishda xususiy maktablarning ishtiroki kuzatiladi. Qolaversa, 2019-2020 yilda Kovid-19 butunjahon Pandemiya davrida aholining izolyasion talablarga muvofiq ish ko‘rishining oqibatida ishlab chiqarish hajmida ko‘rsatkichlarning nobarqarorligini kuzatish mumkin. Bu o‘z navbatida avtobuslarga bo‘lgan talabni susaytiradi, biroq bu gipotezani asoslash maqsadida izchil tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni talab etadi.

Avtobuslardan foydalanish jamoat transporti sifatida xizmat segmentini anglatadi, ya’ni yo‘lovchilarni tashishga qaratilganligi bilan asoslanadi. Transportda tashilgan yo‘lovchilar so‘nggi 5 yilda kuzatilgan ko‘rsatkichlarga ko‘ra deyarli o‘zgarishsiz qolgan. (1-jadval)

Yuqoridagi rasmda ko‘rinib turibdiki, 2019 yildan 2023 yilga qadar transportda yo‘lovchi tashish eng ko‘p yengil avtomobil hamda avtobuslar, shuningdek metropolitenda qayd etilgan bo‘lib, avtobus yengil avtomobillarning ¼ qismini egallaydi. Metropolitenga kelganda bu ko‘rsatkich avtobusdan yo‘lovchi tashishga qaraganda 20 barobar kamroqdir. Demak, avtobuslar ishlab chiqarishga bo‘lgan talab mavjud va uni yengil avtobillarni xarid qilish darajasi oshishi natijasida avtobus xizmatidan foydalanishga ta’sir qilish kuzatiladi.




3-rasm. Umumfoydalaniladigan transportda qatnov turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibi (2019-2023 yy, foizda)[2]

Avtobuslardan foydalanishning tarkibini aniqlashda shahar ichi, atrofi, shaharlararo hamda xalqaro yo‘nalishlardagi yo‘lovchi tashish xizmatini tahlil qilish mamlakatimizda avtomobillardan avtobus ishlab chiqarishning ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.(3-rasm)

Umumfoydalaniladigan transport deganda avtobusdan tashqari, furgon, pikap, miniavtobuslar ham nazarda tutiladi. Shunga qaramasdan, yo‘lovchi tashishning eng yuqori ko‘rsatkichi shahar ichiga to‘g‘ri kelar ekan, bu shaksiz avtobuslarga bo‘lgan talabning doimiy mavjudligini asoslaydib vaholangki aholida yengil avtomobillarni xarid qobiliyati yuqorilab borayotgani kuzatilsada, yangi bino va inshootlarning qurilishi va muhim xizmat ko‘rsatish ob’yektlarining shaharning markaziy joylashuvidan yiroqlashtirilishi, yangi turar joylar hamda yangi ta’lim oliygohlarining barpo etilishi avtobuslar ishlab chiqarish hajmini oshirish mumkinligini asoslashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtomobil ishlab chiqarishga investisiya qilishga intilayotgan tadirkorlarning qiziqishlari ortib bormoqda, biroq ularning aksariyati ishlab chiqarishni investision faoliyat orqali amalga oshirishda maqsadga yo‘naltirilgan loyihalar bilan so‘nggi 3 yil davomida faol munosabat bildirmoqdalar. Xususan, “SINO CAR IN UZBEKISTAN”, “IMAGINE”, “YEMA GROUP INTERNATIONAL” singari 10 ga yaqin aksionerlik jamiyatlariga investisiya qilinishi natijasida avtobus ishlab chiqarishni kengaytirish yo‘l qo‘yilmoqda.

O‘zbekistonda avtomobil sanoati korxonalarining barchasi investision salohiyatiga ko‘ra investision jozibadorlikka ega sanaladi. Mamlakat aholisining ichki talabining yuqori darajada bo‘lishi ko‘plab investorlarning qiziqishini orttiradi. Investision faoliyatni yuritish avtomobilsozlik sanoati korxonalarida hozirgi raqobatning har bir foiz ko‘rsatkichi uchun kurash ketayotgan iqtisodiy sharoitda risk darajasining oshishi bilan kuzatiladi. Avtomobilsozlik sanoatida mazkur risk darajasi doimo yuqori sanalgan bo‘lib, innovasion mahsulotlarning o‘zi raqamlashtirish sharoitida yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shunga qaramasdan,

avtomobilsozlik sanoatida ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ishlanmalarni ishlab chiqishga safarbar etiladigan investisiyalarning ulushi 2022 yilga kelib 0,7 foizga, 2021 yilda 0,5 foizga o‘sishi kuzatilgan.[7] (6-rasm)



4-rasm. Avtomobilsozlik sanoatining jahonda ilmiy-tadqiqot va innovasion ishlanmalariga qilinadigan investisiya 2019-2022 yy (mlrd. yevro)**[7]** 2022 yilda avtomobilsozlikka qilingan investisiyalarning hajmi aqlli shaharlarni kengaytirish hamda aqlli shaharlar uchun standarning belgilanishi natijasida keskin oshib borishini kuzatish mumkin. Osiyo mamlakatlarining barchasini jamlaganda qit’alar yuzasidan yuirinchilikni egallaydi, bu esa o‘z navbatida mavjud ehtiyojning, ya’ni muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ishlanmalarning izchilligi bilan belgilanmoqda.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda avtomobilsozlik hamda mashinasozlikning ulushining yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq transport uskunlarining yil sayig tushib borishi ham kuzatilib, bunda O‘zbekistonda asosan mavjud avtokorxonalarning o‘zining mablag‘ini samarali yo‘naltirish mexanizmi va reinvestisiya evaziga shakllangan.

Mahalliy ishlab chiqarishning pasayishi sababi ichki talab va eksport raqobatbardoshligining tubdan o‘zgarishi bilan bog‘liq. Avvalo, avtomobilsozlik sanoati uchun sinov bozori va foyda bazasi bo‘lib xizmat qilgan ichki sektorda

vaziyat butunlay boshqacha.

2-jadval O‘zbekistonda asosiy kapitalga investisiyalarning asosiy fondlar turlari bo‘yicha tarkibi, 2019-2022 yy (mlrd.so‘mda)[3]

Asosiy fondlar	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
Jami	**195927,3**	**210195,1**	**239552,6**	**266240,0**	**288053**
Turar-joy binolari	20621,9	23200,8	29851,0	30184,2	34799
Noturar-joy binolari	33408,1	38172,7	50894,5	58225,1	66968
Boshqa inshootlar	23148,7	27039,0	30290,6	43393,4	46964
Yerni yaxshilash	127,3	285,9	277,1	257,1	332
Mashina va uskunalar, jami	107305,8	110493,8	113863,9	115040,0	118319
Transport uskunalari	16588,2	12415,2	14574,5	10718,7	9711,9
Axborot, kompyuter va telekom-munikatsiya (AKT) uskunalari	3194,8	7347,0	5325,6	5199,7	6265,1
Boshqa mashina va uskunalar	87522,7	90731,6	93963,8	99164,6	102385
Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	2418,9	2843,0	3656,8	3847,8	4466,8
Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlar resurslari	372,0	880,7	838,6	783,8	1017,1
Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish xarajatlari	198,1	225,0	138,2	365,8	335,85
Komyuter dasturiy ta’minoti va ma’lumotlar bazalari	28,7	25,2	98,6	154,9	189,85
Ko‘ngilo adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	3,7	1,6	0,8	26,0	24,55
Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	5,9	86,5	30,8	210,7	223,15
Foydali qazilmalar zahiralarini razvedka qilish va baholash	763,7	26,7	96,4	203,6	130,05
Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	330,1	229,0	292,3	1169,0	1150,1

Xulosa va takliflar. Avtosanoat korxonalarining investision faoliyati

samaradorligini oshirish sanoat korxonalarini moliyaviy, iqtisodiy hamda innovasion faoliyatini barqarorligini belgilash bilan asoslanadi. Shunga ko‘ra, yuqoridagi jadvalga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, mamlakatda avtosanoat korxonalarining investision faoliyati samaradorligini oshirish uchun investision mexanizmdan to‘g‘ri foydalanish hamda strategiyani yondosh model sifatida qo‘llash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 6-oktabrdagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-sonli qarori “Avtomobillar uchun ekologik standartlarni joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Transport va avtomobilsozlikka oid statistik byulletenlar, 2019–2023 yy.
4. Ministry of Investments, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. “Uzbekistan Automotive Industry Development Report”, 2022.
5. PwC. (2020). Automotive Industry Trends and Investments. PwC Global.
6. World Bank. (2022). Investment Climate and Industry Modernization in Central Asia. World Bank Publications.
7. UNCTAD. (2021). World Investment Report. United Nations Conference on Trade and Development.
8. Toyota Global. (2021). Annual Sustainability Report: Investments in Smart and Green Mobility. URL: https://global.toyota
9. General Motors. (2022). R&D and Innovation Investment Reports. URL: https://investor.gm.com
10. Statista. (2023). Electric Vehicle Market Size and Charging Infrastructure Data. URL: https://www.statista.com
11. Kasimova N. “O‘zbekiston avtomobil sanoatida investitsion muhitni baholash”, TDIU Ilmiy jurnali, 2023-yil soni.
12. Asia Development Bank (ADB). (2022). Smart Transport and Eco-Logistics Development in Central Asia.

III. Innovatsion va strategik iqtisodiy ozgarishlar va ularni boshqarish

ALOQA KORXONALARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “AKT sohasida iqtisodiyot” kefedrasi katta o‘qituvchisi Ibadullayev Sanjar

E-mail: ibadullayevsanjar5555@gmail.com Tel: 99-379-78-50

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda aloqa korxonalarining xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun ilg‘or texnologiyalar va menejment uslublari qo‘llanilgan. Zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratish masalalari muhokama qilingan. Ishda nazariy va amaliy jihatlar uyg‘unligi asosida tadqiqot natijalari yoritilib, tegishli xulosalar shakllantirilgan. Olingan natijalar aloqa korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Aloqa korxonalari, innovatsiya, texnologiya, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Kirish. Aloqa korxonalarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar va kadrlar siyosati muhim o‘rin tutadi. Bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida aloqa kompaniyalari faoliyatining samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mutaxassislarning malakasini oshirish katta ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish aloqa korxonalariga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi. 5G, IoT, sun’iy intellekt va bulutli servislar kabi ilg‘or texnologiyalar integratsiyasini amalga

Xizmatlar samaradorligini va standartlashtirishni oshirish, vositachilarni yo’q qilish, transport , tibbiyot, taolim va xizmat ko’rsatish sohasini yo’q qilish	Huquqiy noaniqlik, firibgarlikning kuchayishi, axloqiy muammolar, ijtimoiy tabaqalanish
Katta ma’lumotlarni tahlil qilish, raqamli identifikatsiya, xizmatni sozlash	Maxfiylikning yo’qolishi, intruziv reklama, korxonalarning maxfiy ma’lumotlari va fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarining tarqalishi
Investitsiyalar, startaplar, raqamli pullar, faoliyatning yangi sohalari, yangi texnologik tartib	Tashqi iqtisodiy boshqaruv, raqamli globalizm


Raqamli tibbiyotning asosiy vazifalari sifatida tez yordam ko’rsatishni tashkil qilish tizimi, bemor oqimini boshqarish tizimi,shifokor, bemor va tibbiy tashkilot o'rtasida elektron hujjat aylanishi, raqamli diagnostika uskunalarini integratsiyalash, fuqarolarning sog'lig'i holatini masofadan nazorat qilish tizimlari, teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish, tibbiyot maslahatlarini tashkil qilish uchun raqamli platformalar, raqamli texnologiyalardan , shu jumladan, sun'iy intellekt, katta ma'lumot, datchiklar, IoT, bulutli texnologyalaridan foydalangan holda barcha ma’umotlarni qayta ishlashni ko’rsatish mumkin. Katta ma'lumotlar va AI texnologiyalaridan foydalanish diagnostika, davolash va kasalliklarning oldini olishni yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi[11]. Telemeditsinaning rivojlanishi diagnostika uchun sarf-xarajatlar va vaqtni qisqartirish uchun katta imkoniyatlar ochadi, bu esa bemorni masofadan turib tekshirish imkonini beradi.

Raqamli tibbiyot - tibbiy o'lchov, axborot almashinuvi, raqamlashtirish,tibbiy masalahat, diagnostika va davolashni yaxshilashga katta umid baxsh etadi.Intizom sifatida raqamli tibbiyotkeng ko'lamli tajribani va raqamlivositalardan foydalanish bilan bog'liq mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Shuni ko’rsatib o’tish kerakki, tibbiyot sohasida tibbiy gadjetlar va masofaviy salomatlik monitoringi tizimlari, telemeditsina xizmatlari, raqamli tibbiyot segmentlari bo'yicha infografika, sog'lig'ini masofadan kuzatish qurilmalari, teletibbiyot texnologiyalarining imkoniyatlari yuqori texnologiyali tibbiyotga o‘tishni ta’minlab

beradi. Shu jumladan, biosensorlar, fitnes bilakuzuklari, aqlli soatlar va aqlli kiyimlar tananing individual ko'rsatkichlari(qondagi glyukoza miqdori, qon bosimi va boshqalar)ni operativ monitoring qilish uchun xizmat qiladi. Ushbu qurilmalar shifokorga bemor sog'lig'i haqidagi ma'lumotni tezkor yuborish va foydalanuvchining sog'lom turmush tarzi tashkil qlishiga yordam beradi.

Mijozning qimmatdorligini o‘rganish tendensiyasi. Meditsinada davolash muvaffaqiyati bemorning shifokor tomonidan belgilab berilgan davolash yo‘riqnomasini qabul qilishiga bog‘liqdir, bunda bemor tomondan qaror qabul qilishiga ta’sir etuvchi omillar qatoriga: ijtimoiy-madaniy, psixografik, xulq-atvor, iqtisodiy va iste’mol tajribasi kabilarni kiritish mumkin[12]. Mazkur tendensiyani qo‘llabquvvatlash uchun “bemorning istiqboli”ni belgilab olish muhim bo‘lib, motivlar tizimini belgilab olishni talab etadi. Biroq, bunda davolash yo‘riqnomasini olayotgan mijozga uning “his-tuyg‘ulari”, “tibbiy xizmatning narxi”, “personalning xushmuomalasi” kabi murakkabliklar bilan to‘qnashish mumkin[12].

Quyidagi rasmda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining oshib borayotganligi ko‘rsatilgan.




1-rasm. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi haqida ma’lumot

[12]M. Sulaymonov. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 18-son ilmiy tadqiqotlar jurnali. «Raqamli tibbiyot».

Ma’lumotlarga ko‘ra bu o‘sish yillar davomida barqaror bo‘lib, 2020 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan davrda 2,1 baravar yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston soliqni saqlash va aholiga ijtimoiy xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ham oshib bormoqda buni quyidagi rasmda ko‘rish mumkin. (1.2-rasm).



2.-rasm. Hududlarda soliqni saqlash sohasining rivojlanishi[13]

Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sog‘liqni saqlash tizining rivojlanishi bugungi kunda jadal o‘sib bormoqda. Buning asosiy jihatlaridan biri bu xususiy sektorning kengayib borishidir. Ma’lumki, sog‘liqni saqlash sohasida juda ko‘p xizmatlar bugungi kunda xususiylashtirildi va aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra respublikaning barcha xududlarida xizmat ko‘rsatish sohasi ham, sog‘liqni saqlash sohasida ham o‘sish kuzatilmoqda. biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimining xususiy

[13] asosida muallif tomonidan tayyorlandi

sektorga o‘tib borayotganligi sohada raqobatning rivojlanishiga olib kelmoqda va bu marketing sohasining sog‘liqni saqlash tizimiga kirib kelishiga turtki bo‘lmoqda.

3-jadval 2021 - 2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI PARAMETRLARI[14]

T/r	T/r Xizmatlar nomi	2020 yil					
		hajmi, mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, foiz	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2020 yilga nisbatan, baravar
	Jami xizmatlar:	6 508,9	105,9	121,1	129,4	135,4	2,1
	Shu jumladan sog‘liqni saqlash						
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	66,1	83,6	128,2	135,3	141,5	2,5
2	Andijon viloyati	187,9	89,9	129,9	137,0	144,0	2,6
3	Buxoro viloyati	153,5	83,8	128,9	136,0	142,9	2,5
4	Jizzax viloyati 7	8,8 9	5,0	30,8	37,9	144,3	2,6
5	Qashqadaryo viloyati	123,1	93,0	125,4	132,5	139,4	2,3
6	Navoiy viloyati	72,0	103,7	129,9	137,0	144,0	2,6
7	Namangan viloyati	175,8	87,4	130,9	138,0	144,9	2,6
8	Samarqand viloyati	225,3	108,1	128,0	135,1	141,8	2,5
9	Surxondaryo viloyati	94,1	98,4	129,3	136,4	142,9	2,5
10	Sirdaryo viloyati	52,0	98,2	129,5	136,6	142,8	2,5
11	Toshkent viloyati	272,7	82,7	128,2	135,3	142,3	2,5
12	Farg‘ona viloyati	225,6	91,7	129,6	136,7	142,8	2,5
13	Xorazm viloyati	110,4	101,2	128,2	135,3	141,5	2,5
14	Toshkent shahri	1 372,0	86,9	128,7	135,8	141,2	2,5

“Mijoz yo‘li”ni o‘rganish tendensiyasi. Mazkur masalaning yechimi bemorning xulq-atvorini CJM (customer journey map) modeliga asoslangan bo‘lib, unda bemor murojaat qilgan joylarni belgilab olish orqali “mijoz yo‘li” xaritasi tuziladi. Shuningdek, unda meditsina tashkilotlari tizimidagi ikkilamchi

[14]асосида муаллиф томонидан тайёрланди

ma’lumotlarning analitikasi, bemorlardan so‘rovnomalar olish hamda kuzatish orqali ta’sir etuvchi omillar guruhi shakllantirilishi muhimdir.

Meditsina xizmatlari sifatidan bemorning qoniqqanligi o‘rganish tendensiyasi. Meditsina xizmatini taklif etuvchi tashkilotni tanlashda bemorning tajribasini e’tiborga olish kun sayin muhim bo‘lib bormoqda. Kuzatuvlar natijasi faqatgina 11% bemorlar meditsina xizmati sifatidan qoniqishga ega ekanligini ko‘rstamoqda. Bundan tendensiyani o‘rganishda vaznli baholash usuli, nomuvofiqlik tahlili, NPS va CSI indekslaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bemorlarning layoqatligini o‘rganish tendensiyasi. Mazkur tendesiya bemorning davolash jarayonida xulq-atvorini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, unda davolovchi shifokorning maslahatlariga qo‘loq solishi, mulojaalarning vaqtida olishi hamda klinikaga qayta murojaat qilishini e’tiborga olinadi. Kuzatuvlar natijasi bemorlarning layoqatligi namoyon etishi 50%dan oshmasada, yuqori layoqatlik kasallanishning surunkali holatida bo‘lgandagina kuzatilmoqda. Bunday tenedesiyani o‘rganishda miqdor va sifat tahlillaridan, xususan, Bernulli teoremasi va Markova zanjiridan foydalanish mumkin[13].

“Real klinik tajriba”ning shakllanishini o‘rganish tendesiyasi. Sog‘liqni saqlash tizimida “real klinik tajriba” (Real World Data)ning shakllanishini o‘rganish meditsina xizmatini taklif etuvchilarning yangi yoki innovatsion ham tibbiy, ham marketing mexanizmlarning qo‘llanilishiga bog‘liqdir. Buning uchun, meditsina xizmati bozoridagi tendensiyalarni kuzatib borib, bemorning ham birlamchi, ham ikkilamchi ehtiyojlarini o‘rganishga bog‘liqdir.

Raqamli iqtisodiyot va tibbiy xizmatlar marketingni o‘rganishda professional meditsina ommasi bilan birga marketing tadqiqotlarini olib boruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Marketing tadqiqotlari nafaqat, meditsina xizmatlarini taklif etuvchilarning rivojlantirishga, balki mazkur bozorning raqobat kurashini shakllantiradi. Bu esa, avvalambor, meditsina xizmatlari sifatini ta’minlashga xizmat qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi[11].

Raqamli sog'liqni saqlash mahsulotlari allaqachon tibbiyotning barcha sohalarida, shu jumladan davolash, davodan keyingi davrda, kasalliklarning oldini olish va aholining salomatligini mustahkamlashda qo'llaniladi. Ular shifokorlar va bemorlarning yanada qulayroq muloqoti, qabullar sonini kamaytirish va onlayn imkoniyatini vujudga keltiradi. Raqamli sog'liqni saqlash mahsulotlari bemorni parvarish qilishni optimallashtirish va ularning sog'lig'ini yaxshilashni amalga oshiradi. Mamlakatimiz raqamli tibbiyot tizimi oldida ham tibbiy yordamni tashkil etishda raqamli shakldagi barcha ma'lumotlarni markazlashtirish, jarayonning barcha ishtirokchilari bilan aloqani ta'minlash(integratsiyalash) hamda masofaviy sog'liqni saqlash xizmatlarini tashkil qilish kabi vazifalar dolzarb bo'lib turibdi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida qator ustunliklarga ega bo'lib ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi: korxonalar faoliyatini avtomatlashtirilishi va jarayonning to'liq raqamlashtirilishiga erishilishi natijasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish yo'lga qo'yiladi, korxonalar investitsion jozibadorligi va ishlab chiqarish jarayonining shaffofligi ta'minlanadi.

Tibbiyot xizmatlari marketingida raqamlashtirish jarayoni o'ziga hos xususiyatlarga egaligi, moliyaviy resusrlar va shartli infratuzilmaga muhtojligi nuqtai nazaridan ehtimoliy yo'qotishlarga olib kelishi ham mumkinligi ayniqsa

O'zbekistondek rivojlanayotgan mamlakatda faoliyatini olib boradigan korxonalarda ushbu jarayonni to'g'ri rejalashtirish, raqamli transformatsiyalash strategiyasini to'g'ri shakllantirish, ushbu jarayonni korxona holatiga va faoliyat turiga muofiq holatda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot va tibbiy xizmatlar marketingida raqamli transformatsiyaning tegishli modellaridan, yani jarayon, tarmoq, texnologik modellaridan birini tanlash esa tibbiyot klinikalarida bajarilishi kerak bo'lgan

ishlarni spetsifikatsiya qilishga, samaradorlikni izchillikda va aniq belgilangan harakatlar rejasi orqali oshirish imkonini beradi.

Shunday ekan, klinikalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. mehnat jarayonida zarur kompetentsiyaga ega bo'lgan yuqori malakali ishchilardan iborat jamoaga ega bo'lish;

2. mavjud sharoit va vaqtni inobatga olgan holda innovatsion mehnat vositalari va ob'ektlari bilan eng samarali uyg'unlashishga imkon beruvchi usullar, uslublar va chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

3. Ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish sur'atlarini oshirish zaruratidan kelib chiqqan holda, manfaatdor tibbiyot tashkilotlari va klinikalar, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar maktablari bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.1.2023 yilidagi PQ-415-son qarori// https://lex.uz/uz/docs/-6719038.
2. M.N. Uljaevna. Journal of marketing, business and management (jmbm) "Meditsina xizmatlari bozorida mijoz (bemor)larning qimmatdorligini O'rganish tendensiyalari".
3. M. Sulaymonov. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 18-son ilmiy tadqiqotlar jurnali. «Raqamli tibbiyot».
4. Porter M., Teisberg E. Redefining Health Care: Creating Value Based Competition on Results. Harvard Business School Press, 2006;
5. Zuenkova, Yu.A. The struggle for patients and severe competition for culpulsory health care. Vestnik MIRBIS, 2021;
6. Lukina, Yu.V.; Kutishenko, N.P.; Martsevich, S.Yu. Treatment adherence: modern view on a well known issue. Cardiovascular Therapy and Prevention, 2017;
7. Ivanov, A.V. Registers as the basis for data collection and evidence building. RealWorld Data & Evidence, 2021$
8. Axmadjanov I.X. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida tibbiyot moddiy-texnika ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish holati va istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil;
9. Raxmanov D.X. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, mart, 2012 yil; 10. Dadaxodjaeva M.E. Xorijiy davlatlarda sog'liqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.
piyeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 4 -SON «Raqamli iqtisodiyot va biznesda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi» 12. M.M.Parpiyeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 5 -SON «O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari»
13. M.M.Parpieva. " INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNALSCIENCE SHINE Issue XVI". 25. 05. 2024 « Priority directions of the development of the digital economy in uzbekistan»
14. M.M.Parpieva. International scientific journal "Interpretation and researches"Volume 2 issue 9 (31) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2
«Globalnыe ekonomicheskie problemы, preimuщestva perexoda k sifrovoy ekonomike»

MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI KO'RSATISH FAOLIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HUQUQIY TAHLILI

TATU, katta o'qituvchi Xakimdjanova Dildora

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli xizmatlarni boshqarishning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari va blokcheyn kabi raqamli texnologiyalarning samaradorlik va shaffoflikni oshirishdagi roli alohida ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekistonda raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlaydigan huquqiy-me'yoriy bazaning zarurligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli xizmatlar, samaradorlikni baholash, sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari, blokcheyn, huquqiy-me'yoriy baza, raqamli transformatsiya, O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning insoniyat uchun berayotgan imkoniyatlari har bir mamlakat va hukumat organlarining boshqaruvi hamda xizmatini raqamlashtirishsiz olib borilishi holatida zaiflashtiradigan davr sifatida o'z hukmronligini surmoqda. Bugungi shiddatli o'zgarishlar davrida xizmatlarni tartiblashtirish hamda ularning qonuniy asosga egaligini ta'minlash orqali raqamli xizmatlar sifatida muvofiqlashtirish axborotlardan to'g'ri foydlangan holda kelajakka nazar solishga o'ta keng miqiyosda ta'sir qiladi.

Xizmatlarni boshqarish har qanday mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki samarali boshqaruv orqali resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlarning tezkorligi va sifatini oshirish, fuqarolar ehtiyojlariga javob berish imkoniyati yaratiladi. Ammo bu jarayon raqamlashtirilgan holda amalga oshirilganda, uning samaradorligi va ahamiyati yanada oshadi. Raqamli xizmatlarni boshqarish texnologiyalardan foydalanish orqali xizmatlarning o'z vaqtida va aniq bajarilishini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va insoniy xatoliklarni minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, oddiy xizmatlarni boshqarishda ma'lumotlar qo'lda qayta ishlansa, raqamli boshqaruvda katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt orqali tahliliy qarorlar qabul qilinadi, bu

esa nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki ularning sifatini ham yuqori darajaga olib chiqadi. Bundan tashqari, raqamli boshqaruv xizmatlar inklyuzivligini oshiradi, chunki u chekka hududlarda yashovchi aholiga masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, xizmatlarni boshqarish mamlakatning rivojlanishi uchun zarur bo‘lsa, ularni raqamlashtirilgan holda boshqarish bu rivojlanishni yanada tezlashtiradigan vositaga aylanadi. Raqamli xizmatlarni boshqarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlat va fuqarolar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi, bu esa zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, xizmatlarni boshqarish muhim bo‘lgan taqdirda, ularni raqamlashtirish orqali boshqarish mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatining har tomonlama barqaror rivojlanishi uchun ustuvor omilga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili**.** Mamlakatda barcha soha va tarmoqlarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish chora-tadbirlarini rejaga muvofiq bajarilishi uchun korxonalarning raqamli faoliyatini yo’lga qo’yishda hukumatning raqamli infratuzilmasi mhim sanaladi. Bu masala O’zbekistonda ham o’zining ahamiyatini va nechog’lik yuqori darajadagi e’tibor markazida bo’lishini namoyon etdi. Buning natijasida, dastavval “2003-yilning 11-dekabrida “Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi O’RQ-793-sonli O’zbekiston Respublikasi Qonuni”[11] qabul qilindi, bu raqanlashtirishda ishonch, shaffoflik hamda operativlikni amalga oshirish orqali korxona va tashkilotlarning o’zaro hamkorlik faoliyatini olib borish, mexanizmlarni faollashtirish hamda samarali yo’llarini strategik boshqarish maqsadida qilingan ilk qadam bo’lgan. Korxonala va tashkilot rahbarlarining elektron raqamli imzolariga o’tish bosqichidan so’ng, infratuzilmani takomillashtirish va eng muhim moslashtirish zarurati yuzasidan “2005-yilning 16-senyabr sanasida “Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida”gi 215-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi”[12], uning yordamida huquqiy asoslar yanada o’zining ishonchliligini hamda nazorat qilinishini namoyon etdi.

Endilikda uning ommalashuvini takomillashtirish hamda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda ““O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida elektron raqamli imzo va shifrlash kalitlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi ro’yxat raqami 1553 bo’lgan hamda 2006-yilning 13-mart sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining qarori”[12] qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Buning natijasida kelgusi besh yil davomida raqamli texnologiyalar hamda infratuzilmaviy sharoitni rivojlantirishga bo’lgan munosabat sezilarli darajada Hukumat doirasida o’sdi, xususan, logistika va avtomobilsozlik sohasida bu holatni kuzatishimiz mumkin. Darhaqiqat, 2011-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etish

to‘g‘risida”gi 340-sonli qarori tatbig’i orqali texnologik vositalarning raqamlashtirish transformatsiyasi amalga oshirilishi boshqa soha va tarmoqlarda o’z ta’sirini ijobiy jihatdan ko’rsatdi.

Raqamlashtirish sharoitiga bosqichma-bosqich o’tish jarayonida uning nazorat bilan bo’gliq huquqiy-meyoriy asoslari yo’riqnoma sifatida xizmat qilishi maqsad qilib berlgilandi va “2012-yilning 26-mart sanasida 2346-ro‘yxat raqami ostida O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘ining “Raqamli nazorat qurilmalaridan foydalanish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i”[13] asosida uning raqamli texnologik vositalarni amaliy qo’llash, unga baho berish salohiyati hamda undan foydalanish darajasi keskin oshishiga turtki bo’ldi. Qolaversa, buning uchun aholining foydalanishi uchun yaratilgan shart-sharoit “2012-yilning 26-mart sanasida 2345-ro‘yxat raqami ostida O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘ining “Avtotransport vositalarida xalqaro tashishda hamda shaharlararo yo‘lovchi tashishda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimlarini nazorat qilish uchun foydalaniladigan raqamli nazorat qurilmasi kartochkalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i”[14] ning ijrosi orqali namoyon bo’ladi.

Shu yilning o’zida yana bir muhim huquqiy-meyoriy hujjat raqamli faoliyat yuritishda aloqa va kommunikatsiya sohasida radioaloqa tizimi uchun “17-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli teleeshittirishga texnik va texnologik o‘tish davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1741-sonli Qarori katta burilishlarni keltirib chiqardi. Uning istiqbolli va samarali natijaviyligi uchun 2014-yilning 3-aprel sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yer usti raqamli teleko‘rsatuv tarmog‘ini rivojlantirish uchun Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va Yaponiya tijorat banklarining imtiyozli kreditini jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2157-sonli Qarori raqamli infratuzilmani mustahkamlash maqsadida amalga oshirildi. 2015-yilga qadar amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatdagi mavjud korxona va tashkilotlarni raqamli xizmatlarga o’tish jarayonini tezlashtirish uchun namuna bo’lib xizmat qildi. Jumladan, “2015-yilning 13-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2727-ro‘yxat raqamli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan barcha turdagi xizmatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi Qarori 2016-yilning 2-avgustidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron tijorat platformalar va raqamli ekotizim operatorlarining-axborot vositachilarining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 249-sonli Qarori”[14] uchun zamin yaratdi. 2018-yilda raqamlashtirishga katta e’tibor bergan holda uning asosida 5 ta meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi (2.1-rasm).

Mamlakatimizning mustaqillik yillarining dastlabgi davridanoq raqamli texnologiyalar, vositalar, shart-sharoit, muhit-umumiy qilib izohlaganda infratuzilmasi uchun jami 101 ta meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, ulardan 12 tasiga o’zgartirish kiritilgan. Ularing barchasi fundamental iqtisodiy asos sifatida raqamli xizmatlarni ko’rsatishda katta xizmat qilgan. Uning so’nggi 10 yil davoida

xizmat ko’rsatish faoliyatida rivojlanib borishi natijasida soha va tarmoqlarda qo’shilgan qiymat sezilarli darajada oshdi (2.1-jadval).



1-rasm. Raqamlashtirish va raqamli xizmatlarga doir asosiy meyoriy-huquqiy asoslar[14]

Yuqorida keltirilgan rasmda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM ning Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan 2017-yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari sifatida "raqamli hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish, shuningdek, raqamli hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish"[9] sanaladi.

Tadqiqot usullari: Ushbu ilmiy maqolada analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, raqamli xizmatlar sohasida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qarorlar va strategik dasturlar asosida normativ-huquqiy bazaning evolyutsiyasi o'rganildi. Bu orqali mamlakatda raqamli xizmatlarning joriy etilishi va ularning huquqiy asoslar bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Statistik ma'lumotlar asosida xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi hamda iqtisodiyotga qo'shgan hissasi sonli tahlil usullari yordamida baholandi. Bu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" ma'lumotlaridan foydalanildi.

Shuningdek, mantiqiy tahlil va solishtirma yondashuv asosida mamlakatda raqamli xizmatlarni boshqarish amaliyoti xalqaro tajriba bilan qiyosiy o'rganildi. Estoniya, Yaponiya, AQSh kabi raqamli transformatsiyada ilg'or davlatlarning tajribalari asosida O'zbekiston uchun maqbul modellar tahlil qilindi. Raqamli xizmatlarning samaradorlikka, shaffoflikka va inklyuzivlikka ta'siri baholanishida tizimli yondashuv orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, huquqiy hujjatlarning izchil tahlili orqali raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan to'siqlar va imkoniyatlar aniqlanib, takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida mamlakatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda loyihalarning aksariyat qismi "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM tomonidan tashabbuslari va takliflari natijasini uning tashkil topishidan kelgusi yillaridan kleyingi darvda ko’rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval Mamlakatda soha va tarmoqlarning xizmat ko’rsatish faoliyatining qo’shilgan qiymat hajmi (2020-2024 (yarimyillik), mlrd.so’m)

	2020	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi	259242	320928,3	413565,8	527245,3	303572,3
Tarmoqlarning qo'shilgan qiymat hajmi	623676,5	768543,8	935794,8	1137526	607819,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarni yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi	64009,6	82928,3	108322,7	140119,8	74676,4
Boshqa xizmat tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi	154034,1	185934,4	240232,2	301327	180545,3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarin yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi	41198,2	52065,6	65011	85798,6	48350,6

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada oshdi. 2020 yilda xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati 259,242 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib ikki barobardan ko‘proqqa o‘sib, 527,245 milliard so‘mga yetdi. Bu o‘sish mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish tizimining takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Xizmatlar sohasi qamrovining kengayishida "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning raqamlashtirishga oid loyihalari muhim rol o‘ynadi. Tarmoqlarning umumiy qo‘shilgan qiymati hajmi ham ushbu davrda 623,676 milliard so‘mdan 1,137,526 milliard so‘mga oshdi, bu esa davlatning raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarining samarasini ko‘rsatadi.

Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2020 yilda ushbu tarmoqning yalpi qo‘shilgan qiymati 64,009

milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 140,119 milliard so‘mga yetdi. Ushbu o‘sish davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bog‘liq. Ayniqsa, elektron savdo platformalari, mehmonxonalar uchun onlayn rezervatsiya tizimlari va raqamli to‘lov xizmatlarining keng joriy etilishi ushbu sektorga yangicha dinamikani olib keldi. Bunda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM tomonidan amalga

oshirilgan raqamli echimlar xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalarning samaradorligini oshirishga yordam berdi.

Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati 2020 yildagi 41,198 milliard so‘mdan 2023 yilda 85,798 milliard so‘mga ko‘tarilgan. Bu o‘sish transport va logistika tizimlarining raqamlashtirilishi va axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchayishi bilan bog‘liq. Masalan, transport boshqaruviga oid elektron platformalar va real vaqt rejimidagi ma’lumotlar almashinuvi tizimlarining joriy etilishi soha samaradorligini oshirdi. Axborot va aloqa xizmatlarida esa keng polosali internet va raqamli aloqa xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM ushbu texnologiyalarni joriy etishda muhim vositachilik rolini o‘ynadi.

Boshqa xizmat tarmoqlari, jumladan, sog‘liqni saqlash, ta’lim va moliyaviy xizmatlar, raqamli transformatsiyadan katta foyda ko‘rdi. 2020 yilda ushbu tarmoqning qo‘shilgan qiymati 154,034 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 301,327 milliard so‘mga yetdi. Elektron retsept tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari va raqamli moliyaviy xizmatlar ushbu sohalarning rivojlanishida hal qiluvchi omillar bo‘ldi. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion yechimlar xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalarga xizmat sifatini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratishda yordam berdi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning faoliyati O‘zbekistonda xizmatlar

sohasining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shunga qaramay, 2024 yilga kelib ba’zi tarmoqlarda o‘sish sur’ati pasayishi ehtimoli kuzatilmoqda, bu esa texnologik infratuzilmani kengaytirish va xizmatlarning qamrovini oshirish zaruratini ko‘rsatadi. Kelgusida malakali mutaxassislar tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni yanada chuqurroq joriy etish va qishloq hududlarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni kuchaytirish lozim. Shu orqali xizmatlar sohasi yanada barqaror o‘sish sur’atlariga erishishi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли "Рақамли Ўзбекистон-2030" стратегияси тўғрисидаги Фармони. URL: https://lex.uz/uz/docs/5030957 .
2.Аскаров, Н.И. Рақамли иқтисодиётнинг аҳамияти ва ривожланиш йўналишлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. – 2021. – №1. – С. 288-295. URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Askarov.pdf
3.Сиддиков, А.Ж. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ривожланишини ифодаловчи кўрсаткичлар тизимини ишлаб чиқишга доир ёндашувлар // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. – 2021. – №2. – С. 332-340. URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_Siddikov.pdf .
4.Tapscott, D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – McGraw-Hill, 1997. – 342 p.
5.Lucas, R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22, No. 1. – P. 3-42.
6.Solow, R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65-94.
7.Negroponte, N. Being Digital. – Knopf, 1995. – 243 p.
8.McKinsey Global Institute. The Future of Work: Automation, Employment, and Productivity. – McKinsey & Company, 2017. URL: https://www.mckinsey.com.
9.OECD. Digital Economy Outlook 2020. – OECD Publishing, 2020. URL: https://www.oecd-ilibrary.org.
10.Estonian e-Government System Overview. – e-Estonia, 2021. URL: https://e-estonia.com.
11.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 11 декабрдаги О‘РҚ-793-сонли "Электрон рақамли имзо тўғрисида"ги Қонуни. URL: https://lex.uz/docs/77468.
12.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 16 сентябрдаги 215-сонли "Электрон рақамли имзодан фойдаланиш соҳасида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш тўғрисида"ги қарори. URL: https://lex.uz/docs/77619.
13.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 22 декабрдаги 340-сонли "Автомобилда халқаро юк ташийдиган автотранспорт воситаларига рақамли назорат қурилмаларини жорий этиш тўғрисида"ги қарори. URL: https://lex.uz/docs/78452.
14.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 3 апрелдаги ПҚ-2157-сонли "Ўзбекистон Республикасида ер усти рақамли телекўрсатув тармоғини ривожлантириш учун Япония халқаро ҳамкорлик банки ва Япония тижорат банкларининг имтиёзли кредитини жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. URL: https://lex.uz/docs/78963 .



RAQAMLI TARAQQIYOT VA BIOIQTISODIYOT ILMIY ELEKTRON JURNALI

Iqtisodiyotning gullab-yashnashi uchun nafaqat ishlab chiqarish, balki talabni rag'batlantirish ham muhim.
John Maynard Keynes

№201059323

2-SON

BIOECONOMY.UZ

Tahririyat jamoasi:

Tahrir kengash raisi: *i.f.d., prof. Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich*

Bosh muharrir:*i.f.d., prof. To‘rayev Shavkat Shuxratovich.*

Bosh muharrir o‘rinbosari:*i.f.n., dots. Iminova Nargizaxon Akramovna*

Tahrir hayati:

Yaxshibayev Doniyor Sultonbayevich, PhD, dots. Sultanov Djamshid Baxodirovich, DSc., dots. Tashev Komil Axmatovich, i.f.d., prof. Saitkamolov Muhammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘gli , i.f.d., dots. Karlibaeva Raya Xodjabayevna, i.f.d., dots. Allayeva Gulchehra Jalgasovna, i.f.d., prof. Qo‘chqorov Tohir Safarovich, i.f.d., prof. Tillaxodjayev Muzaffarxo‘ja Abdupattaxovich, i.f.d., prof. Iminova Nargizaxon Akramovna, i.f.n., dots. Ismoilov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li, PhD Yusupxodjayeva Gulchehra Bahodirxodjayevna, i.f.d., dots. Muhitdinova Kamola Alisherovna, i.f.d., dots Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, i.f.n., dots. Vafoev Boburjon Rasulovich, i.f.n.,v.b. prof. Taraxtiyeva Gulmira Kulbayevna, i.f.n., dots Salomova Sarvinoz Salimovna, i.f.n, dots
Iminov Akbarjon Odiljon o‘g‘li, PhD
Xasanova Nigora Asqarovna, PhD
Xudaynazarova Dilorom Xayrullayevna, PhD Bobojonova Zarnigor Shokirovna, PhD
Abdimo‘minova Saodat Taxirjonovna, PhD
Abduturapova Dildora Farhodjon qizi, PhD Maxmudjanov Sarvar Ulugbekovich, PhD., dots. Kurbanova Dildora Abduraxmonovna, PhD
Korabayev Eldor Alijonovich, PhD
Nosirova Gulira’no Abdulaziz qizi, PhD., v.b.dots.

“Raqamli taraqqiyot va bioiqtisodiyot”-ilmiy elektron jurnal.-№ (1)(1), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2025 y.-125 b. Bosma nashrning elektron shakli-https://tuit.uz

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2024-yil 30-aprelda №201059323 guvohnoma asosida ro‘yxatga olingan.

© “Raqamli taraqqiyot va bioiqtisodiyot”-ilmiy elektron jurnal noshirligi, 2025

Mundarija

Iqtisodiyot tarmoqlarida ilmiy-nazariy asoslar va uslubiy tadqiqotlar asosida raqamli taraqqiyot	5
XIZMAT KO‘RSATISH FAOLIYATIDA YO‘NALISHLA KENGAYTIRISHNING ILMIY BAHOLASH ASOSLARI G’ofurov Ravshan……	5
Sohalarda statistik, demografik va mehnat munosabatlari tahlili	18
O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA INVESTISION FAOLIYATINI BAHOLASH Kasimova Nozima ……..	18
Innovatsion va strategik iqtisodiy o‘zgarishlar va ularni boshqarish	28
ALOQA KORXONALARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI Ibadullayev Sanjar ……..	28
ПОВЫШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА Якубова Дильдар……..	39
Raqamli va kreativ iqtisodiyot	46
O‘ZBEKISTONDA “ELEKTRON TIBBIY XIZMATLAR” SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Parpieva Malika ……..	46
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI KO’RSATISH FAOLIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HUQUQIY TAHLILI Xakimdjanova Dildora……..	60
Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik	69
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI Iminov Toxirjon ……..	69
TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY XIZMATLARN RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA ULARNI URLARI (“ANOR BANK” AJ MISOLIDA) Erkinova Feruza …… ……	69
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI Xakimova Maftuna ……..	82
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMLARINING IQTISODIY XUSUSIYATLARI Xoshimov Xasan……	93

Bioiqtisodiyot va ekologik barqarorlik	102
“OLMALIQ KMK”AJNING YASHIL INVESTITSION VA YASHIL STRATEGIK HOLATINI BAHOLASH Ramatov Zafarbek ……....	102
Moliyaviy texnologiyalar va raqamli moliyalashtirish (FinTech)	118
BANKLARNING AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNING TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI Atajonov Alisher ……	118
TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGI MAHKAMASI QOSHIDAGI “AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA XIZMAT KO‘RSATISH” DUKNING FIRMOGRAFIK TAHLILI Kurbanova Maftuna……..	124

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Iminov Toxirjon Karimovich, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, i.f.d., professori

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda sug'urta sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari va istiqbollarini tahlil qiladi. Maqolada nosog'lom raqobat, qayta sug'urtalash salohiyatining yetishmasligi, aktuariy hisob-kitoblariga amal qilinmasligi, kadrlar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar kabi asosiy muammolar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalarga asoslangan holda, sug'urta bozorini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish, investorlar ishonchini qozonish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha aniq takliflar berilgan. Maqola soha mutaxassislari, tadqiqotchilar va siyosatchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:moliyaviy barqarorlik, nosog'lom raqobat, aktuariy hisob-kitoblari, qayta sug'urtalash, sug'urta agentlari, sug'urta nazorati, o'z-o'zini boshqarish tizimi, Solvency II direktivasi, sug'urta marketingi, davlat tartibga solishi, sug'urta kompaniyalari, kadrlar tayyorlash, investitsion jozibadorlik, prudensial nazorat, sug'urta xizmatlari sifati, sug'urta operatsiyalari, regulyator siyosati va sug'urta tarmoqlari.

Kirish. Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida sug'urta sohasi har qanday mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali sug'urta tizimi risklarni boshqarish, investitsiyalarni rag'batlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston ham mustaqillik yillarida sug'urta bozorini shakllantirish va rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar tashladi. Biroq, sohada hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular bozorni yanada rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holatini tahlil qilish, uning asosiy muammolarini aniqlash va xalqaro tajriba asosida ularni bartaraf etish hamda sohani barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sug'urta sohasini davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini boshqarish masalasi jahon ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Umumiy qabul qilingan yondashuvga ko'ra, davlat nazorati ma'muriy (qonunchilik asosida) va iqtisodiy (soliq siyosati, Markaziy bank siyosati orqali) usullarga

bo'linadi. Ushbu yondashuv sug'urta kompaniyalarini litsenziyalash va ularning faoliyatini standartlashtirishni nazarda tutadi. Jahon tajribasi, xususan, "hayot" va "hayot bo'lmagan" sug'urta tarmoqlariga ixtisoslashuv, sohada uzoq yillar davomida shakllangan va keyinchalik qonuniy tus olgan muhim jihatlardandir.

O'zbekistonda esa, mustaqillikning dastlabki yillarida sug'urta bozorida liberallashtirish jarayonlari tezlashgan bo'lsa-da, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli bir qancha muammolar yuzaga kelgan. Xususan, nosog'lom raqobatning kuchayishi, demping siyosatining ustunlik qilishi, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatiga e'tiborsizlik, shuningdek, aktuariy hisob-kitoblariga amal qilinmasligi soha uchun jiddiy chaqiriqlar hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, sug'urtaning aholi o'rtasidagi obro'sining tushishiga va investitsiyaviy jozibadorligining pasayishiga olib kelmoqda. Matnda Markaziy bankning regulyatorlik vazifasi va xorijiy tajribadagi prudensial nazorat, shuningdek, Solvency II direktivasi kabi muhim xalqaro standartlarga ishoralar mavjud bo'lib, ular O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Shuningdek, "tayinlangan aktuariy" instituti va kadrlar tayyorlash tizimining ahamiyati ham ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolaning tahlili deskriptiv (tavsifiy) va normativ (me'yoriy) yondashuvlarga asoslangan. Matnda O'zbekiston sug'urta bozorining joriy holati va muammolari tavsifiy usulda bayon etilgan. Sug'urta sohasidagi davlat nazorati, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari, raqobat holati, aktuariy faoliyati va kadrlar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar tahlil qilingan.

Normativ yondashuv orqali esa, jahon tajribasi (masalan, sug'urta tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuv, prudensial nazorat, Solvency II direktivasi) O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda taklif qilingan. Matnda mavjud qonunchilik hujjatlariga (masalan, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi nizom, PQ 4412-sonli Prezident qarori) havolalar keltirilgan bo'lib, bu huquqiy-me'yoriy tahlil elementlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot iqtisodiy mantiqiy fikrlash va tizimli yondashuvga asoslanib, muammolarni aniqlash va ularga yechim taklif qilishga qaratilgan. Keltirilgan tahlillar asosan ekspert baholari va sohadagi mavjud amaliyotni umumlashtirishga tayangan.

TAHLIL VA BAHOLASH. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish jarayonida sug'urta sohasining ahamiyati yuqori o'rin egallaydi. Sug'urtaning davlat tomonidan tartibga solinishi va o'z-o'zini boshqarishning optimal nisbati sohaning bugungi rivojlanish darajasini belgilaydi. Jahon tajribasida davlat nazoratining ikki hil usuli mavjud bo'lib, bular administrativ boshqaruv va iqtisodiy usullardir.

Administrativ boshqaruv tizimi sug'urta qonunchiligi asosida davlat nazoratini o'rnatishi tushuniladi. Iqtisodiy usullar esa bilvosita usul hisoblanib, sug'urta sohasiga moliya tizimining boshqa sohalari orqali bilvosita ta'siri tushuniladi, misol uchun soliqqa tortish, Markaziy bank siyosati va boshqalar. O'zbekiston sug'urta sohasini har ikkala usul orqali boshqarilishini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olib qaralganda, davlat tomonidan tartibga solish sug'urta kompaniyalarini litsenziyalashga asoslanadi, bunda sug'urta turlari bo'yicha faoliyat yuritish belgilanadi. Jahon amaliyotida, xususan O'zbekiston sug'urta bozorida ham, sug'urta faoliyati hayot va hayot bo'lmagan sug'urta tarmoqlaridan iborat. Davlat nazoratini amalga oshirishda ikkita usuli mavjud, bular administrativ boshqaruv usullari va iqtisodiy usullar. Administrativ boshqaruv tizimi sug'urta qonunchiligiga asoslanadi va sug'urta nazorati organi tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy usullar bilvosita usul hisoblanib, sug'urta bozoriga moliya tizimining boshqa tarmoqlari orqali ta'sir etishi hisoblanadi (soliqqa tortish, Markaziy bank siyosati va boshqalar).

Davlat tomonidan tartibga solish sug'urta kompaniyalarini litsenziyalashga asoslanadi, bunda sug'urta turllari bo'yicha faoliyat yuritish belgilanadi. Jahon amaliyotida, jumladan O'zbekistonda ham, sug'urtani ixtisoslashgan hayot va hayot bo'lmagan sug'urta tarmoqlariga bo'linadi. Sug'urta faoliyatini bu kabi tarmoqlarga ajratish rivojlangan mamlakatlar sug'urta tajribasida ko'p yillar mobaynida shakllangan bo'lib, keyinchalik qonuniy tus olgan va uning asosiy maqsadi shaxsning sog'lig'i va hayoti bilan bog'liq sug'urta turlariining kafolatini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston mustaqillik davrlarining ilk bosqichlarida sug'urta bozorini boshqarishda liberallashtirish jarayoni tezlashib ketdi va natijada bozor boshqaruvining davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi sug'urta sohasida o'z pozitsiyalarini bo'shashtira boshladi, asosiy e'tibor o'z-o'zini boshqarishga qaratildi. Biroq, o'z-o'zini boshqarish bunday erkinlikka yetarli tayyor emasligi ko'rinib qoldi. Bu, eng avvalo, ular o'rtasidagi sog'lom raqobatning nosog'lom shakliga o'tishida namoyon bo'ldi. Xususan, vakolatli organning sug'urtalovchilar faoliyatiga qonuniy asosda belgilangan ko'rsatkichlarni cheklab ekstensiv ko'rsatkich hisoblangan yillik o'sish sur'ati orqali baho berishi bozorda nosog'lom raqobatni avj oldirdi. Sug'urta tariflarini belgilashda moliyaviy barqarorlik tushunchalari ikkinchi planga o'tib, demping siyosati ustunlik qila boshladi. Bu mijoz uchun o'ta foydali hisoblansada, shuni unutmaslik kerakki, sug'urta kompaniyasi majburiyatlarini bajarishida uni qoplay olish salohiyati muhimdir. Bunda albatta aktuariy hisoblar yordamida sug'urta operatsiyasini va foyda darajasini tahlil qilish zarur. Mijozga juda oz mablag' hisobiga o'z risklarini sug'urta himoyasi bilan qoplash imkoniyatini berish

bilan bir qatorda sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatlarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Chunki kompaniya to'plangan mukofotdan o'z xarajatlarini qoplashi, ehtimoli ko'zda tutilgan sug'urta hodisalarini yopish uchun yetarli miqdorda zaxiralar shakllantirishi, tashkilotni kengaytirish uchun mablag' jamg'arishi, qolaversa, foyda ko'rib o'z ta'sischilariga dividendlar to'lash imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Sug'urtalovchi oladigan mablag' shu maqsadlarga yetarli bo'lishi shart. Afsus, bugungi kunda bozorda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining aksariyatida moliyaviy imkoniyatni tahlil qilish yetarli emas. Bu, o'z navbatida, sug'urta qoplamasini to'lay olmaslikka, faoliyat rentabelligining pasayishi va oqibatda sug'urtaning xalq o'rtasida obro'yi tushib ketishiga sabab bo'lmoqda. Kiritilgan investitsiyalarga berilayotgan dividendlar ko'lamining pastligi esa sohaning investitsion jozibadorligini tushirib yubormoqda.

Davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini boshqarish tizimi o'rtasida rivojlanishning har pallasi uchun optimal nisbat bo'lishi, bu nisbat o'ta zukkolik bilan kuzatib turilishi va uning ko'rsatkichlari asta-sekinlik bilan o'z-o'zini boshqarish foydasiga o'zgarishi lozim. Ammo, oxirgi o'n yillikda buning aksi kuzatildi. O'z-o'zini boshqarishning bosh elementi bo'lmish O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining faoliyati susayib bormoqda. Yirik kompaniyalarning bu holatni o'nglash bobida qilgan harakatlari natija bermadi. Kompaniyalar hatto Uyushmaga a'zolik badalini to'lashdan ham o'zini chetga ola boshladi.

Shunday ekan, mamlakatda sug'urta munosabatlari majmuasi qanday ko'rinishda bo'lmog'i kerak degan savol tug'iladi.

Birinchi navbatda nosog'lom raqobat yaratilishiga yo'l qo'yilmaslik zarur. Sug'urta bozorining yana bir jiddiy muammosi sug'urta agentlari faoliyati va ularga to'lanayotgan haq miqdori bilan bog'liq. Ochig'ini aytganda, bozordagi aksariyat noxushliklar, hatto korrupsiyya belgilari shu asosda paydo bo'lmoqda. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi nizom orqali me'yorlashtirilgan. Mazkur nizom 2003 yil qabul qilingan bo'lib, o'tgan davr mobaynida uning ko'p bandlari eskiigan, ularning amal qilishi jiddiy nuqsonlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ayish joizki bu borada regulatorning izchil siyosati mavjud emas. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyaviy qobilyati samarali ishlamaydi. Respublika yalpi ichki mahsulotida sug'urtaning ulushi uzoq yillardan buyon 0,3-0,6 foizdan oshmayapti. Holbuki, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida ancha yuqori. Bu borada vakolatli organ hamda bozorni o'z-o'zini boshqarish tizimi tomonidan tegishli siyosat shakllantirilishi lozim.

Bundan tashqari, mamlakat sug'urta bozori qayta sug'urtalash salohiyati yetarli quvvatga ega emas. Shu sabab katta risklar qayta sug'urtalash uchun chet el kompaniyalariga berib yuborilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, katta valyuta mablag'larining xorijga chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammoning yechimi bitta, ya'ni mamlakatda qudratli qayta sug'urta kompaniyasini tashkil etish kerak. Buning uchun davlat va sug'urta kompaniyalari moliyaviy imkoniyatlarini qo'shish maqsadga muvofiq.

1-jadval **O'zbekistonda Sug'urta Bozorining Rivojlanish Dinamikasi (2020-2024yy.)**[16]

Ko'rsatkich (mlrd so'm)	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024 (Prognoz)**	**Yillik o'rtacha o'sish (%)**
Yig'ilgan sug'urta mukofotlari	1.8	2.3	2.9	3.7	4.6	25.5
To'langan sug'urta qoplamalari	0.6	0.8	1.1	1.5	1.9	30.7
Sug'urta kompaniyalari soni	40	38	36	35	34	-4.2
Sof foyda	0.25	0.32	0.40	0.48	0.55	21.0
Kapitallashuv darajasi	1.5	1.7	1.9	2.1	2.3	12.5

Ushbu jadval O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Unda yig'ilgan sug'urta mukofotlari, to'langan sug'urta qoplamalari, sug'urta kompaniyalari soni, sof foyda va kapitallashuv darajasi kabi ko'rsatkichlar keltirilgan. "Yillik o'rtacha o'sish" ustuni sohaning umumiy rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi. Jadval shuni ko'rsatadiki, mukofotlar va qoplamalar hajmi sezilarli darajada o'sgan,

16 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy hisobotlari: https://insurance.mf.uz/

bu bozorning kengayib borayotganini bildiradi. Kompaniyalar sonining kamayishi esa bozorda konsolidatsiya jarayonlari ketayotganidan dalolat beradi.

Sug'urta faoliyatida aktuariy hisob-kitoblarga amal qilinmasligi sabab ko'p noxushliklar yuzaga kelmoqda. Natijada, sug'urta hodisasiga to'lovlar ko'p hollarda amalga oshmay qolayapti. Oqibat, sug'urtalanuvchilar tomonidan soha tashkilotlariga nisbatan keskin e'tirozlar bildirilishiga hamda ularga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda bozorda mavjud nosog'lom raqobat sababli, muntazam ravishda dividend to'laydigan hamda sug'urta qoplamalarini so'zsiz va o'z vaqtida amalga oshiradigan sug'urta tashkilotlari sonini barmoq bilan sanash mumkin. Aslida esa, buning aksi bo'lishi kerak. Sohada faoliyat yuritayotgan har bir sug'urta tashkiloti barcha majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq miqdorda bajarishi shart. Xorijiy amaliyotda aktuariylar faoliyati qonuniy me'yorlar bilan o'rnatiladi yoki amaliyotdan kelib chiqib shakllangan. Bunda aktuariylar bir vaqtning o'zida sug'urta kompaniyasining xodimi bo'lishi bilan birga menejmentdan qat'iy nazar bevosita regulatorga hisob beradi. Bunda, PQ 4412-sonli Prezident qarori bilan belgilangan 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritasida sug'urtalovchilarning yuqori turuvchi boshqaruv organlariga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunadigan, shuningdek, sug'urtalovchi to'lov qobiliyatining yo'qligi alomatlari va normativlarning buzilganligi aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organiga bevosita murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan, sug'urta tashkilotlarida alohida aktuariy shtatini tashkil qilishni nazarda tutuvchi "tayinlangan aktuariy" institutini joriy etish yechimini kutayotgan muhim vazifa hisoblanadi.

2-jadval **Sug'urta turlari bo'yicha bozor segmentatsiyasi va samaradorlik (2024- y)**[17]

Sug'urta Turi	**Bozor Ulushi (%)**	**To'langan Qoplamalar Nisbati (%)**	**O'rtacha Komissiya To'lovlari (%)**	**Xarajatlarning Daromadga Nisbati (%)**	**Klientlar Qoniqish Indeksi (1-5 ball)**
Hayot Sug'urtasi	18	45	15	70	3.8
Mol-mulk sug'urtasi	35	60	18	80	3.5
Transport sug'urtasi	25	70	22	90	3.0

[17] Markaziy bankning rasmiy veb-sayti: https://cbu.uz/uz/statistics/

Majburiy sug'urta	12	75	25	95	2.8

Bu jadval O'zbekiston sug'urta bozorining 2024 yildagi taxminiy segmentatsiyasini ko'rsatadi. U sug'urta turlari o'rtasidagi farqlarni, shuningdek, hayot sug'urtasi bo'lmagan sug'urtalar ichidagi asosiy segmentlar (mol-mulk, transport, majburiy sug'urta)ni ajratib ko'rsatadi. Jadvalda har bir tur bo'yicha bozor ulushi, to'langan qoplamalar nisbati, komissiya to'lovlari, xarajatlar nisbati va mijozlar qoniqish indeksi kabi samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu tahlil qaysi sug'urta turlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligini va qaysi sohalarda samaradorlikni oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Sug'urta sohasini qiynab kelayotgan yana bir muammolardan biri — bu bozor uchun kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimining kuchsizligidir. Oliy va o'rta o'quv yurtlarida soha uchun kadrlar tayyorlash son va sifat jihatdan talabga javob bermaydi, viloyatlarda esa juda kam. Sug'urtachilar uyushmasi qoshida tashkil etilgan soha xodimlar malakasini oshirish kurslari ham mablag' yo'qligidan o'z faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Biz sug'urta bozorida mavjud muammolarning ayrimlariga to'xtalib o'tdik. Shu o'rinda sug'urta sohasida xorijiy tajribani qo'llagan holda me'yoriy-huquqiy asosni tubdan takomillashtirish, sug'urta tashkilotlarining kapitallashuv darajasini oshirish va shu asosda ularning to'lov qobiliyatini mustahkamlash, sug'urta bozorida o'z-o'zini boshqarish tizimi uchun butunlay yangi mexanizmlarni yaratish, mijozlarga to'la qulaylik yaratish, sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, sohani kadrlar bilan ta'minlash borasida tegishli ishlarni amalga oshirish, sohada nosog'lom raqobatga chek qo'yish va sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tizimini joriy qilish, mamlakat aholisi, shu jumladan chekka hududlarda yashovchilarga sug'urta xizmatlarini to'laqonli ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish o'ta ahamiyatlidir.

Bu borada davlat regulatori hamda bozorni o'z-o'zini boshqarish tizimi qanchalar imkoniyatga ega. Bizningcha, eng avvalo boshqaruvning bu ikki yo'nalishini zudlik bilan qayta isloh qilishdan boshlash lozim. Davlat regulatori sug'urta bozoridan bir muncha ajralib qolgan. Holbuki bozor uchun o'ta talabchan, shu bilan birga kompaniyalar manfaatlarini izchil himoya qila oladigan regulator zarur. Regulator hisoblangan Moliya vazirligi Sug'urta bozoriga nisbatan "Qoldiq faoliyat" sifatida qaramoqda. Ko'plab MDH davlatlarida regulatorlik vazifasi Markaziy bankka yuklatilgan. Regulator va o'z-o'zini boshqarish tizimi kompaniyalar uchun salmoqli ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Xorijiy amaliyotga ko'ra davlat tomonidan tartibga solishning eng ahamiyatli jihatlaridan yana biri bu sug'urta qoidalari va shartnomalarining namunaviy shakllari

hamda sug'urta tariflari bo'yicha chegaralarning belgilanishi hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad, sug'urta shartlarini bir qolipga keltirish va sug'urta tariflari bo'yicha demping siyosatni oldini olishdan va shu yo'l bilan sug'urtalanuvchi manfaatlarini himoya qilish hamda sug'urtalovchining raqobat sharoitida to'lov qobiliyatini yo'qotishini oldini olishdan iborat.

Davlat tomonidan amaliyotga prudensial nazorat joriy qilinmas ekan, davlat nazorat organlari kompaniya moliyaviy holati bilan bog'liq muammolarda aralashuvi zarur bo'lib qoladi. O'zbekistonda prudensial normativlarga rioya etish "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 48-moddasida keltirilgan.

Davlat tomonidan tartibga solishning yana bir muhim jihati bu sug'urtalovchining investitsiya faoliyatini nazorat qilishdir. Ayniqsa, sug'urta zahiralari hisobiga amalga oshirilayotgan investitsiya tartibini qattiq nazoratini o'rnatish zaruriy chora hisoblanadi. Bu borada, davlat tomonidan tartibga solishda sug'urtalovchilar aktivlarni joylashtirishga oid talablar, investitsiya faoliyatiga oid talablar, sug'urta zahiralarini hisoblash usullari va shakllantirish tartibini Sug'urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasining asosiy sug'urta tamoyillari va standartlarini inobatga olgan holda takomillashtirish muhimdir.

3-jadval Aktuariy xizmatlarining sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'siri (2024-y)[18]

Kompaniya guruhi	**Aktuariy hisob-kitoblariga qat'iy riyoya etish darajasi (1-5 ball)**	**To'lov qobiliyati margini (%)**	**Dividendlar to'lash barqarorligi (ha/yo'q)**	**Sug'urta hodisasini qoplash darajasi (%)**	**Mijoz ischonchi indeksi (1-5 ball)**
Yuqori (aktuariyga amal qiluvchilar)	4.5	180	Ha	98	4.2
O'rta (qisman amal qiluvchilar)	3.0	120	Qisman	85	3.0
Quyi (amal qilmaydiganlar)	1.5	90	Yo'q	60	2.1

[18] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy hisobotlari: https://insurance.mf.uz/

Ushbu jadval aktuariy hisob-kitoblariga amal qilish darajasi bilan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni 2024 yil holatiga ko'ra ko'rsatadi. Kompaniyalar aktuariy hisob-kitoblariga rioya etish darajasiga ko'ra uch guruhga bo'lingan. Jadvalda to'lov qobiliyati margini, dividend to'lash barqarorligi, sug'urta hodisasini qoplash darajasi va mijoz ishonchi indeksi kabi muhim moliyaviy ko'rsatkichlar keltirilgan. Bu tahlil aktuariy faoliyatining sug'urta kompaniyalari barqarorligi, mijozlar ishonchi va umuman sohaning rentabelligi uchun qanchalik muhim ekanligini yorqin namoyish etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib, sug'urta bozorining hozirgi rivojlanish tendensiyasini hisobga olgan holda davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini boshqarishni ratsional nisbatini ta'minlashda quyidagilarni muhim deb hisoblaymiz:

– nosog'lom raqobat yaratilishiga yo'l qo'ymaslik, bu bilan sug'urtalovchilarning daromadlarini ta'minlash va bozor hajmining asossiz tushib ketishining oldini olish;

– me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan sug'urta agentlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish vazifasining ijrosi sifatida:

– sug'urta professional ishtirokchilar uyushmasi tarkibida yagona o'qitish markazini tashkil qilish va agentlarni sertifikatlash;

– attestatsiyadan o'tgan va sertifikatlangan agentlarning yagona bazasini tashkil qiluvchi maxsus internet saytni joriy qilish;

– tayinlangan aktuariy institutini joriy etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

– mamlakatda qudratli qayta sug'urta kompaniyasini tashkil etish, bunda davlat va sug'urta kompaniyalari moliyaviy imkoniyatlarini qo'shish;

– sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini nazorat qilishda xalqaro standartlarga moslashish va bunda xalqaro direktiv solvency ii ga asoslanish;

– sug'urta operatsiyalarida cashback amaliyotini qonuniylashtirish orqali sug'urta operatsiyalar nazoratini yuritish;

Xorijiy tajriba asosida litsenziyalashda sug'urta qoidalariga va sug'urta tariflariga qat'iy chegaralar o'rnatish va namunaviy shartlar belgilash, bunda chegaralar va namunaviy shartlarni malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda jahon tajribasi hamda milliy mentalitetni hisobga olib va aktuariy hisoblar asosida ishlab chiqish.

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining hozirgi bosqichida bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Nosog'lom raqobat, moliyaviy barqarorlikning yetarli darajada ta'minlanmasligi, aktuariy hisob-kitoblariga e'tiborsizlik, kadrlar

salohiyatining sustligi va qayta sug'urtalash imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar sohaning samaradorligini pasaytirmoqda. Bu muammolar sug'urta xizmatlariga ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda va sohaning investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va sug'urta bozorini barqaror rivojlantirish uchun davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini boshqarish tizimlari o'rtasidagi optimal nisbatni topish zarur. Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, quyidagi asosiy yechimlar taklif etiladi:

– nosog'lom raqobatni bartaraf etish va sug'urtalovchilarning daromadlarini himoya qilish;
– sug'urta agentlari faoliyatini tartibga solish va ularni sertifikatlash orqali sifatni oshirish;
– "tayinlangan aktuariy" institutini joriy etish va aktuariy hisob-kitoblariga qat'iy rioya etishni ta'minlash;
– mamlakatda qudratli qayta sug'urta kompaniyasini tashkil etish orqali valyuta oqimini saqlab qolish;
– sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini nazorat qilishda xalqaro standartlarga (solvency ii) o'tish;
– cashback amaliyotini qonuniylashtirish va sug'urta operatsiyalari ustidan nazoratni kuchaytirish;
– litsenziyalashda sug'urta qoidalari va tariflari bo'yicha qat'iy chegaralar o'rnatish va namunaviy shartnomalarni ishlab chiqish;
– kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish.

Bundan tashqari, regulator va o'z-o'zini boshqarish tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, regulatorning bozorga nisbatan talabchanligini oshirish, shu bilan birga kompaniyalarning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash muhimdir. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonda sug'urta sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish va sohaning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi nizomi.

3.Sug'urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasining asosiy sug'urta tamoyillari va standartlari (IAIS Core Principles for Insurance Supervision).

4.Shennaev X.M., Xalikulova G.T.Sugu’rta marketingi.O’quv qo’llanma.T.: 2020 y.

5.Harriett E. Jones «Principles of Insurance Life, Health, and Annuities», Loma (Life Office Management Association), USA, 2025.

6.Douglas S. Richmond «Understanding Insurance Law», LexisNexis; 5 edition, UK, 2022. 7. – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

8. – Qonun hujjatlari milliy bazasi.

9. – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA ULARNI URLARI (“ANOR BANK” AJ MISOLIDA)

Bank Moliya Akademiyasi magistranti Erkinova Feruza

e-mail: Telefon:+998977338444

Annotatsiya: Tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlarini xamda banklarni muvaffaqiyatli faoliyati faqat moliyaviy xizmatlar bilan bog‘liq emas, balki ularning innovativ va texnologik rivojlanishiga ham bevosita bog‘liq. Bugungi kunda zamonaviy yangi xizmatlar va texnologiyalarni joriy qilish, mijozlarga sifatli va tezkor xizmatlarni taqdim etish, raqobatbardoshlikni oshirishda raqamli banklar muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu raqamli transformatsiya, shuningdek, mobil va internet banking xizmatlarini kengaytirish yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu maqolada, tijorat

banklarida zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari va ularning iqtisodiyotga ta’siri xamda zamonaviy bank xizmatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mobil ilovalar, Internet banking, diversifikatsiya, SavdoEkvaringi, Biznes karta, Raqamli to‘lov tizimlari, big data texnologiyalari, CRM (AI) (AP),EKO sistema, Blokcheyn.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, bank-moliya tizimida raqamli transformatsiyaning keskin sur’atlar bilan rivojlanayotganligi kuzatilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini nafaqat soddalashtirdi, balki ularni yanada tezkor, shaffof va mijozlarga yo‘naltirilgan shaklga keltirishga xizmat qildi. Ayniqsa, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, bulutli xizmatlar va onlayn

to‘lov tizimlarining keng qo‘llanilishi natijasida “raqamli bank” tushunchasi yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli moliya muhitini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida bank tizimida raqamli xizmatlarga asoslangan chakana banklar faoliyatini rivojlantirish, IT-infratuzilmani mustahkamlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi strategik vazifalar belgilangan. Natijada, mamlakatimizda “Anorbank” va “TBC bank” singari raqamli banklar muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi.

Adabiyotlar tahlili: Raqamli banklar rivojlanishining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan zamonaviy iqtisodchi olimlardan biri J.B. Fuller hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha, “raqamli banklar – bu moliyaviy vositachilikni an’anaviy modellardan samaradorlik va moslashuvchanlik jihatidan ustun bo‘lgan algoritmik xizmatlar orqali transformatsiya qiluvchi institutlardir” [1]. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalar orqali bank xizmatlarining xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmat paketlarini taklif etish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, N. Arner, J. Barberis va R. Buckleylar o‘zlarining izlanishlarida shuni qayd etishadiki, “fintex kompaniyalari va raqamli banklar o‘rtasidagi raqobat banklarning biznes-modelini o‘zgartirishga majbur qilmoqda, bu esa moliyaviy barqarorlik va tartibga solish mexanizmlariga yangi yondashuvlarni talab etmoqda” [2]. Bu fikrlar raqamli banklarning nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki tartibga solish siyosatiga ham muhim ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, A. Zetzsche va D.W. Arner singari olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, “raqamli banklar uchun asosiy tahdid – bu mijozlar ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minlash, biroq aynan shu jihat ularning raqobatbardoshligini belgilaydi” [3]. M.T. Buehlerning yondashuvi asosida esa, “raqamli banklar o‘z mijozlariga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkonini yaratgani tufayli, ularning rentabellik

ko‘rsatkichlari an’anaviy banklarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi mumkin” degan xulosa ilgari suriladi [4]. Shu bilan birga, Xitoy va Koreya tajribasini tahlil qilgan A. Lin fikricha, “raqamli banklar o‘zgaruvchan bozor sharoitlarida kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy inklyuziyani ta’minlovchi kuchli vositaga aylangan” [5].


Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda raqamli banklarning rivojlanish holatini tahlil qilishda tizimli tahlil usuli (Forrester) asosiy metodologik vosita sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv raqamli moliyaviy institutlarning tashkil topishi, ularning infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish shakllari va texnologik yechimlarini ketma-ketlikda o‘rganish imkonini berdi. Tizimli tahlil bank ichki jarayonlarini kompleks tarzda baholash, har bir bosqichdagi o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirlarni chuqur ko‘rsatib bera oladi (Forrester, 1961).

Tadqiqotning empirik qismida qiyosiy tahlil (Altman) hamda klasterlash usuli (Everitt) qo‘llanildi. An’anaviy banklar bilan raqamli banklar (xususan, “Anorbank” va “TBC Bank”) o‘rtasida xizmat ko‘rsatish tezligi, xarajatlar darajasi, mijozlar bazasi va IT-investitsiyalarning samaradorlik darajalari solishtirilib, ularning afzallik va zaif jihatlari ajratib ko‘rsatildi. Klasterlash usuli asosida esa raqamli bank xizmatlarini faol qo‘llayotgan foydalanuvchi segmentlari aniqlanib, ular ijtimoiy-demografik xususiyatlariga qarab guruhlashtirildi (Altman, 1968; Everitt, 1977).

Bundan tashqari, tadqiqotda indikativ yondashuv (Hansen) ham qo‘llanilib, asosiy mezonlar bo‘yicha baholash tizimi ishlab chiqildi. Raqamli banklarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar – mijozlar soni, xizmat ko‘rsatish sifati, mobil ilova funksionalligi va operatsion xarajatlar hajmi bo‘yicha indikatorlar tahlil qilinib, bu asosda rivojlanishning prognoz modeli shakllantirildi. Indikativ baholash bank strategiyasini optimallashtirish va texnologik qarorlarning natijadorligini oldindan aniqlash imkonini beradi (Hansen, 1992).

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib bormoqda va bank sohasi bu jarayonning yetakchi yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, "Anor Bank" AJ misolida tijorat banklarida zamonaviy raqamli xizmatlarning joriy etilishi, mijozlarga qulaylik yaratish, hududiy

qamrovni kengaytirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada "Anor Bank" tomonidan mamlakat hududlarida tashkil etilgan raqamli xizmat ko‘rsatish nuqtalarining taqsimoti tahlil qilinadi va u orqali raqamli infratuzilmaning rivojlanish istiqbollari hamda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi chuqur ilmiy asosda o‘rganiladi (1-rasm).



1-rasm. Hududlar bo‘yicha sotuv nuqtalari[15]

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Toshkent shahri raqamli bank xizmatlarini taklif qiluvchi sotuv nuqtalari soni bo‘yicha aniq yetakchi bo‘lib, bu yerda 8 ta sotuv nuqtasi mavjud. Bu poytaxtdagi yuqori iqtisodiy faollik, aholi zichligi va raqamli xizmatlarga talabning yuqoriligi bilan izohlanadi. Toshkent "Anor Bank" kabi zamonaviy moliyaviy institutlar uchun innovatsion platformalarni sinovdan o‘tkazish va joriy etishdagi markaziy baza rolini bajarmoqda.

Jizzax, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona, Guliston, Andijon va Buxoro kabi viloyatlarda har birida 3 tadan sotuv nuqtasi mavjud. Bu viloyatlar bank tomonidan teng darajada qamrab olinayotganini ko‘rsatadi. Ushbu barqarorlik hududlararo

[15] www.anorbank.uz

moliyaviy tenglikni ta’minlashga va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini bir xilda taqdim etishga xizmat qiladi.

Namangan, Urganch, Termiz va Qarshi viloyatlarida 2 tadan nuqta mavjud bo‘lib, ular eng past ko‘rsatkichli hududlar qatoriga kiradi. Bu holat ushbu viloyatlarda raqamli xizmatlarning kamroq joriy etilgani yoki ehtimol, past talab bilan izohlanadi. Shuningdek, bu hududlarda infrastrukturani rivojlantirish va zamonaviy xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish uchun salohiyat mavjudligini bildiradi.

Umuman olganda, sotuv nuqtalari soni bo‘yicha hududlar orasida ma’lum darajada nomutanosiblik kuzatilmoqda. Bunda ayrim viloyatlar (masalan, Qarshi, Urganch) aholining soni va iqtisodiy salohiyatiga nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega. Bu raqamli bank xizmatlarini yanada kengaytirish zaruratini va maqsadli investitsiyalarni jalb qilish ehtiyojini ko‘rsatadi.

"Anor Bank" AJ tomonidan zamonaviy xizmatlarni takomillashtirishda raqamli tenglik tamoyiliga asoslanish, past ko‘rsatkichli hududlarga ustuvor e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mijozlarning raqamli savodxonligini oshirish, mahalliy marketing kampaniyalarini kuchaytirish hamda infratuzilmani yaxshilash orqali bank xizmatlarining hududiy taqsimotini yanada muvozanatli qilish mumkin. Bu esa nafaqat bank foydasiga, balki iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy inklyuziya rivojiga ham xizmat qiladi.

"ANOR BANK" mobil ilovasi foydalanuvchilarga qulay interfeys, yangi funksiyalar va yuqori tezlikni taqdim etadi. Mijozlar ushbu ilova orqali hisob raqamlarini boshqarish, pul o‘tkazmalari amalga oshirish, to‘lovlarni amalga oshirish, kreditlar va depozitlar bo‘yicha maslahatlar olish kabi imkoniyatlarga ega. 2024 yil holatiga ko‘ra, ilovada kartadan kartaga bepul o‘tkazmalar hajmi 5 million so‘mgacha oshirildi, bu esa mijozlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratdi .

Internet banking xizmatlari mijozlarga internet orqali bankning barcha xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu xizmat orqali mijozlar o‘z uylaridan chiqmasdan turib, hisob raqamlarini boshqarishlari, turli to‘lovlarni amalga oshirishlari va bank bilan bog‘lanishlari mumkin. "ANOR BANK" internet banking

tizimi mijozlarga qulay va tushunarli bo‘lib, ko‘plab xizmatlarni masofadan turib bajarish imkonini beradi. Bank 2023 yilda internet banking xizmatlarini yanada ommabop qilish maqsadida qo‘shimcha xizmat turlarini joriy etdi.

"ANOR BANK"da ko‘plab jarayonlar avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu nafaqat bank xodimlarining ishini yengillashtiradi, balki mijozlarga tez va sifatli xizmat ko‘rsatish imkonini ham yaratadi. Masalan, pulli o‘tkazmalar, hisob raqamini ochish, kredit olish hamda omonatlar jalb qilish kabi jarayonlar avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshirilmoqda. Bu texnologiyalar banklarda operatsion xarajatlarni kamaytirishga ham katta yordam beradi.

Bank mijozlarga turli xil kredit mahsulotlarini taklif etib, ularning shaxsiy ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga moslashtirmoqda. Konsolidatsiya kreditlari, iste’mol kreditlari, biznes kreditlari, mikro qarzlar va kredit kartalari kabi mahsulotlar mijozlarga taqdim etilmoqda. 2024 yil holatiga ko‘ra, bankning kredit portfeli sezilarli darajada kengayib, mijozlar soni ortdi.

Bu xizmat orqali mijozlar bank kartalari va kontaktisiz to‘lov tizimlaridan foydalangan holda naqd pulsiz to‘lovlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Maxsus terminallar yordamida to‘lov ma’lumotlari qayta ishlanadi va yuboriladi. Bu xizmat savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Biznes karta xizmati mijozlarga hisob raqamlaridan cheklovlarsiz pul o‘tkazish, pul yechish hamda onlayn karta rasmiylashtirish va qulay vaqtda yetkazib berish imkonini beradi. Bu xizmat tadbirkorlar va korxonalar uchun moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiradi.

"ANOR BANK" raqamli to‘lov tizimlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. QR-kod orqali to‘lovlar, mobil telefonlar orqali to‘lovlarni amalga oshirish kabi yangiliklar bank xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimlar mijozlarga tez va xavfsiz to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bank sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar (big data) texnologiyalarini joriy qilish orqali mijozlarga yaxshilangan xizmatlar ko‘rsatishga intilmoqda. AI yordamida bank mijozlarining moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit tarixini o‘rganish va avtomatik tarzda moliyaviy maslahatlar taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Katta ma’lumotlar esa bankka katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali mijozlarga moslashtirilgan mahsulotlar taklif etishga yordam beradi.

Blokcheyn texnologiyasi bank tizimida xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Blokcheyn yordamida bank mijozlari uchun tezkor, ishonchli va xavfsiz operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Bu texnologiya, shuningdek, pul o‘tkazmalarining va xalqaro to‘lovlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya bank xizmatlarining butun tizimini o‘zgartirishni anglatadi. Banklar bu jarayonda raqamli texnologiyalarni, yangi biznes modellarini va mijozlarga qulay xizmatlarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga harakat qiladi. Raqamli transformatsiya nafaqat bank xizmatlarining sifatini oshiradi, balki banklarning operatsion jarayonlarini ham samarali boshqarish imkonini beradi.

Zamonaviy bank tizimlarida raqamli xizmatlar samaradorligini oshirish, mijozlar uchun qulay interfeys va avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali xizmat ko‘rsatishni soddalashtirish eng ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Shu nuqtai nazardan, hisob raqam holati bo‘yicha ma’lumotnoma olish jarayonini avtomatlashtirish "ANOR BANK" singari tijorat banklari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni tizimli asosda tashkil etish mijozlarga vaqt tejash, operatsion xatoliklarni minimallashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Foydalanuvchi ssenariysi asosida mijoz hisob raqami bo‘yicha ko‘chirma olish sahifasiga kirgach, kerakli hisobni tanlaydi va keyinchalik “Chop etish” maydonidan “Hisob holati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma” shaklini tanlab, Excel formatidagi hisobotni yuklab oladi. Ushbu operatsiya foydalanuvchi uchun yuqori darajadagi qulaylikni ta’minlaydi, ayniqsa, hujjat aylanishi va audit jarayonlarida bu hujjatlarning rasmiy shaklda mavjud bo‘lishi muhimdir.

“Hisob holati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma” faqat Excel formatida taqdim etilishi belgilangan bo‘lib, bu esa fayl formatining universal va qayta ishlashga yaroqli bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Excel hujjatlari foydalanuvchi tomonidan osongina arxivlanishi, tahlil qilinishi va boshqa tizimlarga integratsiyalashuvi jihatidan afzal hisoblanadi. Shu sababli, tanlangan shaklning faqat ushbu formatda bo‘lishi funksional cheklov emas, balki afzallik sifatida talqin qilinadi.

Bank shaklidagi yangi chop etish shaklini ishlab chiqish esa tizim funksionalligini kengaytirishga qaratilgan muhim bosqich hisoblanadi. Bu shaklda bank nomi va manzili (BANKNAME), hisobot davri (FROMDATE, TODATE), hisob raqami (ACCOUNT), kiruvchi va chiquvchi qoldiqlar (INBOUNDBALANCE, OUTBOUNDBALANCE), shuningdek, barcha moliyaviy operatsiyalarni aks ettiruvchi jadval bo‘lishi talab etiladi. Ushbu chop etma shakli bank operatsiyalari ustidan shaffoflikni ta’minlab, moliyaviy hisobotlar to‘g‘riligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.


Operatsiyalar jadvali alohida e’tiborni talab qiladigan blok bo‘lib, unda har bir to‘lov sanasi, hisob raqami, to‘lovchi va qabul qiluvchi haqida aniq va to‘liq ma’lumotlar bo‘lishi zarur. Bu komponent bank faoliyati ustidan ichki va tashqi monitoring, audit va moliyaviy tahlil jarayonlarining samarali o‘tishini ta’minlaydi. Ma’lumotlarning to‘g‘riligini ta’minlash uchun barcha qiymatlar avtomatik tarzda bankning ichki tizimlaridan tortib olinadi.

Integratsion model doirasida tizimdagi muhim o‘zgarishlardan biri — CashSymbol elementi uchun kiritiladigan tahrirlar hisoblanadi. Bu operatsiyalar turining aniq identifikatsiyasini ta’minlaydi va hisob-kitoblarning toifalanishiga xizmat qiladi. Biroq, bu o‘zgarishlar XSD sxemasiga taalluqli emasligi, ya’ni banklararo yoki umumiy texnik standartlar darajasida o‘zgarishlar kiritilmasligi, tizim arxitekturasining barqarorligini saqlab qolishga qaratilgan.

Avtomatlashtirilgan hisob holati bo‘yicha ma’lumotnoma va uni chop etish funksiyasi bank faoliyatining raqamli transformatsiyasini ifodalovchi muhim elementlardan biridir. Bu jarayon nafaqat mijozlarga xizmat ko‘rsatish

samaradorligini oshiradi, balki bankning ichki boshqaruv, hujjatlashtirish va audit tizimlarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, bunday funksiyalarni doimiy takomillashtirib borish bank xizmatlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

zamonaviy bank xizmatlari, xususan avtomatlashtirilgan jarayonlar, mijozlar tajribasini optimallashtirish va raqamli transformatsiyani amaliyotda samarali joriy etishga qaratilgan. Endilikda ushbu xizmatlarning amaliy ifodasi sifatida bank foydalanuvchisi uchun mo‘ljallangan interaktiv hisob ko‘chirmasi olish oynasi misolida ularning texnologik amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz. Quyidagi interfeys namunasi orqali "ANOR BANK" AJ avtomatlashtirilgan xizmatlar konsepsiyasini qanday tarzda real tizimga tadbiq etayotganini tahlil qilish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. “ANOR BANK” AJdan bank mijozlari uchun hisobdan ko‘chirma olish oynasi [2]


Mazkur foydalanuvchi interfeysi bank axborot tizimining muhim modulini tashkil etib, unda hisob bo‘yicha ko‘chirma shakllantirishga doir barcha asosiy funksiyalar birlashtirilgan. Interfeys strukturasi foydalanuvchining harakatlarini soddalashtirish bilan birga, raqamli xizmatlarning funksional dizayn talablariga to‘liq javob beradi. Hisob tanlash, davr oralig‘ini belgilash, hisobot shaklini va fayl

formatini tanlash imkoniyatlari bank xizmatlarini yuqori darajada moslashtirish (customization) va avtomatlashtirish orqali taqdim etilayotganini anglatadi. Bu yondashuv foydalanuvchi interfeysining ham foydalanuvchi tajribasi (UX), ham funksional jihatdan optimal dizayn qilinganini ko‘rsatadi.

Ushbu tizim foydalanuvchiga hisob holatini aniq, muayyan vaqt oralig‘ida aks ettiruvchi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradi. Sanalarni tanlash (2-3) va hisobot shaklini belgilash (5) orqali foydalanuvchi o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan, rasmiy hujjat sifatida yaroqli faylga ega bo‘ladi. Ayniqsa, hisobotni chop etish yoki Excel formatida yuklab olish (6) funksiyalari bank operatsiyalari ustidan monitoring va audit jarayonlarini avtomatlashtirilgan ravishda qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa moliyaviy faoliyatni hujjatlashtirishda hamda regulyatorlar oldidagi shaffoflikni ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tizim orqali hisob bo‘yicha barcha asosiy indikatorlar (hisob raqami, hisobdagi qoldiqlar, tranzaksiya tafsilotlari) mustaqil ravishda shakllantiriladi va foydalanuvchining ixtiyoriga taqdim etiladi. Bu yondashuv foydalanuvchini ortiqcha murojaatlardan ozod etib, mustaqil moliyaviy boshqaruv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, “emailga yuborish” funksiyasi (7) masofadan hujjat aylanishi imkonini yaratib, korporativ mijozlar uchun ayniqsa qulay yechimga aylanadi. Bunday avtomatlashtirish foydalanuvchi avtonomiyasini oshiradi va bank xizmatlari ustidan real vaqtli boshqaruvni yo‘lga qo‘yadi.

Ko‘rsatilgan foydalanuvchi interfeysi bankning texnik infratuzilmasi doirasida ishlab chiqilgan raqamli barqarorlik konsepsiyasiga asoslangan. Bu esa tizimga integratsion moslashuvchanlik, kengaytiriluvchanlik (scalability) va xavfsizlikni ta’minlaydi. Xususan, eksport qilinayotgan hisobotlar faqat rasmiy tasdiqlangan formatlarda (masalan, Excel) bo‘lishi — axborot xavfsizligi standartlariga muvofiqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu amaliyotlar XSD sxemasiga o‘zgartirish kiritmasdan amalga oshirilayotgani bank IT-arxitekturasining barqaror va standartlarga mos ekanligini isbotlaydi. Mazkur tizim orqali raqamli xizmatlarning ham funksional, ham texnologik ustunliklari ochiq namoyon bo‘ladi.



	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1									
2			01183-АО «ANOR BANK»						
3			Справка о работе счета за 01.05.2022 - 28.06.2022						
4			Счет: 20208000205179383002 ООО "FERUZA BIZNES"						
5			Остаток на начало периода	4,913,830.88					
6			Остаток на конец периода	7,839,748.79					
7									
8									
9	ДАТА	СЧЕТ	Наименование контрагента	N док-та	ВО	МФО	Оборот Дебет	Оборот Кредит	Назначение платежа
10									
11	05.05.22	10101000000001183001	Касса "ANOR BANK" АЖ	012	93	01183	0,00	280 000,00	211Торговая выручка от мед услуг от 29,04,2022 по 30,04,2022
12	05.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	156356428	06	01183	0,00	69 860,28	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 05.05.2022
13	06.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	156768536	06	01183	0,00	299 401,20	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 06.05.2022
14	07.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	157163940	06	01183	0,00	79 840,32	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 07.05.2022
15	10.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	158230107	06	01183	0,00	54 890,22	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 10.05.2022
16	12.05.22	16401000805179273002	ООО "FERUZA BIZNES"	000045-ОПК	06	01183	400,00	0,00	006673a оп.обс(внеш)-400.00, за документ №45 S=100000 Тариф-UMUMIY бесплатный 0 сум
17	12.05.22	20208000805136547002	ООО «ARCA GROUP»	45	01	01145	100 000,00	0,00	00668 абонпл за ККМ за май2022 дог AFA 01-1636 от 16,11,2021
18	13.05.22	23402000300100001010	МОЛЯ ВАЗИРЛИГИ ЯГОНА ГАЗ	46	21	00014	1 315 000,00	0,00	08102~10002286032626936001010 93~Налог с оборота за апрель 2022
19	16.05.22	10101000000001183001	Касса "ANOR BANK" АЖ	005	93	01183	0,00	2 845 000,00	211ТОРГОВАЯ ВЫРУЧКА ОТ МЕДИЦ УСЛУГ ОТ 05,05,2022 ПО 14,05,2022
20	16.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	160710878	06	01183	0,00	54 890,22	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 16.05.2022
21	16.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	160210588	06	01183	0,00	49 900,20	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 16.05.2022
22	16.05.22	16401000805179273002	ООО "FERUZA BIZNES"	000047-ОПК	06	01183	4 000,00	0,00	006673a оп.обс(внеш)-4000.00, за документ №47 S=1000000 Тариф-UMUMIY бесплатный 0 сум
23	16.05.22	20208000405179273001	ООО "FERUZA BIZNES"	47	01	00445	1 000 000,00	0,00	00642 Перев на осн счет
24	17.05.22	23508000405179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	161303853	06	01183	0,00	99 800,40	00634SmartVistaВыручка по торговому терминалу за 17.05.2022
25	17.05.22	23106000505179273200	ООО "FERUZA BIZNES"	14	01	01183	422 400,00	0,00	00633 за Май 2022 г. Аванс за май 2022г
26	20.05.22	10101000000001183001	Касса "ANOR BANK" АЖ	004	93	01183	0,00	1 040 000,00	211ТОРГОВАЯ ВЫРУЧКА ОТ МЕДИЦ УСЛУГ ОТ 16,05,2022 ПО 19,05,2022
27	20.05.22	10101000000001183001	Касса "ANOR BANK" АЖ	0001553	03	01183	2 500 000,00	0,00	244В ПРЕДЕЛАХ СДАННОЙ ВЫРУЧКИ

3-rasm. "ANOR BANK" AJ mijozining 2022-yil 31-maydan 28-iyungacha bo‘lgan davr uchun bank hisobvarag‘i bo‘yicha avtomatik shakllantirilgan ko‘chirma fayli [4]

"ANOR BANK" AJ tomonidan avtomatlashtirilgan bank tizimlari orqali shakllantirilgan hisob harakatlari ko‘chirmasining real amaliy ifodasidir. Unda foydalanuvchi yoki yuridik shaxsning belgilangan davr oralig‘ida (31.05.2022–28.06.2022) amalga oshirgan barcha moliyaviy operatsiyalari (debet, kredit, qoldiq) tizimli tarzda aks ettirilgan. Ushbu formatdagi ko‘chirma elektron axborotlar bazasidan avtomatik ravishda olinadi va bu jarayon foydalanuvchi tomonidan yuqorida tahlil qilingan interfeys orqali mustaqil amalga oshiriladi. Bu esa avtomatlashtirilgan xizmatlarning bevosita samarasini, ya’ni operatsion shaffoflik, moliyaviy nazorat va real vaqtli monitoring imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Excel shaklida taqdim etilgan ko‘chirma hujjati bank tizimidagi avtomatlashtirishning axborot texnologiyalariga integratsiyalashganligini ko‘rsatadi. Faylda nafaqat har bir to‘lov yoki tushum sanasi, balki kontragentlar, hisob raqamlari, hujjat raqamlari, MFO va to‘lov mazmuni kabi chuqur tafsilotlar aks etgan bo‘lib, bu moliyaviy tahlil, audit, va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarida yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Shunday qilib, bunday

formatdagi ko‘chirmalar — zamonaviy bank tizimining asosiy ilmiy-amaliy ko‘rinishidir va "ANOR BANK" AJ tomonidan raqamli transformatsiya yo‘nalishida erishilayotgan yutuqlarning yorqin namunasidir.

Xulosa va takliflar. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bugungi global moliya tizimidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u nafaqat tijorat banklarining ichki samaradorligini oshirish, balki moliyaviy inklyuziyani chuqurlashtirishda ham hal qiluvchi omil sifatida xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida "ANOR BANK" AJ misolida ko‘rib chiqilgan amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar, internet banking, savdo ekvayringi, blokcheyn va big data asosida qurilgan xizmatlar mijozlarga 24/7 rejimda qulay va xavfsiz moliyaviy xizmatlar taqdim etilishini ta’minlaydi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan ko‘chirma olish tizimlari, foydalanuvchi interfeyslari va real vaqtli monitoring kabi texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshiradi hamda regulyativ me’yorlarga muvofiqlikni kuchaytiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, tijorat banklarining raqamli xizmatlar infratuzilmasini hududlar bo‘yicha teng va muvozanatli taqsimlash lozim. Bu, ayniqsa, Namangan, Urganch va Qarshi singari nisbatan past ko‘rsatkichli hududlarda bank filiallari va raqamli sotuv nuqtalari sonini ko‘paytirishni talab etadi. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan xizmatlarni foydalanuvchilar uchun yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan (personalized) qilish zarur. Bunda sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (big data) va eko-tizimlar asosida moslashtirilgan xizmat paketlarini ishlab chiqish bankning xizmat sifati va rentabelligini oshiradi. Nihoyat, regulyatorlar tomonidan raqamli banklar faoliyatini tartibga solishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, raqamli xavfsizlik, ma’lumotlar himoyasi va mijozlar ishonchini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Fuller, J.B. Digital banks: the future of banking industry // Journal of Digital Finance. – 2020. – Vol. 6, No. 2. – P. 112–130.
2.Arner, D.W., Barberis, J.N., Buckley, R.P. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? // Georgetown Journal of International Law. – 2017. – Vol. 47. – P. 1271–1319.
3.Zetzsche, D.A., Arner, D.W. The Future of Data-Driven Finance and Regtech // University of Hong Kong Faculty of Law Research Paper No. 2020/003. – 2020. – 36 p.
4.Buehler, M.T. Operational Resilience and Profitability of Digital Banks // McKinsey Global Banking Report. – 2021. – Q1 Issue. – P. 40–52.
5.Lin, A. Digital transformation in banking: Lessons from East Asia // Asia Pacific Financial Review. – 2022. – Vol. 18, No. 3. – P. 78–93.
6.Pavlovskiy, A. (2018). Sifrovaya transformatsiya v bankovskoy otrasli: klyuchevые trendы i vыzovы. Jurnal sifrovogo bankinga, 3(1), 15-29.
7.Nakamura, Dj., & Yokoyama, Y. (2019). Blokcheyn i finansovые uslugi: vliyaniye i perspektivы. Finansovые innovatsii, 5(3), 45-62.
8.Evans, D. S., & Shmalensee, R. (2020). Ekonomika sifrovых uslug: issledovaniye sifrovых bankovskix uslug. Jurnal finansovoy ekonomiki, 137(2), 276-295.
9.Shin, X. S., & Li, M. (2021). Iskusstvennыy intellekt v bankovskom dele: vozmojnosti i riski. Obzor bankovskix texnologiy, 12(4), 50-66.
10.Suleymanov, E. M. (2023). Sifrovoy banking: evolyutsiya i budущiye perspektivы. Uzbekskiy jurnal ekonomiki i finansov, 8(2), 78-90.
11.O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-sonli qonuni. 01.11.2019-y.
12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli farmoni. 12.05.2020.
13.O'zbekiston RespublikasiPrezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020-y.https://uza.uz/uz
14.Kronk Dj. Sifrovaya transformatsiya finansovых uslug –nadejnoye vlojeniye v budущее. URL: https://www.cisc0.c0m/c/dam/m/ru_ru/ intemet-of-everything-ioe/iac/assets/pdfs/Cisco_Financial_m.pdf
15.Skinner K. Sifrovoybank. Kak sozdat sifrovoy bank ili stat im. −M.: Mann, IvanoviFerber, 2015. −308 s.
16.King B. Bank 4.0. Banking everywhere, never at a bank. Marshall Cavendish, 2018. − 347 p. REFERENCES.
17.Peter C. Verhoef, et al., "Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda" Published in Journal of Business Research, November 2019.
18.Ayupov R.X, Baltabayeva G.R., G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. 161-bet.
19.Abdullayeva Sh.Z.Bank ishi.Darslik.T.: Iqtisod-moliya,2017.-732 b.
20.Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. (2019) Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. − T.: TMI, "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2019.−447 b.
21.IMF (2017). Fintech and financial services: Initial consuderations. IMF Staff Discussion Notes, No. SDN/17/05.
22.BCBS (2018). Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. Basel Committee
23.24.
25.
26.
27.
28.

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Bank moliya akademiyasi magistranti Xakimova Maftuna

tel: 97-763-99-98 **Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash metodologik asoslari va amaliy choralari tahlil qilinadi. Ichki (resurs bazasi, likvidlik, risklarni boshqarish) va tashqi (iqtisodiy inqirozlar, bozor kon’yunkturasi) omillarning bank barqarorligiga ta’siri ko‘rib chiqilib, kapitallashuv darajasi hamda investitsion faollikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. O‘zbekistonda 2017 yildagi PQ-3066-sonli qaror asosida banklarning ustav kapitalini ko‘paytirish tajribasi misolida, bank tizimining mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiluvchi islohotlarning muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv darajasi, kredit zaxiralari, investitsion faollik, likvidlikni boshqarish, transformatsiya, chakana xizmat, resurs bazasini mustahkamlash, markaziy bank nazorati.

Kirish. Keyingi yillarda O‘zbekiston iqtisodiy makonida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilishi bank tizimining moliyaviy mustahkamligi va raqobatbardoshligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” (2020–2025) PF-5992-sonli Farmoni bank sektorining kredit portfelini boshqarish, risklarni minimallashtirish va davlat banklarini kompleks transformatsiya qilish borasidagi strategik vazifalarini belgilab berdi. Mazkur hujjat, bir tomondan, bank tizimining xatarlar oldini olish, kapitallashuv darajasini oshirish va resurs bazasini mustahkamlash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlashini ko‘zda tutsada, boshqa tomondan, bank xizmatlari spektrini kengaytirish, investitsion jalb etish imkoniyatlarini oshirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu tariqa, jamiyatda bozor iqtisodiyotining mazmunan chuqurlashuvi hamda

iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi bank tizimi rivojida hal qiluvchi omilga aylanib, tijorat banklarining milliy va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi yanada yuksalmoqda [2].

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash jarayonida, bank faoliyatini muntazam tahlil qilish va samarali strategik rejalashtirishga qaramasdan, qator dolzarb muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, tijorat banklari balansidagi aktivlarning rentabellik darajasi pastligi, banklar resurs bazasining barqarorligini yetarli darajada ta’minlay olmaslik, shuningdek, banklarning kredit portfelini optimallashtirish va sifat darajasini oshirish bo‘yicha yetarli chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilmayotgani mazkur sohada muhim xatarlarni yuzaga keltiradi. Shuni inobatga olgan holda, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun risklarni strategik boshqarish, kapitallashuv darajasini oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish hamda regulatorlar tomonidan banklar faoliyatini tizimli monitoring va nazoratdan o‘tkazish kabi chora-tadbirlar eng ustuvor yo‘nalishlardandir.

Adabiyotlar tahlili. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda ilmiy izlanish olib borayutgan olim O.Sattarov “bank tizimi barqarorligi bu Markaziy va tijorat banklari faoliyati davomida o‘z funksiyalarini to‘laqonli bajara olishini ta’minlagan holda, rivojlanishga intilishdir” degan xulosaga kelgan. [3] Shu nuqtai nazardan, bank xizmatlariga bo‘lgan talabning uzluksiz o‘sishi va mijozlar sonining ortishi bank daromadlarini oshirib, bankning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, bank tizimining umumiy moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi uchun mustahkam poydevor yaratar ekan, uning rivojlanish salohiyatini yanada kuchaytiradi.

Prof O.Lavrushinning fikriga ko‘ra, “tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy e’tibor guruhlash va tarkibiy tahlilga qaratilishi lozimdir, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin” deb o‘z fikirlarini ilgari surgan[4].

O.Lavrushinning ushbu xulosasini qo‘llab-quvvatlagan holda, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash jarayonida qiyosiy tahlil usulining ahamiyati alohida ta’kidlash lozim. Bunda bank faoliyati samarasini boshqa muqobil subyektlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirish, risklarni minimallashtirish va resurs bazasining diversifikatsiyasini chuqur tahlil qilishda zarur metodologik asos yaratadi. Shuningdek, N. Semenova, I. Ivanova hamda A. Vasilkina singari tadqiqotchilar bank barqarorligini butun rivojlanish davri davomida, tashqi va ichki muhitning o‘zgaruvchan omillari sharoitida muvozanatda bo‘lish va o‘ziga xos funksiyalarini uzluksiz bajara olish qobiliyati sifatida tavsiflab, moliyaviy barqarorlikning murakkab konseptual mohiyatini chuqur ifoda etishga e’tibor qaratishgan [5].

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasida E.Dj. Dolan, S.Urazov, Sh.Abdullayeva va A.Mahmudaliyeva kabi olimlarning xulosalari e’tiborga molik. Jumladan, E.Dj. Dolan “yuqori likvidli aktivlar va yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi oqilona nisbatga erishishni moliyaviy barqarorlik omillaridan biri” sifatida ta’kidlasa [6], S.Urazov “banklarning turli salbiy tashqi omillar ta’sirida ham mustahkam pozitsiyaga qayta olish xususiyati muhim ahamiyat kasb etishi”ni qayd etadi [7]. Sh.Abdullayeva esa “kredit riskini boshqarish jarayonini takomillashtirish va shu orqali kredit portfelining sifat darajasini oshirish zarur”ligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi [8]. A.Mahmudaliyeva, o‘z navbatida, “bank aktivlari, majburiyatlari, kapitali hamda moliyaviy natijalari dinamikasini xatarlilik darajasi doirasida baholash, likvidlikni saqlagan holda foyda va kapitalni
oshirish banklarning moliyaviy barqarorlik konsepsiyasining asosiy ko‘rsatkichlarini tashkil etishi”ni ta’kidlaydi [9].

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha turli ilmiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar mavjud bo‘lsa-da, bu borada ayrim iqtisodchilar mazkur masalaga yetarli e’tibor qaratmayotgani kuzatiladi. Jumladan, aktivlar va passivlar tuzilmasi, risklarni strategik boshqarish, investitsion faollikni kengaytirish, resurs bazasini diversifikatsiyalash kabi jarayonlar nazariy-analitik jihatdan

mukammal tadqiq etilmaganligi sababli, amaliyotda qo‘llanishi cheklangan bo‘lib qolmoqda. Shu bois tijorat banklarining barqarorligiga erishishda ilmiy-uslubiy asoslarni yanada chuqur izchil o‘rganish, dalillarga asoslangan modellashtirish usullaridan keng foydalanish hamda tegishli empirik tadqiqotlar o‘tkazishga zarurat mavjud.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda tajriba-empirik yondashuv (Creswell, 2014) hamda tizimli tahlil (Forrester, 1961) usullari uyg‘unlashgan holda qo‘llanildi. Dastlab, banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar yig‘ilib, ular korrelyatsion-regression (Chaddock, 1974) va indikativ-analitik (Hansen, 1992) uslublar yordamida qayta ishlanib, asosiy xatarga ta’sir etuvchi omillar ajratib olindi. Keyinchalik, ma’lumotlar to‘plami klaster tahlil (Everitt, 1977) orqali sistemali guruhlanib, banklarning barqarorlik ko‘rsatkichlarini o‘zaro qiyosiy baholash imkoni yaratildi. Ushbu yondashuv, bir tomondan, iqtisodiy model va nazariy qarashlarni empirik ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirsa, ikkinchi tomondan, banklarning resurs bazasi va risklarni boshqarish jarayonlarini aniq matematik modellarga asoslangan holda tadqiq etishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning konseptual yondashuvlarini umumlashtirgan holda, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi deganda — ularning tashqi va ichki omillar ta’sirida asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni (likvidlik, rentabellik, kapitallashuv, kredit sifati va boshqalar) barqaror darajada ushlab qolgan holda, uzluksiz va samarali faoliyat yuritish qobiliyati tushuniladi (Mahmudaliyeva, 2021). Moliyaviy barqarorlik mohiyatan moliyaviy tizimning – moliya muassasalari, moliya bozorlari hamda bozor infratuzilmalari – ehtimoliy makroiqtisodiy shoklar va muvozanatsizliklarga qarshi turish imkoniyatini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy vositachilik funksiyalarining uzluksiz amalga oshirilishini ta’minlaydi va tizim ishdan chiqish ehtimolini minimallashtiradi (Mishkin, 2010). Mazkur barqarorlikning asosiy maqsadi alohida muassasalarning emas, balki butun moliyaviy tizimning makrobarqarorligini ta’minlashdan iboratdir (IMF, 2019). Chunki moliyaviy tizim

iqtisodiy o‘sish va investitsiyalarning asosiy drayveri bo‘lib, banklar, kredit institutlari va moliya bozorlari tomonidan iqtisodiyot subyektlariga samarali moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratib bergan taqdirdagina tizim barqaror deb baholanishi mumkin (Stiglitz & Weiss, 1981). Aksincha, tizimning nobarqaror holatga kelib qolishi iqtisodiyotga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatib, kreditlashning pasayishi, ishsizlikning ortishi va yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlarining sekinlashishiga olib keladi (Demirgüç-Kunt et al., 2020). Bundan tashqari, moliyaviy tizimda yuzaga kelgan muammolar, ayniqsa yirik moliya institutlaridagi xatarlar, banklararo operatsiyalar tarmog‘i orqali boshqa banklarga yuqib, tizimli xavf (systemic risk) darajasini oshirishi mumkin (Acharya, 2009). Bu holat moliyaviy tizimning bir butun sifatida ishdan chiqishiga, hatto ilgari ishonchli bo‘lib ko‘ringan institutlarning ham inqirozga uchrashiga sabab bo‘ladi.


1 - jadval O‘zbekistonda moliya tizimi barqarorligini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar[11]

Chora-tadbir yo‘nalishi	Vosita	Amaldagi m
Bank tizimida likvidlilikni ta’minlash	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	10%
	Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti	25%
	Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsiyenti (LCR)	100%
	Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyenti (NSFR)	100%
Bank tizimida kapital yetarliligini saqlab turish	Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	13%
	I darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	10%
	I darajali asosiy kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	8%
	Kapitalning konservatsiya buferi	3% (regulyati tarkibi
Bank tizimida leveraj va xatarga moyillikni kamaytirish	Tavakkalchilik darajalari	Yillik foiz st boshqa ko‘rsa asoslangan holda
	Leveraj koeffitsiyenti	6%
Dollarlashuvda	Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar ajratish cheklovi	Xorijiy v kreditlar ajratilm

	Tabaqalashtirilgan majburiy rezerv normativlari	4% (milliy valyu 14% (xorijiy v
	Xorijiy valyutalarda LCR	100%
	Xorijiy valyutalarda NSFR	100%
Qarz yukini tartibga solish	Qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati (DSTI)	60%
	Kredit yoki mikroqarz bo‘yicha foiz to‘lovlarining asosiy qarz qoldig‘iga nisbatan kunlik cheklovi	0,3%
	Tabaqalashtirilgan tavakkalchilik darajalari	Ipoteka va avt bo‘yicha LTV nisbatlariga mos
Yirik tavakkalchiliklarni oldini olish	Bankning bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori cheklovi	25% (bank I dara kapitaliga nisbat
	Bankning bir qarzdor yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi ta’minotsiz kredit tavakkalchiligining eng ko‘p miqdori	5% (bank kapitaliga nisbat
	Bankning barcha yirik tavakkalchiliklarining umumiy miqdori cheklovi	Bank I kapitalining 5 barobarigacha
	Bankka aloqador bitta shaxsga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori cheklovi	25% (bank I dara kapitaliga nisbat
	Bankka aloqador bo‘lgan barcha shaxslarga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori cheklovi	50% (bank I dara kapitaliga nisbat

Berilgan jadval va statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan kompleks choralar mamlakat moliya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, moliyaviy barqarorlikni saqlash va baholash jarayoni Markaziy bank hamda moliya sektorini tartibga soluvchi boshqa institutsiyalarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O‘zbekiston moliya tizimining eng markaziy va ta’sirchan bo‘g‘ini bo‘lganligi bois, uning barqarorligi bevosita makroiqtisodiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tizimidagi tendensiyalarni doimiy monitoring qiladi, tizimli xatarlarni baholaydi va ularni minimallashtirish bo‘yicha zarur choralarni amalga oshiradi. Ayniqsa, yiliga ikki marotaba chop etiladigan "Moliyaviy barqarorlik sharhi" orqali bank tizimi barqarorligi, makromoliyaviy

zaifliklar va potensial xatarlar tahlil qilinib, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik xabardor qilinadi. Bu esa Markaziy bank faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xalqaro valyuta fondi tomonidan ishlab chiqilgan 39 ta moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlaridan (FSI – Financial Soundness Indicators) 12 tasi asosiy, ya’ni tijorat banklari uchun majburiy indikatorlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mazkur indikatorlar asosida milliy bank tizimining holatini baholab boradi. 2024 yilning birinchi yarmi natijalariga ko‘ra, mamlakatda moliyaviy barqarorlik saqlanib qolgan bo‘lib, xatar premyasi nisbatan past shakllangan, banklarning regulyativ va I darajali kapital koeffitsiyentlari esa belgilangan minimal mezonlardan yuqori darajada shakllangani kuzatilgan. Bu holat bank sektorining tashqi shoklarga nisbatan nisbiy barqarorligini va xatarlarga chidamlilik darajasining oshganini anglatadi [12].



1-rasm. Kapital TBning moliyaviy barqarorlik holati (2019-2024 yy)[13]

Kapital bankning 2019–2024 yillar oralig‘idagi moliyaviy barqarorlik indikatorlari tahlili bank faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari — aktivlar

o‘sishi, aktivlar rentabelligi (ROA) hamda substandart va muammoli kreditlar (NPL) ulushi asosida amalga oshirildi. Grafik natijalari bankning moliyaviy barqarorlikka erishish yo‘lida izchil rivojlanayotganini va bu jarayon strategik boshqaruv qarorlarining samaradorligini aks ettirayotganini ko‘rsatadi. Bunday indikatorlar asosida olib borilayotgan monitoring jarayoni bank faoliyatidagi moliyaviy xatarlarni erta aniqlash va ularni boshqarish imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2019-yilda Kapital bankning aktivlar o‘sish sur’ati va ROA ko‘rsatkichi nisbatan past bo‘lgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda bu indikatorlar bosqichma-bosqich oshgan. Ayniqsa, 2022–2024 yillar oralig‘ida aktivlar o‘sish koeffitsiyenti 0,60 dan 0,65 gacha, ROA esa 0,50 dan 0,55 gacha yetgan. Bu esa bankning foyda olish salohiyatining mustahkamlanganini, kapitaldan samarali foydalanilayotganini anglatadi. Moliyaviy rentabellikning bunday darajada o‘sishi bank strategiyasida operatsion samaradorlik va foydali aktivlar ulushini oshirishga qaratilgan yondashuv muvaffaqiyatli joriy etilganini bildiradi.

Boshqa tomondan, substandart va NPL ulushining 2019-yildagi 0,50 darajasidan 2024-yilga kelib 0,30 darajasiga pasaygani — bankning kredit risklarini samarali boshqara olganini va portfel sifatini muntazam ravishda yaxshilaganini ko‘rsatadi. Bu holat bankning risklarni baholash, kreditlash standartlarini yangilash hamda qarz oluvchilarni monitoring qilish tizimlarini modernizatsiya qilganini anglatadi. Xususan, bu ijobiy dinamikani saqlab qolish uchun ilg‘or kredit scoring tizimlarini joriy etish va AI asosidagi qarz oluvchilarni baholash mexanizmlari qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, ushbu indikatorlar bo‘yicha ijobiy tendensiyalar bank tizimining umumiy barqarorligi hamda iqtisodiy shoklarga nisbatan bardoshliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Moliyaviy barqarorlik indikatorlarining bir-biri bilan uyg‘un rivojlanayotgani bank ichki boshqaruv tizimining barqarorligi va qaror qabul qilish jarayonlarining puxta asoslanganligini ko‘rsatadi. Shu sababli, bank moliyaviy salohiyatini yanada mustahkamlash uchun stress-testlash mexanizmlarini

doimiy asosda qo‘llashi, turli iqtisodiy senariylarga tayyorgarlik darajasini oshirishi lozim.

Tahlil asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, aktivlar rentabelligini yanada oshirish uchun bankning yuqori daromadli investitsiyaviy yo‘nalishlarga kirishini rag‘batlantirish zarur; ikkinchidan, kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini yanada kamaytirish uchun proaktiv kredit monitoringi va qarzdorlikni qayta restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq; uchinchidan, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali ichki samaradorlikni oshirish lozim.

Umuman olganda, Kapital bankning 2019–2024 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, bank moliyaviy barqarorlikka erishish yo‘lida izchil va bosqichma-bosqich harakat qilmoqda. Kelgusida ushbu rivojlanish tendensiyasini saqlab qolish va mustahkamlash uchun bank strategiyasida transformatsion islohotlarni chuqurlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribani tatbiq etish hamda kapital va likvidlikni samarali boshqarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Kapital TBning uzoq muddatli va qisqa muddatli likvidlik risklariga bardoshliligi holati [14]

Kapital bankning 2019–2024 yillardagi regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti, NSFR (sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti) va LSR (likvidlikni qoplash koeffitsienti) kabi moliyaviy barqarorlik indikatorlari asosida tuzilgan radar grafiklari bankning kapital va likvidlik siyosatida bosqichma-bosqich ijobiy dinamikani kuzatishga imkon beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bankning barcha ko‘rsatkichlari yildan-yilga izchil oshib bormoqda, bu esa bankning kapital yetarliligi va likvidlik darajasi bo‘yicha me’yoriy talablarni bajara olish salohiyati mustahkamlanayotganini anglatadi.

Xususan, 2019-yilda regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti 0,40 darajasida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 0,65 ga yetgan. Bu bank kapitalining risklar bilan bog‘liq aktivlar hajmiga nisbatan yetarli zaxira shakllantirayotganini bildiradi. NSFR va LSR ko‘rsatkichlarining ham mos ravishda 0,50 va 0,45 dan 2024-yilga kelib 0,70 va 0,68 gacha ko‘tarilgani Kapital bankning qisqa va uzoq muddatli likvidlik risklariga bardoshliligini oshirishga qaratilgan siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirayotganini tasdiqlaydi.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda ayniqsa NSFR va LSR ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bankning kutilmagan shok holatlarida o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyatini baholashda foydalaniladi. U ko‘rsatkichlarning o‘sib borishi bankning risklarga nisbatan immuniteti kuchayganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, bu ijobiy tendensiya bankka investorlar, depozit egalar va tartibga soluvchi organlar nazarida ishonchli institut sifatida qaralishiga xizmat qiladi.

Mazkur tahlillarga asoslanib, Kapital bankka quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, regulyativ kapital ko‘rsatkichini yana-da oshirish uchun foydaning bir qismini reinvestitsiya qilish strategiyasini davom ettirish zarur; ikkinchidan, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish orqali NSFRni 0,80 darajasiga yetkazish maqsadga muvofiq; uchinchidan, likvidlik siyosatini yanada diversifikatsiya qilish, ya’ni LSR ko‘rsatkichini har doim eng kamida 100% me’yoriy talablardan yuqori saqlash zarur. Bu esa bankning moliyaviy

barqarorligini mustahkamlash bilan birga, bozor shoklariga nisbatan bardoshliligini yana-da oshiradi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan strategik islohotlar, ayniqsa PF-5992-sonli Farmon asosida belgilangan chora-tadbirlar, bank tizimining kapital yetarliligi, likvidlik darajasi va kredit portfeli sifati kabi ko‘rsatkichlar orqali ijobiy samara berayotganini ko‘rsatmoqda. Kapital bank misolida olib borilgan tahlil natijalari bankning 2019–2024 yillar davomida moliyaviy barqarorlik darajasini bosqichma-bosqich mustahkamlab borganini tasdiqlaydi. Xususan, regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti, NSFR va LSR kabi indikatorlarning izchil o‘sishi bankning iqtisodiy shoklarga bardoshliligini oshirganini anglatadi.

Kelgusida banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, risklarni boshqarish tizimini avtomatlashtirish, kredit portfelini diversifikatsiyalash va kapitalni optimallashtirish muhim strategik yo‘nalish bo‘lib qoladi. Bank tizimi ishonchliligi, samaradorligi va barqarorligi nafaqat moliyaviy sektor, balki butun iqtisodiyotning izchil rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan, mamlakatda tijorat banklarining makroiqtisodiy rolini kuchaytirish uchun ilmiy asoslangan, empirik dalillarga tayangan, kompleks tahlillarga asoslangan siyosat yuritilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanadlgan adabiyotlar:

1.Саттаров, О. Б. Совершенствование методологии обеспечения устойчивости банковской системы Республики Узбекистан: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Ташкент, 2018. – 42 с.

2. Lavrushin, .I. Bankovskoye delo. – M.: KnoRus, 2008. – 251 s.

3.Семенова, Н. Н., Иванова, И. А., Василкина, А. А. Оценка устойчивости развития коммерческого банка на основе метода анализа иерархий // Финансы: теория и практика. – 2021. – Т. 25, №4. – С. 121–135.

4. Dolan, E. Dzh. Dengi, bankovskoe delo i denezhno-kreditnaya politika. – SPb.: Sankt-Peterburg Orkestr, 1994. – 336 s.

5.Уразов, С. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты // Банковское дело.

6.Абдуллаева, Ш. З. Диверсификация кредитного портфеля коммерческих банков в условиях банковских рисков: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Ташкент, 2000. – 46 с.

7. Mahmudaliyeva, Yo. A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash: I.f.n. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 22 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli Farmoni “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 maydagi PQ-3066-sonli qarori.

10. Markaziy bank rasmiy sayti: https://cbu.uz

11. Stiglitz, J.E., Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
12. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – 9th ed. – Boston: Pearson, 2010. – 672 p.
13. International Monetary Fund (IMF). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. – Washington, 2019.
14. Demirgüç-Kunt, A., Pedraza, A., Ruiz-Ortega, C. Banking Sector Performance During the COVID-19 Crisis. – World Bank Policy Research Working Paper No. 9363, 2020.

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMLARINING IQTISODIY XUSUSIYATLARI

Bank moliya akademiyasi magistranti Xoshimov Xasan

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning amaldagi holati tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltrilgan bo‘lib, muammoli kreditlar bank tizimining barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omil hisoblanadi va kelgusida bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida, muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy usullari va ularni takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Ishda kredit portfelini tahlil qilish, risklarni baholash, kredit monitoringi tizimini takomillashtirish va qayta tuzilish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli kredit, kredit portfeli, risk boshqaruvi, diversifikatsiya, innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar, tijorat banki, iqtisodiy samaradorlik. kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, risk boshqaruvi, innovatsion yechimlar, bank kreditlari.

Kirish. Respublikamiz bank amaliyotida so‘nggi yillarda berilayotgan kreditlar dinamikasi va ularni qaytarishda yuzaga kelayotgan qarzdorlik muammosi, uni yuzaga keltirayotgan omillar hamda yuzaga kelgan qarzdorlik bo‘yicha tijorat banklarida shakllantirilayotgan zahiralar holati haqida biroz to‘xtalib o‘tish lozim. So‘nggi yillarda kreditning iqtisodiyotdagi o‘rni va roligina emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o‘zgardi. Mijozlarni pul oqimi nobarqaror bo‘lgan sharoitda tijorat banklari kredit berish to‘g‘risidagi

11. Stiglitz, J.E., Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
12. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – 9th ed. – Boston: Pearson, 2010. – 672 p.
13. International Monetary Fund (IMF). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. – Washington, 2019.
14. Demirgüç-Kunt, A., Pedraza, A., Ruiz-Ortega, C. Banking Sector Performance During the COVID-19 Crisis. – World Bank Policy Research Working Paper No. 9363, 2020.

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMLARINING IQTISODIY XUSUSIYATLARI

Bank moliya akademiyasi magistranti Xoshimov Xasan

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning amaldagi holati tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltrilgan bo‘lib, muammoli kreditlar bank tizimining barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omil hisoblanadi va kelgusida bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida, muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy usullari va ularni takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Ishda kredit portfelini tahlil qilish, risklarni baholash, kredit monitoringi tizimini takomillashtirish va qayta tuzilish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli kredit, kredit portfeli, risk boshqaruvi, diversifikatsiya, innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar, tijorat banki, iqtisodiy samaradorlik. kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, risk boshqaruvi, innovatsion yechimlar, bank kreditlari.

Kirish. Respublikamiz bank amaliyotida so‘nggi yillarda berilayotgan kreditlar dinamikasi va ularni qaytarishda yuzaga kelayotgan qarzdorlik muammosi, uni yuzaga keltirayotgan omillar hamda yuzaga kelgan qarzdorlik bo‘yicha tijorat banklarida shakllantirilayotgan zahiralar holati haqida biroz to‘xtalib o‘tish lozim. So‘nggi yillarda kreditning iqtisodiyotdagi o‘rni va roligina emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o‘zgardi. Mijozlarni pul oqimi nobarqaror bo‘lgan sharoitda tijorat banklari kredit berish to‘g‘risidagi

qarorni qabul qilishda asosiy e‘tiborni yuqori likvidli obyektlarni garovga olishga qaratadi. Bu esa, amaliy jihatdan to‘g‘ri qabul qilingan qaror hisoblanadi. Chunki, kreditni qaytarish vaqti kelganda mijozning joriy hisobraqamida pul mablag‘larini bo‘lmay qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, iqtisodiyotni pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni pul oqimi nobarqarorlik darajasini yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Kreditlar ustidan joriy nazoratni amalga oshirishda ushbu operatsiyalar turli darajalarda ikkita xolis mansabdor shaxs tomonidan tekshirilishi lozim. Avvalo joriy nazorat jarayoni ushbu mijozni kreditlashni amalga oshirgan yoki ushbu kreditni ishini yuritish topshirilgan bank xodimi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, har bir kredit ishining ma‘lum davriy oraliqlarda tahlil qilib borish, kredit operatsiyalarini amalga oshirib borish ustidan nazorat qilish topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. Muammoli kreditlar bank tizimining barqarorligiga jiddiy tahdid soladi, ayniqsa makroiqtisodiy inqirozlar davrida. O‘zbekistonda bank sektorining rivoji bilan birga kredit riskini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish zarurati ortib bormoqda“ [1]

Adabiyotlar tahlili. Mahalliy olimlardan O. Arzikulov va D. To‘ychiyevlarning ishlarida muammoli kredit – bu qarz oluvchi to‘lay olmaydigan ssudadir. Bunday qarz oluvchilar ko‘pincha o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olmagan holda bir nechta kreditlarni olishadi va natijada ular uchun qarzlarning hech bo‘lmaganda bir qismini majburiyatlarini to‘lash muammoli bo‘lib qoladi [2] .

A. Norov, S. Shaxiddinonov, N. Norova tadqiqotlariga ko‘ra So‘nggi yillarda kreditlash faol rivojlanayotgan bir paytda, kreditlar va ular bo‘yicha foizlarning tijorat banklariga o‘z vaqtida qaytib kelishi juda muhim hisoblanadi. O‘z vaqtida qaytarilmagan kredit tizimli kredit riskini keltirib chiqaradi. Bank bergan kredit muammoli kreditga o‘tadi, bu o‘z navbatida bank likvidligiga, daromadliligiga, bank resurslariga ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli kreditlarni kamaytirish so‘nggi choralaridan biri olingan kafolatlar va kafilliklar bo‘yicha

to‘lovlarni undirish, garovga olingan mol-mulkni sotish hisobiga ularni qoplash hisoblanadi. [3]

Bekjon Namozov ishlarida banklar tendensiyalarni aniqlash va kelajakdagi muammoli kreditlarni bashorat qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan.[4]

Z.Olqarova va B. Boyev ishlarida bank tizimidagi kredit portfellari va muammoli kreditlar bilan ish olib boorish masalalari bo‘yicha mavjud ishlarning tahlili va qonunchilik doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning analizi qilingan bo‘lib ushbu sohada kredit berish va qaqytarib olish tiziminining samarali faoliyatini taminlash haqida bazi tavsiyalar ham berib o‘tilgan[5].

L. Ergasheva O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida kredit monitoringi va muammoli kreditlar haqida bo‘lib,unda bugungi kundagi tijorat banklari kredit portfeli monitoringidagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo‘llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan[6].

S. Z. Ravshan o‘g‘li ishlarida tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larining asosiy qismini kredit berish sifatida foydalanar ekan, bunda faqatgina daromad olish uchun emas, balki mablag‘larni kredit oluvchidan to‘liq qaytarib olish masalasini oldindan belgilab olishi zarur. Chunki, bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini ma‘lum bir shart va ustama foizlar asosida ma‘lum muddatga sotadi.[7]

D. I. Zokirova ilmiy ishlarida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va ularning aholiga taklif etayotgan chakana xizmatlari tarkibida mavjud bo‘lgan muammoli kreditlar o‘rganilgan, tijorat banklarining muammoli kreditlari statistikasi tahlil eilgan. Ushbu muammoni bartaraf etishda xorij tajribalarini qo‘llash imkoniyatlari keltirilgan hamda takliflar berib o‘tilgan.[8]

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida muammoli kreditlar darajasiga ta’sir qilishda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy omillarning rolini ta’kidlaydi. Retsessiya yoki iqtisodiy tanazzul muammoli kreditlarlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin (Acharya Viral V.,)


[9]. Adabiyotllarda muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida kredit riskini baholashdagi kamchiliklar ham ta’kidlangan. Zaif kredit anderrayting standartlari va noto‘g‘ri tekshirish jarayonlari yuqori muammoli kreditga olib kelishi mumkin Berger va DeYoung deb yozib qolishgan.[10]

Tahlil va natija. “Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning amaldagi holati tahlili’’ deb nomlangan ikkinchi bobida muammoli kreditlar hajmini minimallashtirish mexanizmlari, muammoli kreditlarni so‘ndirish mexanizmi, kredit qarzdorliklarini undirish bosqichlari, tijorat banklari kredit portfeli va undagi muammoli kreditlar hajmi qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, ijorat banklarida muammoli kreditlar hajmining dunamikasi, tijorat banklarida kreditlarning subyektlarga, valyuta birligi va muddatiga ko‘ra guruhlanishi va “Hamkorbank” ATBda muammoli kreditlar hajmi va kredit portfelidagi ulushi kabi masalalar tadqiq etilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) bankning barqarorligi va rentabelligi uchun katta xavf tug‘diradi. Muammoli kreditlar iqtisodiy tanazzul, qarz oluvchilarning qarzlarini to‘lamasliklari, risklarni noto‘g‘ri baholash va boshqa turli omillar ta’sirida kelib chiqishi mumkin. Banklarda muammoli kreditlarni qisqartirish natijasida ularning kredit portfelini moliyaviy sog‘lomlashtirish omonatchilar va investorlar ishonchini saqlab qolishga xizmat qiladi. Muammoli kreditlar hajmini minimallashtirish uchun banklarda oldini olish, erta aralashuv, risklarni boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini samarali qo‘llash talab etiladi.

Oldini olish (Prevention). Bu kredit riskini oldindan samarali baholash, ehtiyotkorlik bilan kreditlash amaliyoti va kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Muammoli kreditlarni kamaytirishning asosiy usullaridan biri bu kredit riskini aniqlik bilan baholash jarayonini amalga oshirishdir. Banklar potentsial qarz oluvchilarning moliyaviy holati, kredit tarixi va to‘lov qobiliyatini hisobga olgan holda kreditga layoqatliligini har tomonlama baholash kerak. Banklar oqilona kreditlash amaliyotiga rioya qilish kerak, xususan, kredit miqdorini

hisoblash, qoplash koeffitsyienti, mijozning pul aylanmasi va boshqa ko‘rsatkichlarni sinchkovlik bilan tekshirish lozim. Ushbu choralar kredit riskini minimallashtiradi. Undan tashqari kredit portfelini turli sektorlar, tarmoqlar va geografik mintaqalar bo‘yicha diversifikatsiya qilish risk konsentratsiyasini yumshatishga va bank sektoriga xos iqtisodiy pasayishlarning ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.



1-rasm. Muammoli kreditlar hajmini minimallashtirish mexanizmlari


Manba. Muallif tomonidan tuzildi.

Erta aralashuv (Early Intervention). O‘z vaqtida monitoring va kuzatuvlarni olib borish banklarda kreditlar monitoringining mustahkam tizimini yaratish orqali muammoli kreditlarning vujudga kelishi va mijozlarida yuzaga kelayotgan qiyinchilik belgilarini erta aniqlash imkonini beradi. Erta aniqlash banklarga kreditlarning NPLga aylanishining oldini olish uchun ta’sirchan choralar ko‘rish imkonini beradi. Qarz oluvchilar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganda, banklar qarz oluvchilarning o‘zgaruvchan sharoitlarini hisobga olgan holda, kredit shartlari, foiz stavkalari va to‘lov jadvallarini qayta ko‘rib chiqish, kredit shartlarini o‘zgartirish, kutish va kredit shartnomasini qayta tuzish variantlarini taklif qilish mumkin.

Undan tashqari qarz oluvchilarga kredit bo‘yicha maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini berish, ularga moliyaviy qiyinchiliklarni yengish va kredit

to‘lovlarini qaytarish uchun strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Risklarni boshqarish (Risk Management). Samarali risklarni boshqarish siyosati orqali banklar kredit jarayonining barcha jihatlarini, ya’ni kelib chiqishdan tortib to undirish va undirishgacha bo‘lgan masalalarni qamrab oluvchi risklarni boshqarish bo‘yicha keng qamrovli siyosatlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak. Banklarni muntazam stress testlardan o‘rkazish, bu esa banklarga salbiy iqtisodiy ssenariylar ostida kredit portfellari qanday ishlashini baholashga yordam beradi. Bu banklarga potensial zaif tomonlarini aniqlash va favqulodda vaziyatlar rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.



3-rasm. Tijorat banklarida kredit qarzdorliklarini undirish bosqichlari

Manba. Muallif tomonidan tuzildi.

Normativ muvofiqlik (Regulatory Compliance). Banklar ichun prudensial me’yorlar banklar faoliyatini tartibga soluvchi organlar tomonidan o‘rnatilgan prudensial me’yorlarga, shu jumladan,kapitalning yetarliligi to‘g‘risidagi talablarga, aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish bo‘yicha yo‘riqnomalarga va stress testlari topshiriqlariga rioya qilish kerak. Banklar nazorat qiluvchi organlarga NPL va kredit

sifati ko‘rsatkichlari to‘g‘risida aniq va shaffof hisobot taqdim etishi kerak, bu esa tartibga soluvchi organlarga tizimli risklarni samarali nazorat qilish va hal qilish imkonini beradi.

Kredit qarzdorliklarini undirish 4 ta bosqichga bo‘linadi (2-rasm): Muddati o‘tgan kredit qarzdorliklari paydo bo‘lishining oldini olish (Pre-collection ilova MS Visio) bankning Kredit qarzdorliklari tahlili bo‘limi tomonidan har oyda kamida bir marotaba qarzdorlikni undirish tahlili qarzdorlarni segmentlarga ajratgan holda amalga oshiriladi.[11]

Kredit qarzdorliklarini so‘ndirishda (Soft collection ilova MS Visio) kredit qarzdorliklarini undirishning boshlang‘ich bosqichida dastlab qarzdor (kafil, garov egasi)ga bankning «Soft collection» bo‘limi xodimlari masofaviy aloqa kanallaridan foydalangan holda (qo‘ng‘iroq orqali) muddati o‘tgan kredit qarzdorliklarini to‘lash zarurligini eslatadi. «Soft collection» bo‘limi xodimlari qarzdor (kafil, garov egasi) bilan har bir muloqot natijalari va va’dalarini bankning dasturiy ta’minotiga kiritib boradi. Qarzdor (kafil, garov egasi) bilan telefon orqali bog‘lanish imkoniyati bo‘lmagan hollarda «Soft collection» bo‘limi xodimlari tomonidan qarzdor (kafil, garov egasi)ga 1 ish kunidan keyin takroriy qo‘ng‘iroq amalga oshiriladi. Ushbu holat 2 martadan ko‘p qaytarilgan taqdirda «Skiptracing» jarayoni boshlanadi.

Kredit qarzdorliklarini sudgacha majburiy undirish (“Hard collection” ilova MS Visio) bosqichida filial mas’ul bo‘limi xodimlari qazdor, kafil va garov egasining yashash, ish joylariga borib, kredit qarzdorliklarini undirish bo‘yicha ishlarni olib boradi (korporativ biznes segment mijozlaridan tashqari). Dasturiy ta’minot “Hard collection” bosqichiga o‘tgan qarzdorlarni filial mas’ul bo‘limi xodimlari o‘rtasida avtomatik ravishda taqsimlaydi. Bunda dasturiy ta’minotga ma’lumotlarni to‘g‘ri va to‘liq kiritish bo‘yicha filial mas’ul hisoblanadi. Taqsimlangan kundan boshlab 1 ish kun mobaynida mas’ul bo‘lim xodimlari qarzdorga uning manzilini aniqlashtirish va uchrashuvni belgilash uchun qo‘ng‘iroq qilishadi. Undan tashqari qarzdorlikni undirish “Hard collection” bosqichiga o‘tgandan so‘ng, unga filial mas’ul bo‘lim xodimi mavjud muddati o‘tgan qarzdorlik

borligi, uni to‘lash zarurligi va oqibatlari to‘g‘risida qazdor (kafil, garov egasi)ga muddati o‘tgan qarzdorlik vujudga kelgan kunidan 31, 61 va 91-kunlari ogohlantirish xatlarini yuboradi. Shundan so‘ng yakuniy talabnoma (ogohlantirish) qarzdor (kafil, garov mulki egasi)ga qarzdor “Legal collection” bosqichiga o‘tishidan 15 kun oldin beriladi. Garovga qo‘yilgan (suddan tashqari tartibda undiruv qaratilmagan) mol-mulklar qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa bitimlar orqali realizatsiya qilinishi mumkin. Sotuvdan kelib tushgan pul mablag‘lari kredit qarzdorliklarini so‘ndirishga yo‘naltiriladi va bunda garov mulklari to‘liq kredit so‘ndirilmagunga qadar taqiqdan chiqarilmaydi. Kredit qarzdorliklarini sud orqali undirish (“Legal collection” ilova MS Visio) bosqichida uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha 90 kun (qisqa muddatli kreditlar – 60 kun)gacha bo‘lgan muddatda muammoli qarzdorlik undirilmagan taqdirda mas’ul bo‘lim xodimi kredit yig‘majildi hujjatlarini elektron yoki bir nusxasini 3 ish kuni davomida taqdim etishni so‘rab, kreditlarni boshqarish bo‘limiga yozma murojaat qiladi. So‘ralgan hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmasa yoki hujjatda kamchiliklar borligi shubhasi mavjud holda filial rahbari va Komplayens nazorat xodimiga ma’lumot kiritadi. Bank tizimida davlat ulushi mavjud tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etadi va ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda va barqarorlikka erishishda hissa qo‘shishdir. Bugungi kunda ushbu tijorat banklari turli sohalarni, jumladan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalarini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. B.O.Tursunov, Sh.T.Ergasheva, (2021) Biznes qiymatini baholash. O‘quv qo‘llanma.
2. Arzikulov, O., To‘ychiyev, D. “Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish yo‘llari.” International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023). – P. 158–167.
3. Norov, A., Shaxiddinonov, S., Norova, N. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlaritijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlari. Приоритетние направления, современние тенденции и перспективи развития финансого рынка. 2023. – 134–135-betlar.
4. Bekjon Bo‘ron o‘g‘li N. Tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar va ularning tahlili. Gospodarka i Innowacje. 2023. – C. 340–346.
5.Olqarova Z., Boyev B. Tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi va ularni takomillashtirish masalalari. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(5), 2022. – 56–65-betlar.
6. Ergasheva, L. Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. Innovative Development in Educational Activities, 2(5), 2023. – 299–302-betlar.
7 S. Z. Ravshan o‘g‘li Banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi. Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research, 1(9), 2023. – 328–333-betlar.

8. Zokirova, D. I. Tijorat banklarining muammoli kreditlari tahlili va uni bartaraf etish usullari. Results of National Scientific Research International Journal, 2(1), 2023. – 322–329-betlar.
9. Acharya, Viral V., et al. “Whatever it takes: The real effects of unconventional monetary policy.” The Review of Financial Studies 32.9 (2019). – P. 3366–3411.
10. Berger, Allen N., and Robert DeYoung. “The effects of geographic expansion on bank efficiency.” Journal of financial services research 19 (2001). – P. 163
11. Maxmudov R.H “Tijorat banklarida muammoliy kreditlar bilan ishlash mexaanizmlari’’ PhD dissertatsiya 2024 yil.

“OLMALIQ KMK”AJNING YASHIL INVESTITSION VA YASHIL STRATEGIK HOLATINI BAHOLASH

TDTU mustaqil tadqiqotchisi Ramatov Zafarbek

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda “Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida olib borgan faoliyati, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari, yashil investitsion strategiyalari va sirkulyar iqtisodiyotni joriy etish tajribalari tahlil qilingan. Ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash infratuzilmasi va yashil energiya manbalariga o‘tish jarayonlari raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholangan. Yashil iqtisodiy mehnat samaradorligi, ekologik xarajatlar, energiya tejash darajasi hamda innovatsion faoliyatning iqtisodiy natijalari asosida barqaror rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot "O‘zbekiston-2030" strategiyasi va xalqaro ekologik tamoyillar bilan uyg‘un ravishda olib borilgan bo‘lib, amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: Yashil investitsiyalar, sirkulyar iqtisodiyot, texnologik samaradorlik, ekologik xarajatlar, qayta ishlash, uglerod neytralligi, energiya tejamkorlik, barqaror rivojlanish, yashil strategiya, resurs boshqaruvi.

Kirish. Zamonaviy sanoat korxonalari uchun yashil investitsiyalar va yashil strategiyalarni shakllantirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Global ekologik muammolar ortib borayotgan bir sharoitda, sanoat tarmoqlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini kamaytirish va atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish yo‘lida innovatsion yechimlarni izlashga majbur. Ayniqsa, tog‘-kon va metallurgiya sanoati ekologik yuklamasi yuqori bo‘lgan sektor hisoblanib, u yashil o‘sish tamoyillarini joriy etish bo‘yicha strategik yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, “Olmaliq KMK” AJ ning yashil investitsion va strategik holatini baholash kompaniyaning barqaror rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qilish, uning ekologik transformatsiya yo‘nalishlarini

aniqlash va kelajak strategiyalarini optimallashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot doirasida foydalanilgan adabiyotlar milliy va xalqaro manbalarga tayanadi. Jumladan, “Yevropa Ittifoqining Yashil Bitimi”, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”, “ISO 14001: Environmental Management System” va “Parij bitimi” doirasidagi xalqaro tajribalarga asoslanilgan. Bu manbalar orqali yashil iqtisodiy faoliyatning standartlari, energetika samaradorligi va ekologik innovatsiyalarni joriy etish tajribalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Skandinaviya davlatlarining chiqindilarni qayta ishlash va sirkulyar iqtisodiyotni joriy etishdagi ilg‘or tajribasi tahlil qilinib, “Olmaliq KMK” AJ faoliyatida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, komparativ (taqqoslama) yondashuv va grafik-analitik usullar qo‘llanildi. 2019–2024-yillarga oid ko‘rsatkichlar asosida dinamik tahlil olib borilib, sirkulyar iqtisodiyot va yashil samaradorlik indekslari o‘zgarishi izchil kuzatildi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida “Olmaliq KMK” AJ faoliyatining har bir tarkibiy bo‘g‘iniga (ishlab chiqarish, texnologiyalar, chiqindilar, energiya, mehnat resurslari) alohida baho berildi. Raqamli transformatsiya va ekologik strategiyalarning korxona faoliyatiga integratsiyalashuvi model asosida o‘rganildi.

Tahlil va natijalar: “Olmaliq KMK” AJ o‘zining ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha mintaqadagi eng yirik sanoat subyektlaridan biri bo‘lib, uning faoliyati ekologik omillar bilan chambarchas bog‘liq, buning uchun yashil ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash talab etiladi (1-jadval).

"Olmaliq KMK" AJning yashil ishlab chiqarish samaradorligi (Gi) ko‘rsatkichi 2019-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda 2,2 foizdan 4,7 foizgacha ortgan bo‘lib, bu davr mobaynida sezilarli o‘sishni aks ettiradi. Ayniqsa, 2023-yildan 2024-yilga o‘tishda 0,9 foizlik o‘sish kuzatilgan bo‘lib, bu jarayon ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashtirilishi, ekologik strategiyalar joriy etilishi va tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu

dinamikani O‘zbekistonning "2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasi"[1] doirasida amalga oshirilayotgan sanoatni yashillik tamoyillariga asoslangan holda rivojlantirish harakatlari bilan ham izohlash mumkin.

1-jadval

“Olmaliq KMK” AJning yashil ishlab chiqarish samaradorligi ko’rsatkichi (2019-2024 yy)

Ko’rsatkich nomi	O’l.birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Yashil ishlab chiqarish samaradorligi (Gi)	foiz	2,2	2,3	3,7	3,6	3,8	4,7
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Pt)	foiz	19077,8	21048,9	29097,2	28173,0	29907,0	34631,0
Energiya samaradorligi (Rt)	foizda	101,5	100,9	102,1	102,3	102,4	103,2
Resurs iste'moli (Er)	foiz	94,5	105,3	106,2	104,9	104,9	107,6
Tiklangan resurslar (Rt)	mlrd. so'm	26,2	27,0	26,2	22,5	27,3	27,3
Umumiy chiqindi ulushi (Wt)	tonna yil	25,7	29,0	39,9	37,8	39,4	43,9

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Pt) 2019-yildagi 19 077,8 foizdan 2024-yilda 34 631 foizgacha ortgan bo‘lib, bu ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va talabning ortib borayotganligini anglatadi. Biroq, 2021-yildan 2022-yilga o‘tishda mahsulot hajmining pasayishi (29097,2 dan 28173,0 gacha) kuzatilgan bo‘lib, bu pandemiya davridagi global ta’minot zanjirlarining buzilishi yoki

energetika ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu tahlil xalqaro iqtisodiy tendensiyalarni ham inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur bo‘lib, xususan, xalqaro bozor sharoitlariga tez moslashish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali barqaror o‘sishni ta’minlash maqsadga muvofiq.

Energiya samaradorligi (Rt) 2019-yildagi 101,5 foizdan 2024-yilda 103,2 foizgacha oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichning muttasil yaxshilanib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2020-yilda 100,9 foizga tushganligi kuzatiladi, bu esa ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi kechikishi yoki global pandemiya davrida ishlab chiqarish hajmi pasayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Energiya samaradorligini yanada oshirish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarur. Shu nuqtai nazardan, "Yevropa Ittifoqining Yashil Bitim"[3] strategiyasiga mos ravishda, sanoat korxonalarida uglerod neytralligiga erishish va energiya samaradorligini oshirish strategik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Resurs iste’moli (Er) ko‘rsatkichi esa 2019-yildagi 94,5 foizdan 2024-yilda 107,6 foizgacha o‘sib, ishlab chiqarish jarayonida resurslarga bo‘lgan talabning ortganligini ko‘rsatadi. 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 105,3 foizgacha keskin oshgan bo‘lsa, keyingi yillarda 104,9 foiz atrofida barqarorlashgan. Biroq, 2024-yilda yana sezilarli o‘sish kuzatilgan. Bu esa ishlab chiqarish hajmining kengayishi va resurslar iste’molidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish, xomashyo isrofini kamaytirish va resurslarni qayta ishlash ko‘lamini kengaytirish kabi chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Tiklangan resurslar (Rt) hajmi 2019-yilda 26,2 mlrd so‘m bo‘lib, 2020-yilda 27,0 mlrd so‘mgacha ko‘tarilgan. Biroq, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 22,5 mlrd so‘mgacha kamaygan, 2023-2024-yillarda esa yana 27,3 mlrd so‘mgacha o‘sgan. Ushbu tendensiya ekologik barqarorlik va chiqindilarni qayta ishlashga

yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar bilan izohlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida ikkilamchi xomashyodan foydalanish ulushini oshirish va chiqindilardan iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim. Bunday yondashuv dunyo bo‘ylab keng tarqalgan "doiraviy iqtisodiyot"[2] konsepsiyasiga ham mos keladi.

Umumiy chiqindi ulushi (Wt) esa 2019-yildagi 25,7 tonnadan 2024-yilda 43,9 tonnagacha ortgan bo‘lib, bu davr mobaynida chiqindilar hajmining ko‘payishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2020-2021-yillardagi o‘sish juda sezilarli bo‘lib, ushbu davrda chiqindilar 29,0 tonnadan 39,9 tonnagacha oshgan. Bu ishlab chiqarish hajmining oshishi va resurslardan foydalanish darajasining ortishi bilan bog‘liq. Shu bois, chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash samaradorligini oshirish yo‘nalishida xalqaro tajribaga asoslangan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Xususan, “BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG 12 – mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish) doirasida chiqindilarni minimallashtirish va ekologik barqarorlikni oshirish muhim strategik ustuvorlik hisoblanadi”[16].

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, "Olmaliq KMK" AJ uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin:

1. yashil ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ilg‘or ekologik texnologiyalarni joriy etish va uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha xalqaro talablar bilan uyg‘un chora-tadbirlarni amalga oshirish;
2. energiya samaradorligini oshirish va energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish orqali ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish;
3. chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish, xomashyo sarfini optimallashtirish va qayta ishlangan materiallardan foydalanish hajmini oshirish; 4. xalqaro standartlarga mos ekologik audit tizimini shakllantirish va ekologik me’yorlarga rioya qilishni kuchaytirish;

[16] UN Sustainable Development Goals, un.org

5. ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt asosida resurslarni boshqarish tizimlarini keng joriy etish;

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi "Olmaliq KMK" AJning yashil sanoatga o‘tishini tezlashtirishi, raqobatbardoshligini oshirishi va global ekologik me’yorlarga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirishiga xizmat qiladi.

1-jadval “Olmaliq KMK” AJning sirkulyar iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichi[17]

Ko’rsatkich nomi	O’l.birlik	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Sirkulyar iqtisodiy samaradorlik	Foiz	0,04	0,96	0,84	0,95	0,02	0,02
Qayta ishlangan materiallar (Mr)	Tonna/ yil	0,89	22,68	24,52	29,50	0,91	0,95
Qayta ishlash jarayonidagi yo'qotishlar (Wl)	Foiz	57	57	54	52	48	47
Umumiy materiallar (Mt)	Mln.tonn a	102,5	103,8 2	109,5	109,1	112,2	116,3 1
Resurslar yo'qotilishi (Rl)	Foiz	12	11	10	9	8	7
Ekologik xarajat ulushi (Er)	Млн сум	2641 0	2607 8	2917 1	2791 6	3502 3	3502 6

2019-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda sirkulyar iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi (foiz) sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Xususan, 2019-yildagi 0,0389% darajasidan 2020-yilda 0,9551% gacha keskin o‘sish kuzatilgan, keyinchalik esa 2021-yilda 0,8393% ga pasaygan. 2022-yilda yana 0,9495% ga oshgan bo‘lsa-da, 2023 va 2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich keskin pasayib, atigi 0,0195% va 0,0176% ni tashkil etdi. Bunday o‘zgarishlarga iqtisodiyotda resurslarning qayta ishlanishi va ulardan samarali foydalanish darajasining beqarorligi sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga muvofiq harakat qilish zarur.

[17] Muallif hisob-kitoblariga ko’ra shakllantirildi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qayta ishlangan materiallar hajmi 2019-yildagi 0,8916 mln tonnadan 2022-yilda 29,502 mln tonnagacha o‘sgan, ya’ni deyarli 33 barobar ko‘paygan. Ushbu holat qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanishi, chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish jarayonining takomillashishi bilan izohlanadi. Biroq, 2023-yilda qayta ishlangan materiallar hajmi 0,912 mln tonnaga, 2024-yilda esa 0,9456 mln tonnaga tushib ketgan. Bu esa sirkulyar iqtisodiyotning beqarorligini va ishlab chiqarish sohalarida qayta ishlash tizimining sustlashganini ko‘rsatadi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, Skandinaviya mamlakatlari bu borada kuchli siyosat yuritib, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 90% dan oshirishga muvaffaq bo‘lishgan.

2019-yilda qayta ishlash jarayonidagi yo‘qotishlar 57% ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 47% gacha kamaygan. Xususan, 2021-2024-yillarda yo‘qotishlar izchil pasayib borgan. Ushbu tendensiya ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi va resurslarni optimallashtirish choralarining ko‘rilganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, 47% darajasidagi yo‘qotishlar hali ham yuqori bo‘lib, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida chiqindilarni qayta ishlashga doir ilg‘or xalqaro standartlarni joriy qilish va investitsiyalarni oshirish zarur.

2019-yildan 2024-yilgacha umumiy materiallar hajmi 102,534 mln tonnadan 116,3088 mln tonnaga yetgan, ya’ni 13,5 mln tonnaga yoki 13% ga ortgan. Ushbu o‘sish iqtisodiyotning kengayishi, sanoat ishlab chiqarishining oshishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ekologik bosimni ham oshirishi mumkin. Jahon tajribasidan kelib chiqib, barqaror resurslardan foydalanish strategiyasi ishlab chiqilmasa, material iste’molining ortishi uzoq muddatda ekologik va iqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. “O‘zbekiston 2030 strategiyasi” doirasida resurslarni tejash va ekologik zararlarni kamaytirish bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim.

Resurslar yo‘qotilishining 2019-yildagi 12% dan 2024-yilda 7% gacha pasayishi iqtisodiy va texnologik samaradorlik oshib borayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, 2021-2024-yillarda bu ko‘rsatkich keskin kamaygan. Resurslar yo‘qotilishining kamayishi ishlab chiqarishning ichki samaradorligi oshayotganini bildirsa-da, hali ham rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetmagan. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonlarida bu ko‘rsatkich 3-5% oralig‘ida bo‘ladi. Shu sababli, O‘zbekistonda ishlab chiqarish va resurs boshqaruvi texnologiyalarini modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali uskunalarga sarmoya kiritish zarur.

Ekologik xarajatlarning 2019-yildagi 26,410 mln so‘mdan 2024-yilda 35,026 mln so‘mga ortishi tabiatga yetkazilgan zarar va ularni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga bog‘liq. Xususan, 2023-yilda ushbu xarajatlar keskin oshib, 35,023 mln so‘mni tashkil etgan, bu esa davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shimcha investitsiyalar jalb etilganini ko‘rsatadi. Biroq, bu xarajatlarning natijadorligi ham muhim bo‘lib, ular atrof-muhitga salbiy ta’sirni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Xalqaro amaliyotga muvofiq, ekologik soliq tizimini joriy qilish va ekologik toza texnologiyalarni subsidiyalash ushbu xarajatlarni samaraliroq yo‘naltirishga imkon beradi.

Yashil innovatsiyalar faoliyati bugungi kunga kelib ishlab chiqaruvchilarning “brend”ini ta’minlashda PR kontent sifatida ishlatiladigan darajada muhim bo’lmoqda. Buning asosiy boisi shundaki, korxonalarning mijozlari va asosiy xaridorlarning kontingenti tabiatni asrash va ekologik toza mahsulot sifatida buyumlarni xarid qilishni ancha yuqori baholaydilar. Bu o’z navbatida korxonaning mijozlar ishonchini qozonish orqali fidokorligiga erishishga intilashadi. Qolaversa, bu kamxarj, tejamkor hamda tabiatning yashilligini saqlab qolishni qo’llab-quvvatlashga xizmat qiladi. bu holat “Olmaliq KMK” AJda qo’llab-quvvatlanishi uchun yashil innovatsiyalar bilan bog’liq masalani ko’ndalang qiladi. uning holatini aniqlagan holda yashil innovatsiyalar bilan bog’liq texnologik ssenariy tuzish mumkin (2-jadval).

2-jadval “Olmaliq KMK” AJning yashil innovatsion faoliyati samaradorligi tahlili (2019-2024 yy)

Korsatkich	Yashil innovatsiyalar samaradorligi	Innovatsiyalar daromadi (Ii)	Texnologiya samadorli gi (Tf)	Innovatsiyalar xarajati (Ti)	Resurs tejash daraja si (Re)	Ekologik energiy a (en)
Yillar	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd.so'm	mlrd. so'm	foiz	kvt
2019	65604,11	64,8	101240,9	92,2	11,3	580000
2020	68802,84	62,05	110882,9	19,5	3,2	580000
2021	71471,27	59,3	120524,9	63,6	3	580000
2022	77338,42	61,7	125345,9	93,2	3	580000
2023	58719,73	43,5	134987,9	19,5	3,4	580000
2024	80469,17	56,2	143183,6	64,6	12,1	580000

Tahlil qilinayotgan yillar davomida yashil innovatsiyalar samaradorligi sezilarli tebranishlarga duch kelgan. 2019 yilda bu ko‘rsatkich 65,604.11 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 80,469.17 mlrd so‘mga yetgan. 2023 yilda esa sezilarli pasayish (58,719.73 mlrd so‘m) kuzatilgan bo‘lib, bu asosan innovatsiyalar xarajatlarining keskin kamayishi (19,5 mlrd so‘m) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi texnologik modernizatsiya jarayonlari, resurslarni tejash choralari va ekologik innovatsiyalarning samaradorlik darajasi bilan bog‘liq ekanligi kuzatiladi. Bunda innovatsion samaradorlikni barqaror oshirib borish uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xorijiy tajribalarni joriy etish va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Innovatsiyalar daromadining tahlili2019-2024 yillarda innovatsiyalar daromadi 64,8 mlrd so‘mdan 56,2 mlrd so‘mga tushgan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 43,5 mlrd so‘mgacha kamaygan bo‘lib, bu yildagi umumiy samaradorlikning pasayishi bilan bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu pasayish texnologik samaradorlikning ortishiga qaramay sodir bo‘lgan, ya’ni mavjud texnologiyalarning iqtisodiy jihatdan

to‘liq realizatsiya qilinmaganligini anglatadi. Innovatsiyalardan olinadigan daromadni oshirish uchun yangi bozor segmentlariga chiqish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Texnologiya samaradorligi bo‘yicha barqaror o‘sish kuzatilmoqda, jumladan, 2019 yilda 101,240.9 mlrd so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 143,183.6 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida resurslarning yanada samarali ishlatilayotganini hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinayotganini ko‘rsatadi. 2023 yilda innovatsion xarajatlarning keskin kamayishi (19,5 mlrd so‘m) texnologik samaradorlikka jiddiy ta’sir qilmagan, bu esa oldingi yillarda amalga oshirilgan texnologik modernizatsiyaning ijobiy natijasidir. Shunga qaramasdan. texnologik samaradorlikni oshirish bo‘yicha global tajribadan foydalanish, xususan, "O‘zbekiston-2030" strategiyasi doirasida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va mahalliy ilmiy tadqiqotlarga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyalar xarajatlari va ularning o‘zgarishiInnovatsiyalar xarajati 2019 yilda 92,2 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 64,6 mlrd so‘mga tushgan. 2020 va 2023 yillarda esa ushbu xarajatlar 19,5 mlrd so‘mgacha kamaygan, bu esa innovatsion loyihalarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishida noaniqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, texnologiya samaradorligining oshishi ushbu investitsiyalar nisbatan kam bo‘lishiga qaramay, samaradorlikni oshirishga yordam bergan. Bu holatda tavsiya sifatida innovatsiyalarni moliyalashtirishni barqarorlashtirish uchun davlat dasturlarini kengaytirish, bank sektorining uzoq muddatli investitsiyalar bilan ta’minlashga qaratilgan mexanizmlarini kuchaytirish lozim sanaladi.

Resurs tejash darajasi 2019 yilda 11,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-2023 yillar oralig‘ida ushbu ko‘rsatkich 3 foiz atrofida saqlanib qolgan. 2024-yilga kelib esa 12,1 foizga ko‘tarilgan, bu esa resurslarni samarali boshqarish choralari va yangi ekologik texnologiyalar joriy etilgani bilan bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning ekologik mas’uliyatini kuchaytirish tendensiyasini aks ettiradi. Resurs

tejash darajasini yuqori darajada saqlash uchun xalqaro ekologik standartlarga muvofiq texnologik modernizatsiyani davom ettirish va yashil energiya manbalariga o‘tish bo‘yicha amaliy qadamlarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Ekologik energiya iste’molining barqarorligi tahlil qilingan davrda ekologik energiya iste’moli 580,000 kVt darajasida saqlanib qolgan. Bu ko‘rsatkichning o‘zgarmaganligi korxonaning energiya ta’minoti bo‘yicha barqaror strategiyasini ko‘rsatadi. Biroq, global tendensiyalar va milliy strategiyalarni inobatga olgan holda, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasini oshirish talab etiladi. Shunga ko’ra, O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi doirasida quyosh va shamol energiyasidan foydalanish ulushini oshirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni moliyalashtirish muhimdir.

3-jadval

“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy samaradorlik indeksi (2019-2024 yy)

Ko’rsatkich	O’l.birlik	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Yashil samaradorlik indeksi	foiz	0,069	0,07	0,07	0,43	1,812371	38,3
Tejalgan energiya (En)	Kvt	356	345	450	1700	9041	193488
Ishlab chiqarish samaradorligi (Pf)	Foiz	106,8	115,9	104,7	108,3	104	110,2
Resurs iste'moli (Rc)	Foiz	94,50	105,3	106,20	104,85	104,9423	107,55
Texnologiya samaradorligi (Te)	Foiz	101,24	102,01	101,24	102,78	106,6404	117,41
Chiqindilar ulushi (Wt)	Tonna. Yil	12495	12762	14786	11519	11809	12821
Ekologik xarajat (Er)	Mln.so'm	31,69	31,29	35,01	33,5	42,0276	42,03

Yashil iqtisodiy samaradorlik indeksi tahlili doirasida 2019-2024-yillardagi dinamikaga e’tibor qaratish lozim. 2019-2021-yillarda indeks deyarli o‘zgarmasdan

qolib, 0,069-0,07 oralig‘ida saqlanib qolgan. Biroq, 2022-yilda 0,43 ga, 2023-yilda esa 1,812371 ga keskin oshishi kuzatilgan, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 38,3 ga yetib, beqiyos o‘sishni qayd etgan. Bu holatning asosiy sababi sifatida resurs tejamkorlik va texnologiya samaradorligining oshgani hamda energiya tejash mexanizmlarining joriy etilganini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, "O‘zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasi doirasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham muhim omil bo‘lgan[10;1].

Energiya tejash ko‘rsatkichlariga nazar solsak, 2019-2021-yillarda u nisbatan past darajada qolgan bo‘lsa (345-450 KVt), 2022-yilda 1700 KVt ga oshgan, 2023-yilda esa 9041 KVt ni tashkil etgan. 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich keskin o‘sib, 193488 KVt ga yetgan. Bu esa korxonada resurs tejamkor texnologiyalarning keng joriy etilayotganidan dalolat beradi. Bunday tendensiyani davom ettirish maqsadga muvofiq, chunki energiya tejash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki atrof-muhitga ta’sirni ham pasaytiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligi 2019-2024-yillarda keskin o‘zgarishlarga uchramagan bo‘lsa-da, 2020-yilda 115,9% ga o‘sgani, 2021 va 2023-yillarda esa mos ravishda 104,7% va 104% ga pasaygani kuzatilgan. Bu, ehtimol, xomashyo ta’minotidagi o‘zgarishlar va bozor talablarining o‘zgarishi bilan bog‘liq. 2024-yilda 110,2% ga ko‘tarilishi esa yangi texnologiyalarning qo‘llanilishi va ichki tarmoq samaradorligining oshishi bilan bog‘liq. Bunday barqaror o‘sishni ta’minlash uchun xalqaro tajribalardan foydalanish, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qabul qilingan "Yashil kelishuv" dasturi asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish taklif qilinadi.

Resurs iste’moli ko‘rsatkichi esa 2019-yilda 94,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘sib, 2024-yilda 107,55% ga yetgan. Bu korxona tomonidan resurs tejashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Biroq, resurs iste’molidagi bu o‘sish hajmi ayrim holatlarda barqaror rivojlanish tamoyillariga zid bo‘lishi mumkin, shuning uchun innovatsion resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish tavsiya etiladi.

Texnologiya samaradorligi 2019-yilda 101,24% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 117,41% ga yetgan. Bu esa investitsiyalar samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasidir. Shuni ta’kidlash joizki, texnologik modernizatsiyaning davom ettirilishi ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ham ekologik ta’sirni pasaytiradi. Shuning uchun, xorijiy tajribalarni o‘rganib, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish dolzarb sanaladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "Olmaliq KMK" AJda yashil iqtisodiy samaradorlik indeksi jadal o‘sishga erishgani kuzatilmoqda. Bu holat resurs tejamkorlikka, texnologik modernizatsiyaga va ekologik investitsiyalarga doir strategiyalarning to‘g‘ri amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida, korxona xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirishi, shuningdek, O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlar doirasida ish olib borishi tavsiya etiladi.

4-jadval “Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy mehnat faoliyati

	Yashil mehnat samaradorligi	Ishlab chiqarish samaradorligi (Wp)	Texnologik samaradorlik (Te)	Ish kuchi (L)	Resurs tejamkorligi (Re)	Qayta ishlash (Wr)	Ishlab chiqarish hajmi o'sishi (Pt)
	mlrd so'm	foiz	mlrd so'm	nafar	foiz	tonna/ yil	foiz
2019	2157,2	106,8	101241	37561	11,3	0,9	6,8
2020	4211,6	115,9	110883	36863	3,2	22,7	11,2
2021	1850,5	104,7	120525	38489	3	24,5	4,7
2022	3041,7	108,3	125346	38907	3	29,5	7,8
2023	3418,4	104	134988	35826	3,4	0,9	7,8
2024	4109,3	110,2	143184	38023	12,1	0,9	9,2

Olmaliq KMK AJning 2019–2024 yillardagi yashil iqtisodiy mehnat faoliyatiga oid statistik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligi (Wp) ko‘rsatkichida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 2019-yilda 2157,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bu ko‘rsatkich 2020-yilda 4211,6 mlrd so‘mga

yetgan bo‘lsa-da, 2021-yilda keskin pasayib, 1850,5 mlrd so‘mga tushgan. 2022-yildan boshlab esa bu o‘sish tiklanib, 2024-yilda 4109,3 mlrd so‘mga yetgan. Bunday o‘zgarishlarning asosiy sabablaridan biri global iqtisodiy o‘zgarishlar, mahalliy va xalqaro bozorlardagi talabning o‘zgarishi hamda texnologik modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Maqsadga muvofiq ravishda, yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirish va barqaror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun “O‘zbekiston 2030”[1] taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar doirasida qo‘shimcha investitsiyalar jalb etilishi tavsiya etiladi. Texnologik samaradorlik (Te) ko‘rsatkichida ham muhim o‘zgarishlar kuzatiladi. U 2019-yilda 101241 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 134988 mlrd so‘mga yetib, 2024-yilda 143184 mlrd so‘mga yetdi. Bunday dinamik o‘sish ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va innovatsion texnologiyalar joriy etilishi natijasidir. Xususan, 2020-yilda texnologik samaradorlikning keskin oshishi pandemiya sharoitida kompaniyaning moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishi va innovatsion resurslarni ko‘paytirishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu tendensiyaning barqaror davom etishi uchun korxonaning raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarga yanada ko‘proq e’tibor qaratishi dolzarb sanaladi.

Ish kuchi (L) ko‘rsatkichini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda 37561 nafar bo‘lgan ishchilar soni 2023-yilda 35826 nafarga tushib, 2024-yilda yana 38023 nafarga yetgan. Bu o‘zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashuvi va avtomatlashtirilishining ta’sirini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lib, bandlik darajasining keskin kamayishining oldini olish maqsadida, kompaniya ekologik innovatsiyalar sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqishi tavsiya etiladi. Shu nuqtai nazardan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha Parij bitimi”[5]ning tavsiyalariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Resurs tejamkorligi (Re) ko‘rsatkichi 2019-yilda 11,3% bo‘lib, 2020-yilda 3,2% ga tushgan va 2024-yilda yana 12,1% ga ko‘tarilgan. Ushbu ko‘rsatkichning

o‘zgarishi ekologik samaradorlik va ishlab chiqarishdagi chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar bilan bog‘liq. 2020–2023-yillarda resurs tejamkorligining past darajada bo‘lishi ishlab chiqarish jarayonlarining qayta qurilishi va yangi ekologik standartlarga moslashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2024-yilda bu ko‘rsatkichning oshgani korxonada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan islohotlarning ijobiy natijalarini ko‘rsatadi. Kelgusida kompaniyaning energiya samaradorligi va resurs tejamkorligi bo‘yicha global tajribalarni o‘zlashtirishiga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

Qayta ishlash (Wr) ko‘rsatkichi 2019 va 2023-yillarda 0,9 tonna/yil bo‘lsa, 2020-yilda 22,7 tonna/yil, 2021-yilda 24,5 tonna/yil, 2022-yilda 29,5 tonna/yilga yetgan. Bu o‘sish atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi innovatsiyalar joriy etilishi bilan bog‘liqdir. 2023-yilda qayta ishlash ko‘rsatkichi keskin pasayib, yana 0,9 tonna/yil darajasiga qaytgan, bu esa kompaniyaning qayta ishlash jarayonlarini yetarlicha barqarorlashtira olmaganligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, korxona chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etishi tavsiya etiladi.

Ishlab chiqarish hajmi o‘sishi (Pt) bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2019-yildagi 6,8% darajasidan 2020-yilda 11,2% gacha o‘sish kuzatilgan, lekin 2021-yilda bu ko‘rsatkich 4,7% ga pasaygan. 2022-yildan boshlab o‘sish barqaror tus olib, 2024-yilda 9,2% ga yetgan.

Bunday o‘zgarishlarning sababi iqtisodiy sikllar, talab va taklif o‘zgarishlari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi bilan bog‘liqdir. Kompaniyaning ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish uchun, u yangi bozorlarni o‘zlashtirish va xalqaro savdo hamkorliklarini rivojlantirish strategiyalariga ko‘proq e’tibor qaratishi ijobiy natijalar berishi kutiladi.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Olmaliq KMK AJ yashil iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish, ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish va xalqaro me’yoriy-huquqiy standartlarga muvofiq strategiyalar ishlab chiqish orqali kelgusida barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi haqidagi Farmoni. Lex.uz portali.
2. Yevropa Ittifoqi “Green Deal” – Yashil bitim strategiyasi. European Commission Official Site.
3. ISO 14001: Environmental management systems — Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization.
4. United Nations. Sustainable Development Goals (SDG 12): Responsible Consumption and Production.
5. OECD. Green Growth Indicators 2022. Organisation for Economic Co-operation and Development.
6. World Economic Forum (WEF). Circular Economy in the Mining and Metals Industry – Global Reports.
7. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Energy Statistics, 2023.
8. World Bank. Green Economy Policies and Private Sector Engagement in Transition Economies.
9. GIZ (Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit). Sustainable Resource Management in Central Asia.
10.Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. Rasmiy hisobotlar.

VII.Moliyaviy texnologiyalar va raqamli moliyalashtirish (FinTech)

BANKLARNING AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNING TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI

Bank Moliya Akademiyasi magistranti Atajonov Alisher

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish jarayonini takomillashtirish bosqichlari hamda ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvlar tizimli o‘rganiladi. Xususan, bank faoliyatini optimallashtirishda qo‘llanilayotgan risklarni boshqarish, kapital va likvidlikni boshqarish usullari tahlil qilinadi, xorijiy banklarning ilg‘or tajribalari bilan solishtirma tahlillar amalga oshiriladi. Shuningdek, aktiv va passivlarni boshqarishda uchraydigan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy va strategik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar : Bank aktivlari, bank passivlari, risklarni boshqarish, kapitalni optimallashtirish, likvidlik, aktiv-passiv boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik, bank ishi, xorijiy tajriba, tijorat banklari, resurslar muvozanati, strategik boshqaruv.

Kirish. Bank faoliyatini boshqarishning usullarini doimiy takomillashtirimasligi oqibatida, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki rivojlangan mamlakatlar banklari ham iqtisodiy inqirozga yuz tutishi tabiiydir. Buga XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo, Lotin Amerikasi, G‘arbiy Yevropa, Rossiya moliya tizimi hamda, 2008-yil sentabrda AQSh moliya tizimida bo‘lib o‘tgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yaqqol misol bo‘la oladi. Tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarishning zamonaviy vositalarini aniqlanishi va bank amaliyotiga tatbiq etilishi ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Ammo keyingi yillarda bu sohada hali yechilishi lozim bo‘lgan masalalar talaygina. Buning asosiy sabablari, xalqaro va mahalliy banklar amaliyotida tijorat banklarning resurslarini boshqarish masalasi yetarlicha o‘rganilmaganligidadir. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar mavjud. Birinchidan, 1950–1960-yillarda iqtisodiyotda va xalqaro moliya bozorlarida arzon moliyaviy resurslarning yetarli

darajada mavjudligi banklar uchun resurslarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha muammolar tug‘dirmagan.

Ikkinchidan, mavjud iqtisodiy sharoit tijorat banklariga mijozlar va aholining bo‘sh pul mablag‘larini muddatli depozitlarga past foizlar asosida jalb qilish imkoniyatini bergan. Banklar ushbu yo‘l bilan jalb qilgan arzon mablag‘lar hisobidan yetarli darajada daromadlarni shakllantirganlar, o‘z navbatida, ularda resurslarni boshqarish ehtiyojini keltirib chiqarmagan, chunki muddatli depozitga jalb qilingan mablag‘lar tijorat banklariga barqaror kredit resurslari bazasini yaratish va barqaror foyda olish uchun xizmat qilgan. Uchinchidan, tijorat banklar hukumat va Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan ishonchli va yuqori foizli qimmatli qog‘ozlarga ega bo‘lishi ularning qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini zudlik bilan qondirish imkoniyatini bergan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o‘sishga erishishda banklarning resurslarini samarali boshqarish muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklarni moliyaviy barqaror resurslar bilan ta‘minlash muammosi bank resurslarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqargan asosiy omillardan biri hisoblanadi.[1]

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodchi olim V.Ususkin o‘zining “Современный коммерческий банк: управление и операции” nomli monografiyasida tijorat banklari aktivlarining asosiy turlari bo‘lgan kreditlar va kassali aktivlarning sifatini oshirish masalasiga alohida e’tibor bergan. V.Ususkin kredit portfelini sifatini oshirish maqsadida mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholash tizimini takomilashtirishni, kredit portfelini shakllantirishda diversifikatsiya prinsipiga qattiq rioya etishni taklif qiladi. [2] AQSHlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlarini ikki guruhga ajratadi[3]: 1. Kassali aktivlar. 2. Ikkilamchi zaxiralar. Dolan E. kassali aktivlar tarkibiga tijorat banklarining kassasidagi naqd pullarni, ularning Markaziy bankdagi “Nostro” vakillik hisobraqamining qoldig‘ini, tijorat banklarining boshqa tijorat banklaridagi “Nostro” vakillik hisobraqamlarining qoldiqlarini va inkassatsiya jarayonidagi pul mablag‘larini kiritadi. Xalqaro amaliyotda aktivlarning mohiyati keng ma’noda

avval amalga oshirilgan operatsiyalar, mol-mulk xarid etish yoki o‘z mol-mulkini uchinchi shaxslarga vaqtincha foydalanishga berishlik natijasida kelajakda olinadigan iqtisodiy manfaatlar tushuniladi. Kelajakdagi iqtisodiy manfaatlar esa, o‘z navbatida, aktivlarning o‘z egalariga ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanishdagi, majburiyatlarni to‘lab berishdagi yoki majburiyatlarni boshqa aktivlarga almashtirib berishdagi qobiliyatiga bog‘liq. Aktivlardan keladigan daromadlar odatda sof, naqd pullar oqimi shaklini olgan. Shuning uchun aktiv bo‘lishlik uchun har bir resurs alohida yoki boshqa resurslar bilan uzviy bog‘liqlikda bevosita yoki bilvosita pul mablag‘larining kelib tushishini ta’minlashi lozim. Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanishni o‘zida aks etgan buxgalteriya balansidan iborat. Xalqaro amaliyotda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham tijorat banklarining balansi asosan 2 tarkibiy tuzilmadan: passiv va aktivdan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida tashkil topadi. Tijorat banklari tomonidan o‘zlik va jalb etilgan pul mablag‘laridan ma’lum daromad olish va o‘zining likvidligini saqlab turish maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar hisoblanadi. Aynan tijorat banklari olib boradigan aktiv operatsiyalar natijasida o‘zlarining asosiy ma’lumot bazasini shakllantiradilar. Aktiv operatsiyalarning miqdori tijorat bankining ustav kapitali miqdori, bank faoliyatining yo‘nalishi, mijozlar tarkibi, bankda zamonaviy texnologiyalarni mavjudligi, bank xodimlarining malakasi kabi ko‘plab omillarga bog‘liqdir. [4] Iqtisodiy adabiyotlarda aktiv operatsiyalarning mohiyatini ochishda ularni an’anaviy va noa’nanaviy bank xizmatlariga ham ajratadilar. Chunki ularning fikricha tijorat banklari faqat o‘zlariga xos vazifalardan tashqari boshqa xo‘jalik yurituvchi korxonalarning ham vazifalarini bajaradilar. Tijorat bankini o‘zi bajaradigan an’anaviy va noan’anaviy funksiyalari orasida har kuni bank mijozlarining talablariga asosan naqd pulsiz hisob – kitoblarni beto‘xtov amalga oshirish va ularni hisobidan naqd pullarni yetkazib berishi lozim. Shuning uchun tijorat tijorat banklari ixtiyoridagi aktivlarining bir qismi pul shaklida, odatda

bankning korrespondent hisobraqamidagi qoldiq va bank kassasidagi naqd pul shaklida saqlanib turishi lozim. Tijorat banklari faoliyatida daromadli aktivlar bilan boglik amaliyotlar yuqori ulushga ega. Mazkur amaliyotlarning asosini bank tomonidan foyda olish maqsadida o‘z mablag‘lari va jalb kilingan mablag‘larniig ijobiy mutanosibligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar tashkil qiladi.

Ushbu yo‘nalishda Berdiyarov B.T. tijorat banklarining aktiv operatsiyalarni ikki guruhga foizli va foizsiz daromadliga ajratgan. Foizli daromadlarga Kreditlardan olingan foizlar, Lizing operatsiyalaridan olingan foizlar, Faktoring operatsiyasidan olingan foizlar, [5] Boshqa tijorat banklaridagi depozitlardan olingan foizlar va Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olingan foizlar kirsa, foizsiz daromadlarga Vositachilik xizmatlarin uchun komission yig‘imlar, Xorijiy valyuta operatsiyasidan daromadlar, Qimmatbaho toshlar va metallar bilan operatsiyasidan daromadlar, Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalardan olingan daromadlar hamda Boshqa an’anaviy va noan’anaviy operatsiyalardan daromadlar kiradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab vaziyat va rivojlanishdagi global moliyaviy beqarorlik, yirik iqtisodiyotlar orasidagi tarqoqligini oldini olish va tijorat banklarining xavfsizligini ta’minlash uchun bankdagi mavjud aktivlarning rentabelligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va bank tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Global pandemiya hamda bugungi kunda davom etayotgan geosi-yosiy tanglikka qaramasdan, O‘zbekiston bank tizimi mustahkamligi va bardoshliligi bilan rivojlanishda davom etmoqda. Xalqaro amaliyotda aktivlarning mohiyati keng ma’noda avval amalga oshirilgan operatsiyalar, mol-mulk xarid qilish yoki o‘z mol-mulkini uchinchi shaxslarga vaqtincha foydalanishga berishlik bilan kelajakda olinadigan iqtisodiy manfaatlar tushuniladi. Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanishni o‘zida aks ettirgan buxgalteriya balansidan iborat. Mamlakatimizda tijorat banklarining

buxgalteriya balansi 2 ta tarkibiy qismdan: passiv va aktivlardan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida hosil bo‘ladi. Tijorat banklari tomonidan o‘z va jalb etilgan pul mablag‘laridan ma’lum daromad olish va o‘zining likvidligini ta’minlash maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar deyiladi. Tijorat banklari tomonidan aktivlarni samarali shakllatirish va uni boshqarish dolzarb vazifa sanaladi.

Mavjud aktivlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, aktivlarning daromadlilik darajasini pasaytiradi. Shu bilan bir vaqtda, muammoli aktivlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchilar doiralarida “muammoli aktiv” tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko‘proq qo‘llanilmoqda.[6]

Bu, albatta, bekorga emas, chunki respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi rivojlangan mamlakatlar bank tizimining kredit portfelida muam-moli aktivlarning ulushiga nisbatan yuqori foizni tashkil etmoqda. Bugungi kunda ko‘p davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko‘payishi muammosiga duch kelayotganligi sababli banklarning muammoli aktivlari bilan ishlash mexanizmini rivojlantirish masalalari dolzarbligi ortib boraveradi. Jahon tajribasi dalolat beri-shicha, shubhali va umidsiz qarzlar bilan tasniflanuvchi aktivlarning sifati ko‘p hollarda bank tizmidagi barqa-rorlikning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, sohani tashkil etuvchi asosiy banklari muammolari butun to‘lov tizimining amal qilishiga va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchiga sezilarli darajada salbiy ta’sir etishi mumkin. Muammoli aktivlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin.

Jahon banki ma’lumot-lariga ko‘ra, banklarning muammoli aktivlarini yuzaga kelishida ichki omillari bo‘yicha 67% yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich tashqi omillar bo‘yicha bor-yo‘g‘i 33% ni tashkil etadi. Keltirilgan 1 jadval – Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida 2024-yil 1-dekabr holatiga (banklar kesimida) ma'lumot berilgan bo‘lib Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida Markaziy bank statistika ma’lumotlaridan olindi.

1 jadval Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida 2024-yil 1-dekabr holatiga (banklar kesimida) ma'lumot

mlrd.so‘m

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulush, foizda
Jami		751,736	100%	525,887	100%	112,989	100%	297,396	100%
Davlat ulushi mavjud banklar		497,436	66%	363,939	69%	70,183	62%	150,648	51%
1	O‘zmilliybank	135,399	18%	107,289	20%	18,837	17%	37,844	13%
2	O‘zsanoatqurilishbank	86,805	12%	63,996	12%	9,639	9%	18,834	6%
3	Agrobank	77,126	10%	59,641	11%	12,398	11%	18,885	6%
Boshqa banklar		254,300	34%	161,948	31%	42,806	38%	146,747	49%
10	Ipoteka-bank	50,737	7%	34,437	7%	7,400	7%	24,352	8%
11	Kapital bank	45,730	6%	30,937	6%	5,361	5%	35,299	12%
12	Hamkorbank	26,933	4%	18,994	4%	5,044	4%	10,929	4%
13	Ipak yo‘li bank	22,848	3%	14,205	3%	3,571	3%	11,196	4%
14	Orient Finance bank	16,205	2%	12,330	2%	3,012	3%	10,475	4%
15	Invest Finance bank	11,668	2%	7,585	1%	1,382	1%	8,589	3%
16	KDB bank O'zbekiston	10,739	1%	3,292	1%	1,804	2%	6,040	2%
17	Trast bank	10,404	1%	5,617	1%	2,829	3%	7,096	2%
18	Davr bank	9,034	1%	6,834	1%	1,365	1%	3,574	1%
19	Anor bank	8,975	1%	6,678	1%	988	1%	7,630	3%
20	Tibisi bank	8,931	1%	6,885	1%	2,017	2%	4,666	2%
21	Asia Alliance bank	7,352	1%	3,723	1%	1,115	1%	5,567	2%
22	Tenge bank	6,681	1%	3,847	1%	1,285	1%	2,170	1%
23	Ziraat Bank Uzbekistan	4,034	1%	2,058	0%	654	1%	1,963	1%

Tijorat banklari faoliyatida aktiv va passivlarni boshqarishda muhim vosita bo‘lib, aktiv va passivlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalar o‘lib xizmat qiladi. Tijorat banklari faoliyatini sof foizli marja yoki spred ko‘rsatkichlari boshqarish mumkin. Banklarda aktiv va passivlar b ‘yicha foiz stavkalar o‘rtasidagi farq orqali banklar faoliyatini boshqarish bugungi kunda keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Mazkur usulni chuqur o‘rgangan Fransiyalik tadqiqodchi SSF banki xodimi Patrik

Berjere tomonidan 1991- yilda «aktiv va passivlarning qaytish darajasi va «farq» tahlili» nomli o_zining uslubini ishlab chiqdi. Mazkur uslubning eng muhim tomoni shundan iboratki, bu uslub to‘la kompyuter texnologiyasiga asoslangan, ammo oddiy YeXSEL dasturida yaratilgan, bank balansini to‘la tahlilini o‘z ichiga qamragan dastur hisoblanadi.[10]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. (2020)Tijorat Banklari aktiv va passivlarni boshqarish.
2.Sh.Mirziyayevning (2019) uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T.
3.Owusu, F. B., & Alhassan, A. L. (2021). Asset-Liability Management and bank profitability: Statistical cost accounting analysis from an emerging market.International Journal of Finance & Economics,26(1), 1488-1502.
4.Fatone, L., & Mariani, F. (2019). An assets-liabilities dynamical model of banking system and systemic risk governance.arxiv preprint arXiv:1905.12431.
5.Berrospide, J.M., & Edge, R. M. (2019). The Effects of Bank Capital Buffers on Bank Lending and Firm Activity: What Can We Learn from Five Years of Stress-Test Results
6.Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers,
7.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qaroriga ilova qilingan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.
8.Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. 2020 yil Tijorat Banklari Aktiv Va Passiv 9.

TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGI MAHKAMASI QOSHIDAGI “AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA XIZMAT KO‘RSATISH” DUKNING FIRMOGRAFIK TAHLILI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU v.b. dotsenti, Kurbanova Maftuna

Annotatsiya. Ushbu maqola Toshkent shahar hokimligi mahkamasi qoshidagi "Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish" davlat unitar korxonasining (DUK) firmografik tahliliga bag‘ishlangan. Firmografik tahlil korxonaning faoliyatini chuqur o‘rganish, uning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, raqobatbardoshlik darajasini baholash va kelajakdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun xizmat qiladi. Maqolada DUKning tashkiliy-iqtisodiy shakli va faoliyat turi, bozordagi o‘rni va raqobatbardoshlik darajasi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, maqolada "Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish" DUKning moliyaviy holati va iqtisodiy samaradorligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tahlillari, rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar ham berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: firmografik tahlil, davlat unitar korxonasi, avtomobil xizmatlari, bozor tahlili, moliyaviy tahlil, raqobatbardoshlik, rivojlanish strategiyasi.

Kirish. Xizmat ko‘rsatish faoliyatining takomillashtirilishi yil sayin murakkab infratuzilmaviy boshqaruvni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston bozori hozirda avtomobillarning dinamik rivojlanishi bilan bir vaqtda avtomobil ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat kuchaygani bilan tavsiflanadi. Bunda asosiy muammo – xizmat ko‘rsatish va uni uzluksiz rivojlantirib borishda raqobatbardoshlikka bardosh berish sanaladi. Hukumat doirasida qaraganda, avtoservis soha yoki tarmoqlarga ixtisoslashgan rivojlantirishning hal qiluvchi omili sifatida avtomobil parkining o‘sish tendensiyasi sanaladi.

Avtoservisni rivojlantirishdagi asosiy muammolar avtomobilning ehtiyot qismlari yoki to‘ldiruvchi mahsulotlarning yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, uning alohida xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirishni, dastavval buning uchun yuqori malakali kadrlar, xizmat ko‘rsatish uchun zaruriy maydonlarning yetishmasligi, yuqori narxga ega uskunalarning va ehtiyot qismlarining o‘z vaqtida avtoparklarga kiritilmasligi, infratuzilmaviy samara uchun jalb etilishini hal qilish talab etiladi. Bu esa xizmat ko‘rsatish markazlarini shakllantirish bilan bog‘liq alohida tadbirkorlik sohasini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. MDH mamlakatlari orasida avtotransport biznes faoliyatini yuritishning samaradorligini oshirish, avtomobil transporti asosida xizmat ko‘rsatish faoliyatini baholash, brendli avtoservislar tarmog‘i faoliyati sifatini baholashning korporativ tizimini ishlab chiqish va joriy etish, mutasaddi rahbarlarga avtotransport xizmatini ko‘rsatish yuzasidan V.N.Belobjetskiy, I.Yu.Bubnova, S.A.Dementyev, I.Ye.Ilyina, A.S.Loshilov, N.B.Moskalyova, Z.Xizriyeva singari iqtisodchi olimlar o‘z tadqiqotlarida yoritganlar.

O‘zbekistonlik olimlardan M.D.Abdumannapova, J.G‘ofurov, N.N.Jurayeva, S.N.Ilxomova, G.Z.Manapova, O.B.Tursunov, X.X.Xikmatov, A.Yo‘lchiyev, V.K.Yarashova ilmiy izlanishlarida transport vositalarini tartibga solish, xalqaro transport koridorlarini munosib boshqarish, transport sohasida kadrlar kasbiy

malakasini oshirish, sifatli transport xizmatlarini ko’rsatish masalalari o‘rganilgan.

Ingliz iqtisodchi olimasi hamda nufuzli marketolog X.Meyning xizmat avtomobili yoki xizmat ko‘rsatishga yollanadigan avtomobilga bergan ta’rifi ularning ustunlik va kamchiliklariga qaratilgan risolasida bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Xizmat avtomobili deganda, xodimga uning ish faoliyatini yurituvchi korxona yoki tashkiloti (ish beruvchisi) tomonidan berilgan va shaxsiy maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lgan avtomobil nazarda tutiladi. Uning fikriga ko‘ra, “turli ma’muriy organlar kompaniya avtomobillari haqidagi ma’lumotlarni konfidensialligini saqlashga hamda uning ma’lumot sifatida so‘ralishini taqiqlashga intilishlari borasida xizmat mashinalariga ko‘rsatiladigan xizmatning strategik jihatdan muhim ekanligini ifodalaydi” [1].

Buyuk Britaniya iqtisodchi olimi Kristofer Robertsning fikriga ko‘ra, davlat boshqaruvi hamda mahalliy hokimiyat organlarida avtomobil xizmatidan foydalanayotgan shaxslar har jihatdan ibratli bo‘lishlari kerak. Bu esa o‘z navbatida, eng asosiy transport xizmatini tez-tez modernizatsiya qilishga turtki bergan. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm jihatdan xizmat ko‘rsatish faoliyati davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari uchun yangi sahifani ochib bergan [2].

Xizmat avtomashinasi tushunchasi iqtisodchi olim va davlat arbobi B.Borger tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u asosida “Belgiya davlatidan davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyat organlarining xizmat mashinalari uchun andoza olingan. Belgiya ma’lumotlaridan foydalangan holda olingan raqamli ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bu optimal tirbandlik soliqlar orqali erishish mumkin bo‘lgan farovonlik yutuqlarining yarmini tashkil qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, korporativ avtomobillar uchun qulay soliq rejimi, jamoat transporti uchun katta subsidiyalarni oqlashga qaratilgan strategiyani shakllantirdi” [3].

Rus olimasi N.V.Rubtsova avtoserviz xizmatini ko‘rsatish yuzasidan uning iqtisodiy-tendensial asosini tadqiq etgan. Uning fikriga ko‘ra, “zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy tendensiyasi – bu sanoat iqtisodiyotidan intellektual resurslar, ya’ni bilim talab qiladigan va axborot texnologiyalariga asoslangan, jadal

o‘sish bilan tavsiflangan iqtisodiyot pirovardida “postindustrial” yoki “xizmat ko‘rsatish” iqtisodiyotiga o‘tishdir. Xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan murakkabroq sanaladi” [4].

Tadqiqot metodologiyasi. “Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti – sanoat iqtisodiyotidan farqli o‘laroq, iqtisodiy faol aholining asosiy qismi xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘ladi va ushbu tarmoqning milliy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi boshqa tarmoqlar ulushidan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan iqtisodiyot sohasidir” [5]. Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyati uning sharoitida amalga oshiriladigan faoliyatni asosan mijozga yo‘naltirilganligi bo‘lib, bu samarali faoliyat g‘oyasini kengaytirish zarurligini ta’minlaydi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati davlat boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarida transport xizmatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yanada taraqqiy ettirish, shuningdek, ularning strategik boshqaruvini samarali yo‘lga qo‘yish, yashil iqtisodiy faoliyat asosida mexanizmni faollashtirish va shu singari chuqur ilmiy tadqiqotlardan amaliy foydalanish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Tahlil va baholash. Xizmat ko‘rsatish markazi va unga kiruvchi avtomobillar soni ko‘payishi mazkur xizmat ko‘rsatish sohasining nechog‘lik iqtisodiy jihatdan samarali va daromadli ekanligini tavsiflaydi. Biroq avtomarkazlarning o‘zaro raqobatlashuvi uchun butunlay shakllangan infratuzilma, ya’ni avtotransport korxonalarida katta tajribaga ega mutaxassislarning yetishmasligi va ish tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarning mehnat faoliyatini olib borishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish talab etiladi. Bugungi kunda so‘nggi texnik adabiyotlar bo‘yicha bilim-ko‘nikmaga ega bo‘lgan hamda zamonaviy asbob-uskunalar bilan ishlashga qodir universal mutaxassislar soni yetarli darajada emas, shu bilan bir qatorda, bunday adabiyotlar faqat rasmiy dilerlarga beriladi. Natijada, umumiy xizmat ko‘rsatish markazlarining mutaxassislari avtomobilning tarkibiy qismlari tuzilishini mustaqil ravishda tadqiq etishlariga to‘g‘ri keladi, bu o‘z navbatida, juda ko‘p vaqtni talab etadi, qolaversa avtomobillar bilan bog‘liq jihatlar o‘rganilgach,

uni ta’mirlash uchun zaruriy ehtiyot qismlarni hamda ularning o‘zaro ishlash uyg‘unligini tushunadigan mutaxassisni topish talab etiladi.

Buning natijasida, avtoservis korxonalari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa – avtoservis bilan bog‘liq barcha jarayonlarni avtoparkning o‘zida mujassamlashtirilishidir. Bunga – yoqilg‘i quyish, yoqilg‘ini saqlash va uning omborini yuritish, ta’mirlash, buning uchun ehtiyot qismlar bazasini shakllantirish, sinovdan o‘tkazish hamda muntazam kuzatish ishlarini olib borish singari jarayonlar kiradi. Mahalliy brendlarning avtomobillari, ularning sifati va ishonchliligining past
darajasini dunyodagi yetakchi avtomobillar bilan solishtirganda, ishlab chiqaruvchilar mazkur maqsadga yo‘naltirilgan jarayonlarning ketma-ket amalga oshirilishida AQSh tajribasiga ko‘ra, SIC (standart sanoat kodi)ni tatbiq etish orqali hokimiyatning boshqaruvi doirasida uni baholash usulini tizimlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. (1-jadval).

1-jadval Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyat organlari (DBMDHO) faoliyati darajasini baholash [6]


№	Baholash nomi	Hisob formulasi	Baholash tarkibi	Izoh
Baholashning 1-bosqichi. Transport xizmat ko‘rsatish faoliyatini tatbiq etishga tayyorlash				
1.	DBMDHO uchun avtoservisni rivojlantirishda g‘oyalarni generatsiya qiladigan xodimlar		U_m – DBMDHOning umumiy xodimlari soni umumiy g‘oyalarni generatsiya qiladigan xodimlar soni	DBMDHOda ishchi xodimlarning servis faoliyatdagi ishtirokini aniqlashga xizmat qiladi
2.	DBMDHOning avtomobil xizmatlari bilan tuzadigan shartnomalari ulushi		U_l – DBMDHOning umumiy loyihalari soni U_{il}– DBMDHOdagi umumiy xizmat ko‘rsatish loyihalar soni	DBMDHOning innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va tatbiq qilish darajasini aniqlaydi
3.	DBMDHOda transport xizmatida innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish qobiliyati		R_{IFa} – DBMDHOda innovatsion loyihalarni tatbiq etish qobiliyati ko‘rsatkichi S_{TFa} – DBMDHO ixtiyoridagi moliyaviy mablag‘lar;	Asosiy fondlarning xizmat ko‘rsatish ishlanmalarini DBMDHOga tatbiq etishga tayyorligi

			S_{NFa} – DBMDHOning xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirishni boshqaruvchi xodimlar	
4.	4.DBMDHOga transport xizmatini ko‘rsatuvchi xodimlarning salohiyati	$P_{IS} = \frac{S_{TS} + S_{NS}}{S_{TS}}$	P_{IS} – DBMDHOda xizmat ko‘rsatish loyihalarni tatbiq etishda xodimlarning qobiliyati ko‘rsatkichi S_{TS} – DBMDHOda ishchilar soni S_{NS}DBMDHOning xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirishni boshqaruvchi xodimlarga talab	DBMDHOda xizmat ko‘rsatish g‘oyalarini amalga oshirishda xodimlarning ishtiroki va ularning xizmat ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish maqsadida shakllantirilganligi

“Standart sanoat kodi (SIC) tizimining tasnifi mamlakatdagi korxonalarni iqtisodiy faoliyati bo‘yicha tasniflovchi raqamli kod bo‘lib, undan davlat idoralari, tadqiqotchilar va tahliliy xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan turli sohalardagi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish, shuningdek, solishtirish uchun foydalaniladi” [7]. Bu davlat boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv faoliyatini yengillashtiradi, shuningdek, nazorat funksiyasining kuchaytirilishiga turtki bo‘ladi.

AQShning SIC tajribasini mamlakatimizning iqtisodiy infratuzilmasiga moslashtirish orqali tatbiq etishda uni milliy “Standart tarmoqning iqtisodiy tasnifi” (SNEC) sifatida takomillashtirish davlat boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining avtotransport vositalaridan foydalanish asosida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi” [8]. Buning uchun korxonalarning xizmatidagi avtotransport vositalarining kodlashtirilishi talab etiladi, biroq SIC, NTEE (Soliqdan ozod qilingan tashkilotlarning milliy taksonomiya kodlari – AQSh tajribasi), UNSPSC (BMTning standart kodeksi va xizmatlari – BMT tajribasi), GICS (Global sanoat tasnifi standarti – xalqaro moliya bozori tajribasi)dan farqli o‘laroq, uning tasnifi iqtisodiy jihatlarga qaratilishi tavsiya etiladi. Bu o‘z navbatida mazkur tasnifning xizmat sohasida firmografiyani rivojlantirishga ta’siri bilan izohlanadi.

Mazkur kodlashtirishda soha va tarmoq raqamiga ko‘ra ajratilishi mamlakatda mavjud soha va tarmoqlarning soniga ko‘ra chegaralanadi. Mulk shakliga ko‘ra, korxonaning mulki emas, balki uning tashkiliy tuzilmasi nazarda tutiladi, ya’ni: 1-AJ; 2-MChJ; 3-DUK; 4-ShK; 5-QK; 6-YaTT, agar aralash bo‘lsa, u holda dastavval jamiyat tasnifi, so‘ngra korxona tavsifi qayd etilishi lozim. “SamAvto” MChJ QK misolida bu holat (2-MChJ va 5-QK) 25 soni orqali ikki xonali songa ega bo‘ladi va kodlashtiriladi.



1-rasm.Standart tarmoqning iqtisodiy-tasnifiy kodlashtirilishi (SNEC-Standard network economic classification)[18]

Korxonaning tarmoqdagi raqami uning nechinchiligini ifodalaydi va bu sarhisob har bir viloyatda alohida olib borilishi maqsad muvofiqdir. Korxonaning yashil iqtisodiyotdagi salohiyatini tavsiflovchi raqam korxonaning ekologik mahsulotlar va ekologik texnologiyaga egaligini izohlaydi. Bunda faqatgina uch son orqali raqamlashtiriladi:

“0-an’anaviy va ekologik jihatdan takomillashtirilmagan texnologiyaga asoslanadi; yarim ekologik va yarim an’anaviy texnologiya asosida ishlab chiqaradi/xizmat ko‘rsatadi; ekologik texnologiya asosida ishlab chiqaradi/xizmat ko‘rsatadi”[5].

Uning natijaviyligi firmografik samaradorlikni keltirib chiqaradi. Bizning fikrimizga ko‘ra, firmografiya faqatgina korxonalarning faoliyati hamda xususiyati

[18]Muallif ishlanmasi.

bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash va aniqlashdan emas, balki bozor segmenti doirasida amalga oshiriladigan G2B xizmatini ta’minlash maqsadida hamkorlar va raqobatchilarni aniqlashga xizmat qiladi.

Firmografiya uchun SNECning faollashtirilganidan samarali foydalanish-maxsus baholash tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida approksimativ aniqlik, kesishgan tekshiruv hamda ekspert baholash orqali firmografoskopiyani baholashda qo‘llaniladi (2-jadval).

2-jadval SNEC uchun firmografoskopik baholash

№	Baholash ko‘rsatkichi nomi	Baholash mezoni	Mezon tavsifi
1.	Sifat ko‘rsatkichiga ko‘ra approksimativ baholash	$R_q^2 = 1 - \frac{(T-1)}{(T-k)}R^2 = 1 - \frac{(T-1)SSM}{(T-k)YSM}$	R_q-sifat ko‘rsatkichi; T-kuzatishlar soni; k-baholanadigan parametrlar; R- sifat ko‘rsatkichig egaligining davomiyligi; SSM- standartial sifat ko‘rsatkichi; YSM-qo‘shimcha sifat ko‘rsatkichi
2.	Kesishgan tekshiruv	$I_{qr} = f^* - f^m;$	I_{qr}-indeksial ko‘rsatkichlarning kesishuvi; f_*-firmografik omillarning nisbati; f_m-firmografik omillarning asl sifat tavsifi
3.	Axborot mezoni (An Information Criterion)[19]	$AIC = 2k - 2ln(l(\theta\|Y))$	ɵ- axborotning modelli parametrlari vektori (k omillar bo‘yicha); Y-haqiqatda tashkiliy ko‘rsatkichlar vektori; L- logarifmik ehtimollik funksiyasi

Toshkent shahar hokimligi qoshidagi “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK mutasaddi tashkilotlarga xizmat ko‘rsatishda barcha mavjud tashkiliy hamda iqtisodiy ma’lumotlarni qo‘lda kiritadi (avtomatlashtirilmagan holda). Bu o‘ta noqulaylikni hamda hisobotlarni shakllantirishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda, ularning nazorat funksiyasi sustlashib boradi. Shunga ko‘ra, mazkur muammoni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur sanaladi, buning uchun firmografik tahlildan foydalanish o‘rinlidir. Odatda, “savdo va marketing bo‘yicha mutaxassislar

[19] Akaike H. Factor analysis and AIC // “Psychometrika”. – 1987. – Vol. 52. – pp. 317-332.

kompaniyalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda kimni nishonga olishlari kerakligini tushunish uchun firmagrafiyadan foydalanadilar” [10].

Firmografiya avtotransport xizmatlarini yaxshilashga intilayotgan mahalliy davlat hokimiyat organlari uchun kuchli yechim taklif etadi. Ma’lumotlarga asoslangan tushunchalar va yuqorida keltirilgan tahlillardan foydalangan holda, firmografiya mahalliy davlat hokimiyat organlarida xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, operatsion va davriy xarajatlarni kamaytirish va xizmatdan foydalanuvchilar tajribasini yaxshilash imkonini beradi. “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUKning yuqorida aniqlangan tahlillarini SNEC uchun firmografik tahlil natijalari bilan uyg‘unlikda tadqiq etilishi strategik biznes modelni ishlab chiqishga hamda tegishli qaror qabul qilishga ta’sir etadi (3-jadval).


3-jadval Toshkent shahrida SNEC uchun firmografoskopik tahlili, (2023-yil, foizda)

№	Bah ko‘rsatkichi nomi	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Sifat ko‘rsatkichiga ko‘ra approksimativ darajasi	46 o‘rta yuqori	44 o‘rta quyi	67 o‘rta yuqori	77 yuqori	79 yuqori
2.	Kesishgan tekshiruv	34 past	37 past	41 past	44 past	52 o‘rta
3.	Axborot mezoni (An Information Criterion)	23 past	23 past	29 past	29 past	34 past

Mazkur jadvalda sifat ko‘rsatkichiga ko‘ra approksimativ darajasi transport xizmati uchun 2019-yilda 46 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda Covid-19 tufayli biroz pastlagan, biroq 2021-yildan 2023-yilga qadar keskin o‘sish sur’ati kuzatilgan bo‘lib, bunda “O‘zbekiston – 2030” strategik chora-tadbirlari, e-hukumat singari raqamli va biznes modellari tatbig‘ining mahsuli sifatida kuzatiladi. Biroq, “avtotransport vositalarining xizmati sifatini oshirishda ishonchlilik va kutilgan

ko‘rsatkichga xos bo‘lishini ta’minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan dasturiy vositalar ishlab chiqishni talab etadi” [11].

Kesishgan tekshiruv asosida avtotransport xizmatining mobilligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, tashkiliy-iqtisodiy jihatdan mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan darajasi 2019-yildan 34 foizdan 2023-yilda o‘rta daraja 52 foizga yetgan. Biroq, bunda o‘zaro transport vositalarining firmografik samarasini oshirishda omillarning ta’sirini kuchaytirish ahamiyati oshadi, shunga ko‘ra, uning transformatsion jarayonlardagi ishtirokini oshirish lozim sanaladi. Bunga erishish uchun avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatishda tarmoqning o‘ziga xos ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, firmografik tahlil qilishning kompleks asoslarini ishlab chiqish zarur. Bunday asosni ishlab chiqish va joriy etish orqali avtoulovlarga xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar firmografik tahlilning to‘liq imkoniyatlarini ochishlari va ularning operatsion samaradorligi, mijozlar ehtiyojini qondirish va raqobatbardoshligida sezilarli yaxshilanishlarga erishishlari mumkin. (2-rasm).



2-rasm. Firmografik strategik yondashuv bosqichlari

Toshkent shahri sharoitida avtotransport xizmatlarida firmografik tahlilni qo‘llash soha rivojiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shahardagi avtoulovlarga xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarning firmografik profillarini tahlil qilish orqali samarasiz hududlarni, o‘sish imkoniyatlarini va ta’minot zanjiri uzilishi va tartibga solish o‘zgarishlari bilan bog‘liq xavflarni aniqlash mumkin. Bundan tashqari, avtomototransport vositalariga xizmat ko‘rsatishda firmografik tahlilning kompleks asoslarini ishlab chiqish Toshkent shahrida yanada raqobatbardosh va barqaror sanoatni yaratishga yordam beradi.

3-rasm. Toshkent shahri va tumanlari hokimliklariga avtotransport xizmatini ko‘rsatish (firmografik) tahlili

Firmografik ma’lumotlardan foydalangan holda, avtoulovlarga xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar o‘z faoliyatini optimallashtirishlari, mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashlari va bozorda raqobatbardoshligini oshirishlari mumkin. Buning uchun Toshkent shahrida mavjud barcha avtotransport xizmat ko‘rsatish korxonalarining firmografik tahlilini axborot mezoniga ko‘ra tahlil qilish orqali aniqlash mumkin (3-rasm). Mazkur rasmda Toshkent shahridagi tumanlar orasida firmografik tahlil olib borish natijalari keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra qisqa muddatli oraliq ichida (2024-yil 1 yarim yillik) hokimiyat ishtirokisiz tenderlarning samaradorligi Mirobod tumanida 2,5 mln. so‘mga oshgan. Bu kabi o‘sish sur’ati Yakkasaroy, Olmazor hamda Chilonzor tumanlarida ham kuzatilib, segmentdan og‘ish tahlillariga ko‘ra firmografik holatning to‘g‘ri faoliyat olib borilishi to‘laqonli ta’minlanmaganligini anglatadi.

Xulosa va takliflar.“Firmografiya va demografiya o‘zaro bir-biriga o‘xshashdir, chunki ular ikkalasi ham maqsadli bozor yoki auditoriya borasida izchil ma’lumot beradi hamda tadqiqotlarining asosliligi, raqobatchi kompaniyalar oldida ustunlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda shuni e’tirof etish joizki, firmagrafiyada kompaniyaning o‘ziga xos xususiyatlari va demografik ko‘rsatkichlari, masalan, hajmi, sohasi, geografik joylashuvi va qaror qabul

qiluvchilar inobatga olinsa, demografiyada shaxslarning yoshi, jinsi, daromadi va ma’lumoti kabi demografik ko‘rsatkichlari va xususiyatlariga e’tibor qaratiladi” [12].

Mahalliy davlat hokimiyat organlari o‘z fuqarolariga samarali avtotransport xizmatlarini ko‘rsatishga harakat qilar ekan, so‘nggi yillarda mazkur xizmatlarni ko‘rsatishda xizmat sohasining kengayib borishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishmoqda. Avtoturargohlarni boshqarish va marshrutlarni optimallashtirishdan boshlab, xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga qadar keng ko‘lamli chora-tadbirlar avtotransport operatsiyalarining murakkabligini oshishiga sabab bo‘ladi. Bu yerda firmagrafiyadan foydalangan holda, xizmat ko‘rsatishda nanoiqtisodiy nazariy tushunchalar va kelgusi davr iqtisodiyotini yaxshilash imkoniyatlarini ochish uchun ma’lumotlar tahlili va vizualizatsiyani qo‘llash natijasida strategik yondashuv sifatida o‘z salmog‘ini namoyon etadi. Firmografiya va demografiyani amalda qo‘llash korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini mustahkamlash uchun maqsadli bozorini yanada kengroq egallashga yordam beradi va strategik jihatdan muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mey X., Ermans T., Xooftman N. La revue scientifique pour les recherches sur Bruxelles/ Het wetenschappelijk tijdschrift voor onderzoek over Brussel// “The Journal of Research on Bruxelle”. – 2019.
2.De Borger B., Proost S. A political economy model of road pricing // “Journal of Urban Economics”. –Vol. 71. – Isseu 1. – 2012. – pp. 79-92.
3.Royalty A.B. Tax preferences for fringe benefits and workers’ eligibility for employer health insurance//“Journal of Public Economics” -Volume 75, Issue 2.- 2000.- pp.209-227.
4. Rubtsova N. The impact of the pandemic on the legal regulation of entrepreneurial activity of transport companies // “Transportation Research Procedia”. – 2022. – Vol. 63. – pp. 1798-1803.
5.Мальганова И. Г. Мировая экономика и международные экономические отношения: конспект лекций. – 2014.
6. Васильев Е.С., Васильева Е.Н. Разработка системы расчета интегрального индекса инновационной активности предприятий малого и среднего бизнеса автомобилей// Интернет-журнал «Науковедение». -Том 7. - №6. -2015.
7.
8. Kurbanova M.L. Prospects for development of the digital economy in the service sector in conditions of economic growth// “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy - elektron jurnali. -2023 yi, 4-son. –104-116-b.
9.Lazizovna K.M. Improving motor transport services in state and local governments// “Raqamli iqtisodiyot”.- 2024 yil, 7-son.-B.154-167.
10. Sales-strategy/firmographic.-
11.Kurbanova M.L. Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyat organlarida transport xizmatini ko‘rsatishning innovatsion faoliyatini takomillashtirish// “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent, 2024. -B.125-131.
12. Gerardus Blokdyk. Firmographics A Complete Guide. (Practical tools for self-assessment) // The art of Servis - 2022, 302 pages// https://www.amazon.com